

XALQARO HUQUQ BO'YICHA. BMT XALQARO SUDI ISH AMALIYOTI MATERIALLARI

Central Library (UWED)



00064805

O'QUV QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

A.I.UMIRDINOV, A.M.XAKIMOV

**XALQARO HUQUQ BO'YICHA.
BMT XALQARO SUDI ISH
AMALIYOTI MATERIALLARI**

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT – 2019

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 9-fevraldag'i 133-son buyrug'iiga asosan 5240100 – Yurisprudensiya yo'nalishi talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan.

UDK:341 (075.8)(575.1).

KBK: 67.412.1 X22 66.4(0)

Xalqaro huquq bo'yicha. BMT Xalqaro sudi ish amaliyoti materiallari.

O'quv qo'llanma. y.f.d. prof. A.I.Umirdinov (VI, VII, VIII, IX, X, XIII, XIV), A.M.Xakimov (I, II, III, IV, V, XI, XII). – Toshkent. TDYU nashriyoti, 2019. – 160 bet.

Mas'ul muharrir:

X.R.Ochilov – Toshkent davlat yuridik universiteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasи mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori.

Taqrizchilar:

G.Yuldasheva – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi.

D.Sh.Umarxanova – Toshkent davlat yuridik universiteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasи dotsent vazifasini bajaruvchisi, yuridik fanlar doktori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-1990 sonli va 2017-yil 28-apreldagi “Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2932-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

Oliy yuridik ta'lif muassasalarining talabalari, magistrantlari hamda xalqaro huquqqa qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanma 5240100 – Yurisprudensiya yo'nalishi talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
Huquqiy ta'linda mazkur o'quv qo'llanmadan foydalanimishning ahamiyati	6
O'quv qo'llanmadan foydalanimish usuli	7
 I. Xalqaro huquqqa kirish. Xalqaro huquq manbalari:	
Preah Vihear ibodatxonasi ishi. 1962-yil 15-iyun	9
II. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari. Xalqaro huquq normalarining ichki huquq normalaridan ustuvorligi tamoyili: 1872-yil 14-sentabrdagi Alabama ishi.....	
.....	16
III. Xalqaro huquq subyektlari. Davlatlarning tashkil topishi va tugatilishi. Yevropa Ittifoqining Yugoslaviya ishlari bo'yicha konferensiyasi, 1992-yil 4-iyuldag'i arbitraj komissiyasining 8-xulosasi.....	
.....	24
IV. Xalqaro huquqda yurisdiksiya masalalari. Davlat suvereniteti va yurisdiksiya masalalari: 1923-yil 17-avgustdag'i Uimbl'don ishi.....	
.....	32
V. Xalqaro huquqning prinsiplari va yurisdiksiya.	
O'zbekiston va Metal-Tech ishi 2013-yil	38
VI. Xalqaro huquqda hudud masalalari. Davlat chegaralarining belgilanishi – Benin va Niger o'rtaqidagi chegara nizosi	
.....	46
VII. Xalqaro shartnomalar huquqi. Xalqaro shartnoma normalarini sharhlash: "Liviya va Chad o'rtaqidagi hududiy mojaro" Xalqaro Sud 1994-yil 3-fevral	
.....	52
VIII. Xalqaro tashkilotlar huquqi. BMT xizmatini amalga oshirishda ko'rilgan zararlar uchun kompensatsiya to'lash bo'yicha nizo, Xalqaro Sudning konsultativ xulosasi, 1949-yil	
.....	60
IX. Xalqaro-huquqiy javobgarlik. Amerika Qo'shma Shtatlarining Tehrondagi diplomatik va konsullik vakillari bo'yicha Xalqaro Sud qarori 1980-yil 24-may	
.....	67
X. Xalqaro gumanitar huquq. Kuch ishlatalish va jamoaviy o'zini-o'zi himoya qilish yuzasidan Nikaragua va AQSH o'rtaqidagi nizo, 1986 yil, BMT Xalqaro Sudi qarori	
.....	75

XI. Xalqaro iqtisodiy huquqi. Investitsiya qabul qiluvchi mezbon davlatning majburiyatlari – Saluka ishi, Ad hoc arbitraj sudi	82
2006-yil 17-mart	82
XII. Xalqaro investitsiya huquqi. Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejimning mohiyati – Avgustin Maffezini ishi. 2000-yil 25-yanvar	90
XIII. Xalqaro jinoyat huquqi va inson huquqlari. Jinoyat sodir etgan shaxslarning topshirilishi va o‘lim jazosiga oid Sooring ishi	100
XIV. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida. O‘zbekiston va Oxus Gold ishi 2015-yil 17-dekabr.....	108
O‘zbekiston Respublikasining ba’zi xalqaro shartnomalari.....	138
Atamalar lug‘ati (glossary)	155
Sud ishlari ro‘yxati	159

KIRISH

Ommaviy axborot vositalari orqali muloqot qilish juda ham rivojlangan bir paytda dunyoning turli taraflaridan ba'zi bir noxush xabarlarini eshitib turamiz. Bularga misol qilib etnik muammolar, nizolar, tabiiy ofatlar, savdo bilan bog'liq kelishmovchiliklar, chegaralardagi otishmalar, bosh tortish (boykot) e'lon qilish, inson huquqlariga zid xatti-harakatlar va, albatta, qochoqlar muammosini keltirib o'tishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, XXI asrga kelib oldingi asrlardagi misli ko'rilmagan global urushlar, qon to'kishlar yoki garovga olish kabi muammolar keng miqyosda yuz berayotgani yo'q. Insoniyat ushbu asrda har sohada globallashuvga shohid bo'lmoqda – davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora rivojlanib, global iqtisodiyot va siyosat tobora davlatlarning bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda ish yuritishini talab etmoqda.

Lekin Yaqin Sharqdagi Isroi-Falastin muammosi, millionlab insonlarni o'z vatanidan judo qilgan Suriyadagi ichki urush, Qrimning Rossiyaga qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan tarang vaziyat, Xitoyning Janubiy Xitoy dengizidagi harbiy bazalar qurilishi, Afrika davlatlarida tugamayotgan keng miqyosdagi ocharchilik, G'arbiy Yevropa davlatlariga doimiy ravishda kirib kelayotgan qochoqlar muammosi hamda Bangladesh-Myanmar chegarasida yaqindagina vujudga kelgan dunyodagi eng zich qochoqlar lageri (Rohingyaliklar muammosi) dunyoning bugungi kundagi holatini yaqqol namoyon etib turibdi.

Biroq, BMT Xalqaro Sudi sudyasi professor Jeyms Korfod 2013-yilgi Gaaga shahrida yozgi akademiyada so'zlagan o'z nutqida dunyoning turli joylaridan yig'ilgan 300 dan ziyod xalqaro huquqni o'rganuvchi talabalariga, "Kamina ham o'sha baxtlilar orasida, dunyo hech qachon bunchalik tinch, osuda va farovon bo'limgan. Bunday bo'lishida esa, shubhasiz, davlatlarning, asosan, ikki yoki ko'p tomonlama tuzgan bitimlari, xalqaro shartnomalari juda katta rol o'ynaydi. Asrlar davomida misqollab yig'ilgan xalqaro odad huquqining ahamiyati ham tobora ortmoqda. Chunki biz aynan shunday shartnomalar va urush qilishni umumiy huquq prinsiplariga zid deb e'lon qilgan xalqaro huquq sohasining ma'lum darajada marhamatiga tufayligina boshimizdan bombalar yog'ilmasligiga amin bo'lgan holda yashamoqdamiz. Xalqaro huquq Birinchi va Ikkinci jahon urushi kabi o'ta achchiq tajribalar natijasida insoniyat tinchligi va farovonligi uchun ishlab chiqilgan, ishlab chiqilayotgan va kelajakda ham yuksalishdan to'xtamaydigan huquq sohasidir" degani bejiz emas.

Afsuski, o'tgan asrdagi global urushlar qoldirgan asoratning inson xotirasidagi izi o'chib borishi bilan insoniyatning yana salbiy tomonlarga mayl qilishi kuchaymoqda. Oldin umuminsoniy tashabbuslar uchun jonini berishga tayyor ko'p sonli va iqtisodiy jihatdan anchagina baquvvat bo'lgan davlatlar va millatlar ham iqtisodiy, siyosiy va tarixiy vajlarni ko'rsatgan holda eski davrdagi populizm, shovinizm, millatchilik, proteksionizm kabi illatlarni yana boshidan kechirmoqda. Afg'oniston mojarosi esa yana qaytadan kun tartibiga kirib kelmoqda. Insoniyat tomonidan rivojlantirilgan sun'iy aql (artificial intelligence) esa odam bolasi kutmagan xavflarni o'zi bilan birga yetaklab kelmoqda.

Dunyoga tom ma'noda ochilish – yurtimizning eksport salohiyatini ko'tarish, inson omilini oldinga olib chiqish, hududiy ichki turizmnı rivojlantirish, yaqin paytgacha bizni bezovta qilib kelgan xalqaro daryolar suvlaridan o'zaro manfaatli ravishda tinch yo'l bilan foydalanish, odam savdosining oldini olish kabi muammolarga qarama-qarshi turgan O'zbekiston Respublikasi huquqshunoslaridan ham bunday qiyin va tez o'zgaruvchan paytda xalqaro huquq qoidalari, ularni ishlatalish uslublari va nihoyat nizo chiqqan paytda ularni to'g'ri talqin eta olish kabi kuchli tahliliy qobiliyatlar talab etiladi. Shu sababli ham yosh huquqshunoslarmiz xalqaro huquq sohasini yuksak darajada o'zlashtirishlari zarur deb hisoblaymiz.

Huquqiy ta'lilda mazkur o'quv qo'llanmadan foydalanishning ahamiyati

Kuchli huquqshunosdan faqatgina qonun normasini quruq yodlash emas, balki har bir qonunning maqsadini chuqur tushunish orqali o'sha qonun maxsus qismidagi moddalarni qonunning asosiy maqsadi yo'lida huquqning umumiy prinsiplari asosida sharhlay bilish talab etiladi. Ushbu keyslar to'plami o'quvchida sudyalarining ko'rgan har bir ishlari yuzasidan yuritayotgan fikrlari, muayyan bir kazusni yechish jarayonida sharhning qay bir usuliga aynan nima sababdan murojaat qilganligini bilish va ayni damda chiqarilgan hukm yuzasidan aniq ma'lumotga ega bo'lish qobiliyatini vujudga keltiradi. Umid qilamizki, sud islohotlariga oid 2018-yil iyul oyida chiqarilgan Prezident Farmoni milliy sudlarimizda ko'rilgan ishlarning tez orada o'quvchi qo'lida paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

Toshkent davlat yuridik universitetida zamонавија модул тизимига о'тланганидан со'нг, dunyoning kuchli universitetlari tomonidan joriy etilgan "case study" kabi o'qitish usullaridan foydalanib kelinayotgan bir

paytda, bunday sud amaliyotini o'zida jamlovchi o'quv qo'llanmalar bo'lishi zarur. Qo'lingizdagи ushbu keyslar to'plami xalqaro huquqdagi yetakchi nizolarni o'z ichiga olgan. Chunki globallashuv jarayoni kuchaygan bir davrda xalqaro investitsiya huquqining qanday tatbiq etilayotganligi, savdo shartnomalarining davlat suverenitetiga qanday ta'sir etishi, xalqaro suv manbalari bo'yicha odatiy huquqiy masalalar qay yo'sinda olib borilayotganligi va nizo paytida sud yoki arbitraj hakamlari bu holatni qanday shaklda talqin qilinayotganligini o'rganish talaba uchun zarur. Ana shundagina o'rganayotgan ilmimiz biz uchun manfaatli bo'ladi.

Ushbu keyslar to'plamida BMT Xalqaro Sudi qarorlari bilangina cheklanmasdan, Yevropa Inson huquqlari va boshqa ad hoc arbitrajlar yoinki BMT Xalqaro Sudining konsultativ xulosalariga ham murojaat qilindi. Maqsadimiz xalqaro huquqni o'rganayotgan talabalar o'zlar o'qiyotgan har bir mavzu bo'yicha huquqiy bilimlarini yuksaltirib, mavjud muammoga nisbatan oid huquqiy manbani tez va aniqlik bilan tushungan holda faktlarga tayanib, xalqaro huquqning sharhlash usullari asosida, ishonchli tarzda ularni tatbiq eta olish qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

O'quv qo'llanmadan foydalanish usuli

Mazkur o'quv qo'llanmadan foydalanishlarida, talabalar ushbu kitobning boshqa darslik va o'quv qo'llanmalardan anchagini farq qilishini hisobga olishlari zarur. Chunki, odatda, an'anaviy darslik va o'quv qo'llanmalarda fan asosan nazariy jihatdan o'rganiladi va nazariya borasida amaliyotdan qisqacha misollar keltiriladi. Ushbu o'quv qo'llanmada esa, sud amaliyotini o'rganish va siz bilgan nazariy bilimlar amaliyotda qanday qo'llanilayotganligini ko'rsatib berish maqsad qilingan. Shu sababdan ham o'quv qo'llanmada avvalo sud amaliyotidan aniq bir ish keltiriladi, so'ngra unga qisqacha sharh beriladi. Demak, har bir bob quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi. Avvalo, taqdim etilgan nizoning vujudga kelishi va tarixi qisqacha yoritib beriladi. Undan so'ng, nizo bo'yicha sud qarori keltiriladi. Sud qarorini keltirishda da'vogarning da'volari, javobgarning vajlari va sudning xulosasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Keyingi qismda esa sud qarorining eng ahamiyatli bandlari keltirilib, sud nizoning asosiy muammolariga qanday sharh bergenligi, da'vogar va javobgarning vajlarini qanday izohlaganligi yoritib beriladi. So'nggi qismda esa mualliflar ko'plab olimlarning fikr-mulohazalariga tayangan holda sud qarorlariga sharh beradilar. Sharh berishda talabalarga nazariy bilimlarni taqdim etish ham maqsad qilingan.

Yuqoridagilardan tashqari, o'quv qo'llanmada har bir mavzuda qo'llanilgan ilmiy terminlarni o'zida jamlovchi atamalar ro'yxati (glossariy), talabalar xalqaro sudlarning rasmiy saytlaridan qiyinchiliklarsiz sud qarorlarini topib o'rganishlari uchun mavzularga taalluqli bo'lgan sud qarorlarining rasmiy nomlari keltirib o'tilgan.


Ushbu o'quv qo'llanmada taqdim etilgan sud amaliyotidan keltirilgan ishlarning barchasi ham O'zbekiston bilan bog'liq bo'lмаганилиги bois nazorat savollarida iloji boricha O'zbekiston bilan bog'lab savollar berishga harakat qilingan. Bu esa talabalarning nafaqat xalqaro huquq bo'yicha bilimlarini oshirish, balki O'zbekiston bilan yuz berishi mumkin bo'lgan xalqaro nizolarni ham oldindan taxmin qilish imkoniyatini yaratib beradi, deb o'ylaymiz.

I. Xalqaro huquqqa kirish. Xalqaro huquq manbalari:
Preah Vihear ibodatxonasi ishi. 1962-yil 15-iyun
(*Temple of Preah Vihear, Judgement, ICJ Reports 1962, p .6.*)

(A.Xakimov)

Nizoning vujudga kelishi. Preah Vihear ibodatxonasi Tailand va Kamboja mamlakatlari chegarasidagi din bilan bog'liq tarixiy yerda joylashgan bo'lib, mazkur nizo kelib chiqqan vaqtida uning bir qismi talofat ko'rganiga qaramay, avvaldan go'zalligi va jozibadorligi bilan ko'pchilikni o'ziga maftun qilib kelgan. Mazkur ibodatxona Preah Vihear nomli balandlikda joylashgan bo'lib, ushbu tepalik ikki davlatning chegarasini belgilovchi Dangrek tog' tizmasining sharqiy tomonida edi. Tailand mazkur hududining shimalida, Kambodja esa janubida joylashgan. Ushbu ishda aynan Preah Vihear ibodatxonasi va uning atrofidagi hududlari bo'yicha nizo ko'rib chiqiladi.

**1-rasm. Preah Vihear ibodatxonasing
yuqorida ko'rinishi.**



1904-yil 13-fevralda Fransiya¹ va Siam² davlatlari o'rtaida tuzilgan davlat chegaralari bo'yicha shartnomada chegaralar Dangrek tog' tizmasidagi suv omboridan o'tishi belgilangan bo'lib (1-modda), davlat chegaralari chizmasini tuzish bo'yicha ishlarni amalga oshirish Fransiya-Siam qo'shma komissiyasiga yuklandi (3-modda). Mazkur komissiya o'z ishini deyarli tugatayotgan paytda, 1907-yilning yanvar oyida, uning faoliyati tugatildi. Shundan so'ng Siam hukumatining iltimosiga ko'ra Fransiyaning tegishli qo'mitasi tomonidan 1907-yilning kuzida xarita tuzildi. 1908-yilda xarita Parijda bosib chiqarildi va Siam hukumatiga yuborildi. Biroq, xaritada chegara chizig'i va suv ombori birlashmagan edi. Preah Vihear ibodatxonasi esa, Kambodja tarafda qoldirilgan edi. 1934-1935-yillarda ham Siam tomonidan ushbu hudud bir necha marotaba mustaqil ravishda o'rganilgan bo'lishiga qaramay, xarita borasida hech qanday e'tirozlar bildirilmadi hamda xaritadan ochiqchasiga foydalanib keltingan.

¹ O'sha davrda Kambodjani ham o'z ichiga oluvchi Indochina ustidan protektoratini o'matgan edi.

² 1945-yildan Siam mamlakati Tailand deb atala boshlangan.

Ikkinchı jahon urushidan keyingi harakatlar. Tailand 1946-yildan keyin Fransiya hamda Kambodja tomonidan bildirilgan bir qancha qarshiliklarga qaramasdan, ibodatxonaga politsiyachilar guruhini doimiy ravishda yuborib turdi. 1953-yilda Kambodja mustaqillikka erishganidan so'ng o'zining qo'riqlash guruhini ibodatxonaga yuborishga harakat qilib ko'rди. Ammo Tailandning politsiya xizmati qo'shinlari u yerda bo'lganligi sababli Kambodjaning maqsadi amalga oshmay qoldi. 1954-yilda Kambodja hukumati vaziyat yomonlashishining oldini olish maqsadida ibodatxonaga qo'shin yuborishni yanvar, mart va iyul oylarida bir necha marotaba cho'zishga majbur bo'lди. Shuningdek, Tailand tomonidan qo'shinlar olib chiqib ketilishiga erishish uchun uch marta diplomatik kelishuvlarga erishishga harakat qildi. Biroq Tailand tomonidan Kambodjaning bu harakatlariga nisbatan hech qanday javob bo'lmasdi. Nihoyat, 1958-yilda Tailand va Kambodja o'tasida birinchi marotaba Preah Vihear ibodatxonasi bo'yicha majlis ochiq deb e'lon qilindi. Lekin Tailand tomonidan huquqiy muammo borasidagi muzokaralar rad qilinganligi bois majlis nihoyasiga yetmay qoldi.

Kambodjaning da'volari. Kambodja 1959-yil 6-oktabrda Tailand ustidan Xalqaro sudga ariza bilan murojaat qilib: 1) Preah Vihear ibodatxonasiga nisbatan egalik Kambodjaga tegishli ekanligini belgilishi; 2) 1954-yildan buyon ibodatxonani egallab turgan Tailand qo'shinlari olib chiqib ketilishining ta'minlanishi; 3) Tailand tomonidan ibodatxonadan olib chiqib ketilgan qimmatbahо buyumlar Kambodjaga qaytarilishini talab qildi¹.

Kamboja tomonidan Preah Vihear ibodatxonasiga nisbatan egalik to'g'risidagi da'vo 1908-yildagi xaritaga asoslangan bo'lsa, Tailand o'zining qarshiligini quyidagicha izohladi: 1) mazkur xarita qo'shma komissiyaning birgalikdagi ishi emasligi va shu sababli hech qanday yuridik ahamiyatga ega emasligi; 2) Preah Vihear bo'yicha komissiya tomonidan yo'l qo'yilgan tushuntirib bo'lmas xato (*error*)ning mavjud ekanligini ta'kidladi. Shuningdek, mazkur xato xaritada ko'rsatilgan davlat chegaralari chizig'i ushbu hududning o'tasidagi suv ombordan emas, balki o'rtadagi suv omboriga tayanib tortilganida ibodatxona hududi Kamboja hududida emas, Tailand hududida qolishini; 3) Tailand aynan Preah Vihear ibodatxonasi bo'yicha tuzilgan mazkur xarita va unda ko'rsatilgan chegara chizig'inинг yuridik kuchini qabul qilmaydi, qabul qilgan taqdirda ham bu chiziq suv ombori bilan yaxlit ekanligi to'g'risidagi anglashilmovchilik (*mistaken belief*) natijasidagina yuzaga kelganligini ta'kidlaydi (p. 21).

¹ Temple of Preah Vihear, Judgement, ICJ Reports 1962. – P. 9-11.

Yuqoridagilardan tashqari, Kambojaning da'vosiga nisbatan Tailand tomonidan Xalqaro sudning mazkur ish bo'yicha yurisdiksiyaga ega emasligi to'g'risida qarshi da'vo bilan murojaat qilingan.

Sud qarori. Xalqaro sud 1961-yilning 26-may kuni mazkur nizoga nisbatan o'z yurisdiksiyasini belgilaydi¹. 1962-yil 15-iyunda chiqargan qarorida Kambodjaning da'vosini qanoatlantiradi².

Sud qarorining ahamiyatga molik bandlari

1. Tailandning yuqoridagi birinchi da'vosi yuzasidan. Xalqaro sud ishni ko'rib chiqar ekan, Tailand tomonidan qo'shma komissiya faoliyati muddatidan avval tugatilganligi va xarita komissiya tomonidan rasmiy ravishda nihoyasiga yetkazilmaganligi to'g'risida bildirilgan talablarni asosli deb topdi. Shuningdek, bunga qarama-qarshi tarzda qo'shma komissiya xaritani qandaydir asoslarga ko'ra ishlab chiqqanligi hamda u komissiya faoliyatining natijasi ekanligiga hech qanday shubha yo'q deb hisobladi. Biroq xarita o'sha vaqtida, ya'ni tayyorlangan paytda hech qanday yuridik kuchga ega bo'lмаган degan xulosaga ham kelinmadi (p. 21).

2. Tailandning yuqoridagi ikkinchi da'vosi yuzasidan. Tailand Preah Vihear ibodatxonasini Kamboja hududiga beruvchi suv ombori bo'ylab o'tgan chegarani mustaqil belgilash huquqi qo'shma komissiyaning vakolat doirasiga kirmaganligi to'g'risida qat'iy talab bilan chiqqan bo'lsada, Xalqaro Sud suv ombori bo'ylab o'tgan chegarani mustaqil belgilash huquqi qo'shma komissiyaning vakolat doirasiga kirgan yoki kirmaganligini muhokama qilish ma'nosiz ekanligi va bu yerda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masala qo'shma komissiyaning bunday o'zgacha xatti-harakatini qabul qilish yoki qilmaslik Siam hukumatiga bog'liq bo'lganligi yoki bo'lмаганлиги masalasi ekanligini ta'kidladi. Shu bilan birgalikda, mazkur ishda asosiy muammolardan yana biri davlatlar qo'shma komissiya tomonidan tuzilgan va Preah Vihear ibodatxonasi hududidan o'tuvchi chegarani komissiya faoliyatining natijasi va yuridik kuchga ega hujjat sifatida amalda tan olgan yoki olmaganliklari masalasi deb hisobladi. Tailand bu masala bo'yicha uning uzoq vaqt davomida xaritaga nisbatan qarshilik qilmaganligi, 1904-yilgi davlat chegaralari to'g'risidagi shartnomada belgilangan suv omboridan uning davlat chegarasi boshlanishiga roziligidini anglatadi degani emas deb hisoblaydi.

¹ ICJ Reports 1961. – P. 35.

² Kambojaning 1 va 2-da'volari bo'yicha 9 ta sudya rozi bo'lgan bo'lsa, 3 ta sudya bunga qarshi chiqqan. 3-da'vo e'tirozi bo'yicha esa 7 ta sudya roziligidini bildirgan bo'lsa, 5 ta sudya qarshilik bildirgan.

Lekin bu borada sudning fikri boshqacha. Ya’ni 1908-yilda xaritaning ommaga e’lon qilinilishi katta ahamiyatga molik hodisa bo’lib, xarita Siam hukumatining tegishli tashkilotlariga yetkazilgan va bildirilgan. Fransiyaning tegishli qo’mitasi esa Siam hukumatiga xarita qo’shma komissiya ish rejasiga kiritilganligi va uning faoliyati natijasi ekanligi haqida ma’lum qilgan. Tailand esa bu bildiruv bir tomonlama bo’lib, rasmiy ravishda rozilik so’ralmaganligi hamda rozilik bildirilmaganligini ta’kidlaydi. Biroq bu yerda bir narsaga e’tibor qaratish lozimki, o’sha vaqtida xaritaga rozilik berish yoki bermaslik faqatgina Siam hukumatining harakatlariga bog’liq bo’lib qolgan edi. Mabodo Siamning tegishli qo’mitasi mazkur xarita borasida o’z qarshiligi va xarita borasida qandaydir gumonlari bo’lsa, ma’lum bir qisqa davr oralig’ida o’z e’tirozlarini bildirishi lozim edi. Ammo tegishli qo’mita uzoq yillar mobaynida hech qanday e’tiroz bildirmadi va buni sukut holatida qoldirdi. Xalqaro Sud o’z o’rnida bu holatni, sukut rozilik alomati sifatida qabul qilindi deb hisobladi (pp. 22-23).

3. Tailandning uchinchi da’vosi bo‘yicha. Tailand nizo kelib chiqqan hudud xato natijasida Kambodjaga o’tib qolgani va bu xatoni Siam hukumati sezmaganligini ta’kidlaydi. Biroq “tomonlar o’z harakatlari bilan xatoni yuzaga keltirishi yoki mazkur xatodon qochishi mumkin bo’lgan holatda, shuningdek yuzaga kelgan xatoni oldindan taxmin qilish imkoniyati mavjud bo’lganda xato tomonlarning roziliginibekor qiluvchi vosita hisoblanmaydi” degan qat’iy qoida (an established rule of law) mavjud. Shu sababli ham Xalqaro Sud Tailand tomonidan bildirilgan xato faktini inkor etadi (p. 26).

4. Davlat chegaralarini belgilash bo‘yicha qo’shma komissiya faoliyati yakunlanganidan keyingi hodisalar yuzasidan.

Tailand 1958-yilgacha xarita borasida hech qanday shubha bildirmadi. Hattoki 1934-1935-yillarda ham mazkur xaritadan foydalanib kelindi. 1958-yilgacha Tailand tomonidan xarita bo‘yicha hech qanday shubhaga borilmaganligining sababi sifatida har qanday muhim vaqtarda ibodatxonadan foydalanib kelganligini va Tailand konsulining ibodatxona hududidagi ma’muriy hokimiyati va amalga oshirgan ishlari Tailand tomonidan dalil sifatida keltiriladi. Shu sababdan ham ular qandaydir bir shikoyat bilan chiqishning zaruriyati mavjud emas deb hisoblashgani aytilgan. Biroq konsulning ibodatxona hududidagi ma’muriy hokimiyati hamda uning harakatlariga tayanib, markaziy hokimiyatning xaritadagi chegara chiziqlariga nisbatan odatiy munosabati o’zgacha bo’lgan deb hisoblash ham murakkab masala edi. Mazkur munosabatlarda eng muhim

voqealardan biri shuki, 1930-yilda Siamning amaldorlaridan biri Damuron qirolning ruxsati bilan ibodatxonaga rasmiy tashrifini uyuştiradi. Shu paytda Fransiyaning u yerdagi vakili tomonidan rasmiy ravishda qabul qilinadi. Albatta, bunday kutib olinishining ma'nosini amaldor bilmagan bo'lishi mumkin emas. Ushbu voqeada ham Siam hukumati Kambojaning ibodatxonaga nisbatan bildirgan ochiq-oydin egaligiga hech qanday qarshi munosabat bildirmaydi. Bu voqeani umumiy jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, manfaatlar aniq zid kelishi mumkin bo'lган bir holatda hech qanday qarshilik bildirmagan Tailandning sukunatini Preah Vihear ibodatxonasiga nisbatan Kambodjaning yurisdiksiyasi va egaligini tanolish deb hisoblashga asos bo'ladi.

5. Tailandning tan olmaslik to‘g‘risidagi da‘vosining rad etilishi
agar 1908-yilda xarita hamda unda ko‘rsatib o‘tilgan chegara chiziqlari Tailand tomonidan qilingan yoki qabul qilinmaganligi haqida qandaydir guman bo'lган taqdirda ham undan keyingi yuz bergan uzviy voqealar rivojini tahlil qiladigan bo'lsak, Tailandning xaritani qabul qilmaganlik haqidagi shikoyati uning o‘z harakatlari natijasida bekor bo'ladi deyiladi. Shuningdek, Xalqaro Sud yana Tailand 50 yil mobaynida 1904-yilda qabul qilingan shartnomadan foydalanib kelganligini, Fransiya hamda uning protektorati ostida bo'lган Kambodja, Tailand tomonidan xaritaning qabul qilinganligiga ishonch bilan qarab kelgan hamda u tomonidan aynan endi shikoyat bilan chiqilayotganligini qabul qilish murakkab masala ekanligini ta'kidlaydi.

Sud qaroriga sharh

Mazkur ish Preah Vihear ibodatxonasi hamda uning atrofidagi hududlar bo'yicha kelib chiqqan hududiy nizo bo'lib, nizolashuvchi tomonlar bo'lган Kambodja hamda Tailand o'rtasida 1904-yilda chegaralarni belgilash to‘g‘risida shartnomma tuzgan edilar. Ushbu shartnomaga asoslanib qo'shma komissiya tuzilgan edi. Komissiya tomonidan chegaralarni belgilash bo'yicha rejalar ishlab chiqilib, 1908-yilda chegara bo'yicha xarita nashr etilgan edi. Ishdag'i huquqiy nizo ham aynan mana shu xarita bilan bog'liq bo'ldi. Sud xarita qo'shma komissiyaning faoliyatni to‘xtatilganidan keyin Siam hukumatining iltimosiga binoan Fransiyaning tegishli qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi sababli u ishlab chiqilgan paytda uning hech qanday yuridik kuchi bo'lмаган deb hisobladi.

Nizoda e'tirof etilgan asosiy e'tiroz xaritada ko'rsatilgan chegara chizig'i hamda shartnomada ko'rsatilgan chegara chiziqlari suv ombori yuzasidan bir-biriga mos kelmaganligiga qaramasdan, Tailand uzoq yillar

2-rasm. Kambodja va Tailand o'rtaida nizo yuzaga hudud xaritasi.



davomida shikoyat qilmaganligini qanday baholash bilan bog'liq edi.

Sud Tailandning da'vosi rad qilinishining asosi sifatida sukunat, vaqt, xato kabi umumiy huquq prinsiplariga tayandi. Huquqning umumiy prinsiplari har bir mamlakatning ichki qonunlarida mavjud bo'lib, umum tan olingan asoslar hisoblanadi. Huquqning umumiy prinsiplari Xalqaro Sud maqomining 38-moddasi 1-qismining c bandiga ko'ra ko'rileyotgan nizoni sud qilishning asosi hisoblanadi. Sud, avvalambor, Tailand tomonidan saqlangan sukunatni xaritaga nisbatan

rozilik alomati sifatida tahlil qildi, shikoyat qilishi lozim bo'lgan taraf, shikoyat qilishi mumkin bo'lgan paytda sukut saqlashi rozilik alomati sifatida ko'riliшини e'tirof etdi. Shuningdek, sud umumiy vogeliklarni tahlil qilgan holda, tayyorlangan paytda hech qanday yuridik kuchga ega bo'lмаган xarita Tailandning keyinchalik sukut saqlab kelishi natijasida yuridik kuchga ega bo'ldi deb tahlil qiladi. **Ikkinchidan**, sud "precluded" atamasini keltiradi. Bu atama roman-german huquqidagi da'vo muddatining o'tib ketishiga to'g'ri keladi.

Uchinchidan, sud anglo-sakson huquqiy tizimining asoslaridan bo'l mish "estoppel", ya'ni avvalgi harakatlariga zid keladigan shikoyat bilan chiqmaslik qoidasiga tayanadi. Biroq sud tomonidan estoppel qoidasi qanday ma'noda qo'llanilgani, shuningdek protsessual norma yoki moddiy norma sifatida qo'llanilganini sud qaroridan aniqlab bo'lmaydi.

To'rtinchidan, sud tomonlar o'zlarining harakatlari natijasida xatoni yuzaga keltirgan yoki mazkur xatoni qilishdan qochishlari mumkin bo'lgan hollarda, shuningdek tömonlar xato yuzaga kelishini oldindan bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan vaziyatlarda xato rozilikni inkor eta olmaydi degan qarorga keldi. Bunday aniq huquqiy qoidaning bir qismi o'zgartirilgan holda, "Shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasining 48-moddasi 2-qismiga kiritilgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sizningcha, Xalqaro Sudning qarori to‘g‘rimi?
2. O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligidagi xato qilingan holat shartnomaning bekor qilinishiga olib keladimi va qanday holatlarda bu kabi yechimiga kelinadi?
3. Sizningcha, xalqaro odad huquqi hamda xalqaro huquqiy hujjatlar o‘rtasida qanday aloqadorlik mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Johnson D.H.N. I.CJ. Judgments of May 26,1961 and June 15, 1962, The Case Concerning the Temple of Preah Vihear, ICLQ, 1962. – P. 1183–1204;
2. Oliver C. Judicial Decisions, AJIL, 1962 – P. 1033–1053.
3. Higashi Jutarou “Sud amaliyoti bo‘yicha tadqiqot”: Xalqaro Sud qarori: Preah Vihear ibodatxonasi ishi, 1965-yil. – B. 227–324.
4. Ivama Toru. Preah Vihear ibodatxonasi ishi, Jurist, 2011 №.204. – B. 10-11. (yapon tilida).

II. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari. Xalqaro huquq normalarining ichki huquq normalaridan ustuvorligi tamoyili:

1872-yil 14-sentabrdagi Alabama ishi

(The Alabama Arbitration Arbitral Award, in J. B. Moore, History and Digest of the International Arbitrations to Which the United States Has Been a Party, Vol. I (1898), p. 495.

(A.Xakimov)

1. Nizoning vujudga kelishi. 1861-yilning 13-mayida Buyuk Britaniya hukumati AQSHdagi shimol va janub hududlari o'zaro urush haqida e'lon qilganligini hamda mazkur urushda betaraflikni saqlab qolishini bildirdi. Shuningdek, o'z fuqarolaridan "Xorijiy mamlakatlarda harbiy harakatlarni olib borish to'g'risida"gi aktni (Foreign Enlistment Act) hurmat qilishlarini talab qildi. "Xorijiy mamlakatlarda harbiy harakatlarni olib borish to'g'risida"gi akt Britaniya, boshqa mamlakatlar o'rtasi-dagi urushlar yoki ichki urushlarda betaraflikni e'lon qilgan hollarda uning betarafligiga zarar yetkazuv-chi o'zboshimchalik bilan amalga oshiriluvchi harakat-larni taqiqlovchi Buyuk Britaniyaning ichki normativ-huquqiy hujjati edi. Mazkur aktning 7-moddasi urushdagi tomonlarning "yotsiragan" maqsadlarini amalga oshirish yo'lida, kemalarini Buyuk Britaniya hududiga kiritib qurollanishlarini qat'ianan taqiqlar edi.

3-rasm. AQSHdagi fuqarolar urushi.




Shunga qaramasdan, Janub ittifoqchi qo'shinlarining raqibona maqsadini amalga oshirish uchun foydalanishda guman qilingan kemasi Britaniya hududida qurollantirilganlik faktini ham aytib o'tish lozim. Shunday kemalardan biri bo'lgan Alabama kemasi (o'sha vaqtida 290-raqamli kema deb nomlangan. Keyinchalik uni Alabama kemasi deb nomlashgan) Janub ittifoqchi qo'shinlari buyurtmasiga ko'ra Britaniyaning Bakenhed deb nomalanuvchi kema ishlab chiqaruvchi kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilib, suvda suzdirilgan (15.05.1962) dan so'ng Liverpul portiga olib borilib harbiy anjomlar bilan jihozlangan.

AQSH hukumati Britaniya hukumatiga nisbatan 290-raqamli kema tez orada qurollanib, Liverpul portidan chiqib Britaniyadan tashqarida harbiy harakatlarini amalga oshirishi mumkinligi haqidagi xabarni yetkazdi.

Ushbu xabarga qo'shimcha tarzda kema AQSHga nisbatan "dushman" harakatlarini amalga oshirishni ko'zlagan kuchlarga qarashliliginisibotlovchi sabablari borligi kabi o'z vajini keltirdi. Britaniya hukumati esa AQSH ning keltirayotgan vajlari haqiqat bo'lsa, 290-raqamli kemaning qurollanishi "Xorijiy mamlakatlarda harbiy harakatlarni olib borish to'g'risida"gi aktga zid ekanligi va mazkur kemaning portdan chiqishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rish lozim ekanligini ta'kidlash bilan birgalikda, nazarda tutilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun, avvalo, yetarlicha dalillar kerakligini aytadi. Shundan so'ng AQSH hukumati bunday dalillardan bir qanchasini bir necha marta Britaniyaga taqdim etadi (o'sha yilning 21-25- iyul kunlari).

Britaniya hukumati 21-iyul kuni taqdim etilgan dalillarni ko'zdan kechir-ganidan so'ng, mazkur dalillar faqatgina o'zgalar-dan eshitilgan gap-so'zlarga va mish-mishlarga asoslanuvchi, bir kishining ko'rsatmalaridan iboratligini aytib, keltirilgan dalillarni rad etadi. Shundan keyin taqdim etilgan dalillar bo'yicha Qirollik huquq zabitining (law-officers of the Crown) fikrini so'raydi (23-iyul). 29-iyul kuni taqdim etilgan huquq zabit (ofitser)larining fikrlari jamlanmasi, 290-raqamli kema tegishli qo'mita tomonidan qo'lga olinishi (seized) lozimligini ko'rsatardi. Shunda Britaniya hukumati Liverpul bojxona bo'limiga 290-raqamli kemani qo'lga olish bo'yicha buyruq beradi (31-iyul). Biroq bu vaqtga kelib ma'lum bo'ladiki, kema 29-iyul kuni tush paytigacha Liverpuldan chiqib ketgan ekan. Qurollanmagan holda Liverpulni tark etgan 290-raqamli, ya'ni Alabama kemasi Portugaliyaning Azores orollarida to'xtaydi va Britaniyadan boshqa bir kemada olib kelingan qurol-yarog'lar, harbiy o'q-dorilar, askarlarni o'z bortiga ortgan holda Janub ittifoqining dushman harakatlarni olib borishdagi harbiy ko'rsatmalariga amal qilgan holda o'z harakatini davom ettiradi. Mazkur kema bu vaqt oralig'ida Britaniya hukumatining tasarrufida bo'lgan bir qancha koloniylarida ham to'xtaydi. Biroq Britaniya hukumati mazkur kemani harbiy kema sifatida tan olib, uni qo'lga olish bo'yicha hech qanda ~~harakatlarni amalga oshirmaydi~~.

4-rasm. Alabama kemasi.



2. Arbitrajga murojaat. AQSH shimol va janub o'rtasida urush hali davom etayotgan bir vaqtda Britaniyada quollantirilgan Alabama kemasi tomonidan amalga oshirilgan harbiy harakatlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha Britaniyaga talab bilan chiqadi. Zararni qoplash bo'yicha muammo ikki davlat o'rtasida bir necha yillar mobaynida muhokama qilinadi. Biroq hech qanday natijaga erishilmagach, ikki mamlakat ham mazkur nizoni Vashington konvensiyasi bo'yicha arbitrajda hal qilish haqidagi arbitraj kelishuviga rozilik beradilar.

Mazkur konvensiyaga ko'ra arbitraj (Arbitraj sudi AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsiya, Braziliya tomonidan ko'rsatilgan bir nafar nomzod sudyalardan tashkil topgan) konvensiya ishtirokchilar tomonidan mazkur holatda qo'llanishi mumkin bo'lган uch qoida (Vashington 3 qoidasi) hamda ular bilan kolliziyaga bormaydigan xalqaro huquq prinsiplarini qo'llashi mumkin edi (6-modda).

Yuqoridagi uch qoidaga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi qoidaga ko'ra betaraf bo'lган hukumat, o'z davlati va u bilan tinchlik aloqalarida bo'lган boshqa mamlakatga nisbatan urush harakatlarini olib borishi mumkin bo'lган istakni o'zida mujassam etuvchi deb hisoblash uchun yetarli darajada mantiqiy asoslarga ega bo'lган kemalar haqida yurisdiksiya doirasida quollanishi yoki harbiy tayyorgarlik ko'rishi hamda yurisdiksiyadan tashqariga chiqib ketishining oldini olish uchun o'zaro mas'uliyatda (due diligence) bo'lishi lozimligi belgilanadi.

Ikkinci qoida esa betaraf bo'lган mamlakat hukumati dengiz qo'shinlarini tuzish hududi sifatida yoki harbiy quollarni yangilash, takomillashtirish, shuningdek harbiy qo'shinni yig'ish uchun portlar hamda suvli hududlaridan foydalanishga ruxsat berishi yoki unga nisbatan sukut saqlashi taqiqlanar edi.

Va nihoyat, uchinchi qoidada betaraf bo'lган mamlakat hukumati mazkur majburiyatlarni bajarmaslikning oldini olish maqsadida portlar hamda suvli hududlarida o'z yurisdiksiyasiga kiruvchi barcha shaxslarga nisbatan o'zaro mas'uliyatda bo'lishi lozimligi belgilanadi.

Sud qarorining ahamiyatga molik bandlari

1. O'zaro mas'uliyatni his qilish holati qoidasining ma'nosi.

Vashington konvensiyasining 6-moddasi 1-qismi hamda 3-qismida tilga olingan "o'zaro mas'uliyatga daxldorlik" qoidasi, betaraf bo'lган mamlakat tomonidan o'zaro majburiyatlarning bajarilmasligi natijasida, urush holatida bo'lган taraflardan biri tomonidan amalga oshirilishi

mumkin bo'lgan xavf-xatarga nisbatan mos ravishda amalga oshirilishi lozim deyiladi. Mazkur nizoning asosiy muammosini tashkil etuvchi faktlarning yuzaga kelish holatlariiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, Britaniya 1861-yil 13-mayda qirolicha tomonidan e'lon qilingan betaraflik bo'yicha belgilangan huquq va majburiyatlarni hurmat qilish uchun zarur bo'lgan har qanday chora-tadbirni amalga oshirishi kerak edi (pp. 654-655).

2. Istisnoga ruxsat berilish masalalari. Kemalarni tayyorlash, qurollantirish oqibatida yuzaga keladigan davlatning betaraflik qoidalarini buzganlik bo'yicha javobgarligi, betaraflikning buzilishi oqibatida foyda ko'rghan urush qatnashchisining hukumi, keyinchalik mazkur kemandan qanday maqsadda foydalanganiga qaramay, bekor bo'lmaydi. Biroq ba'zi bir ekstrahududlilik bo'yicha istisno (privilege of exterritoriality) kabi xalqaro huquqda tan olib kelingan istisno holatlarni ham yoddan chiqarmaslik zarur. Biz ko'rib chiqayotgan ishda esa, ekstrahududlilik bo'yicha istisno mutlaq (absolute) huquq bo'lmay, u mamlakatlar o'rtasida amal qilib kelgan odob va o'zaro hurmat qilish (courtesy and mutual deference) tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilgan harakatlardan nariga o'tmaydi va betaraflikni buzib amalga oshirilgan harakatlarga istisno sifatida qo'llanilmaydi (p. 655).

3. Alabama kemasi bo'yicha qaror. Britaniya hukumi betaraflik majburiyati bo'lsa-da, o'zaro mas'uliyatda bo'lish qoidasiga e'tiborsizlik bilan qaradi. Shuningdek, 290-raqamli (Alabama) kemaning qurilishi vaqtida AQSHning tashqi ishlar organlari tomonidan berilgan axborotlar va amalga oshirilgan boshqa harakatlarga qaramasdan, Britaniya hukumi amaliy jihatdan betaraflik majburiyati buzilishining oldini oluvchi chora-tadbirlarni ko'rmadi va bu bilan loqaydlik qildi. Bundan tashqari, mazkur kemani qo'lga olish bo'yicha qaror chiqarganligiga qaramasdan, bu harakat juda kech amalga oshirilganligi uchun uni ijro qilish ham amalda ilojsiz edi. (p. 655).

Shuningdek, kema chiqib ketgandan so'ng amalga oshirilgan chora-tadbirlar oxiriga yetkazilmaganligi sababli hech qanday natijaga erishilmadi. Shu bois Britaniya hukumatini u avvaldan amal qilishi lozim bo'lgan majburiyatlardan ozod qilish mumkin emas (p. 655).

Shu bilan birga, keyinchalik Alabama nomi bilan mashhur bo'lgan bu kema Britaniya hukumi koloniyalaring portlariga bir necha marotaba erkin kirib chiqqan va unga nisbatan biror-bir qonuniy chora ko'rilmagan. Bundan tashqari, Britaniya hukumi tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlar yetarli bo'lmaganligi tufayli, uning o'zaro mas'uliyatli bo'lish qoidasini ijro qilmasligini to'g'ri deb topish borasidagi qarshi da'vosi

qanoatlantirilmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib sud Britaniya hukumati mazkur ishda amalga oshirishi lozim bo‘lgan harakatni paysalga solish natijasida Vashington konvensiyasining 6-moddasi 1-bandи hamda 3-bandи qoidalarida belgilangan majburiyatlarini bajarmadi degan xulosaga keldi (pp. 656).

4. Xulosa. Sud Britaniyadan AQSHga 15,500,000 dollar miqdorida zararni qoplash summasi undirilishi lozimligi to‘g‘risidagi qarorga keldi (pp. 658-659).

Sharh

I. Mamlakat ichki huquq normalarining tatbiq etilmasligi qoidasi.

Davlat o‘z ichki qonunlariga mos kelmasligini ro‘kach qilgan holda xalqaro huquqda belgilangan majburiyatlaridan qocha olmaydi (bu xalqaro aloqalarda xalqaro huquqning ustunlik mavqeyi qoidasi deb ham ataladi). Mazkur nizo aynan yuqoridagi qoidaning amaldagi isbotini ko‘rsatuvchi ish (reading case)dir. Ushbu nizo yuzaga kelgan paytda Britaniya ichki huquq normalarida urushayotgan uchinchi taraflar o‘zarо dushman harakatlarini amalga oshirish maqsadida kemalarini Britaniya hududida qurollantirishlari taqiqlangan bo‘lib, bunday kemalarni qo‘lga olish va sud orqali ularni olib qo‘yish protsedurasi ham mavjud edi. Biroq ikki mamlakat ichki qonunchiligidan ham kemalarni qo‘lga olish uchun o‘rnatilgan qonun-qoidalarni buzishga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, nisbatan qattiqqo‘llik bilan dalillarni talab qilish belgilanganligi bois, qo‘lga olish bo‘yicha chiqarilgan qaror kechikib ketdi. Alabama kemasi bu vaqt oralig‘ida Liverpul portidan chiqib ketib bo‘lgan edi. Mazkur vaziyat bo‘yicha Britaniya hukumati o‘z ichki qonunchiligi normalarida belgilangan qoidalarga amal qilgan holda imkoniyat doirasida choralarini ko‘rgan. Shu sababli hukumat tomonidan o‘zarо mas’uliyatda bo‘lish qoidasi buzilmaganligi Britaniya hukumati tomonidan ilgari suriladi. Sud esa yuqorida o‘z qarorining 4-qismidagidek, Britaniyaning qarshi da’vosini rad etgan.

Mamlakat ichki huquq normalari qo‘llanilishining taqiqlanish qoidasi Xalqaro sud tomonidan ham bir necha marotaba tekshirilib, hozirda aniq bir pretendent sifatida qo‘llanib kelinadi. Masalan, Muvaqqat xalqaro sud (Permanent Court of International Justice (PCIJ)) tomonidan Gretsya va Bolgariya sobiq sotsialistik mamlakatlari orasidagi ishda ahdlashuvchi mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda mamlakat ichki qonun normalari konvensiya normalaridan ustun emasligi va bu umume’tirof etilgan

xalqaro huquq tamoyillaridan biri ekanligi yana bir bor ta'kidlanadi¹. Shuningdek, Savoye hamda JEX o'ttasidagi erkin zonalar bo'yicha bo'lib o'tgan ishda ham Muvaqqat xalqaro sud "Fransiya xalqaro majburiyatlar doirasini chegaralash uchun o'z qonunchiligiga tayana olmaydi" deb belgilagan edi². Xalqaro sud ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan aloqador bo'lgan ishda "Xalqaro huquq normalari mamlakatlarning ichki qonunchilik normalaridan ustuvor ekanligi tamoyiliga tayanadi hamda Alabama ishidan keyin mazkur tamoyil Xalqaro sudning qarorlarida mustahkamlanib kelganini ta'kidlaydi³. Mazkur tamoyil (davlatlar xalqaro shartnoma shartlarini bajarmaganliklarini to'g'ri deb topishlari uchun o'z ichki qonun normalarida belgilangan qoidalariiga tayana olmaydi degan qoida) xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 27-moddasida ham belgilab qo'yilgan.

Albatta, ushbu tamoyil Konstitutsiya bilan ham aloqador. Mazkur ishda ham Britaniyaning ma'muriy organlari ularga qonunda berilgan vakolatlardan chetga chiqib shaxslarning mulklarini tortib olish huquqi yo'q ekanligini belgilovchi Britaniya Konstitutsiyasining umumiy tamoyiliga tayanganiga qaramasdan, bu vaziyatda sud Britaniyaning bunday da'vosini tan olmadi. PCIJ ham Dansilda yashovchi polyakning statusi bilan bog'liq ishda "davlat xalqaro huquq yoki yuridik kuchga ega bo'lgan konvensiyada unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik uchun boshqa mamlakatga nisbatan o'z konstitutsiyasiga asoslanib ish ko'ra olmaydi⁴" deb belgilagan edi.

4) Bundan tashqari, yuqoridaq tamoyil har qanday xalqaro aloqalarda xalqaro huquq normalari milliy huquq normalaridan ustun ekanligini, ichki huquq tizimidagi xalqaro huquqning o'rni har bir mamlakat konstitutsiyasida belgilanishini e'tirof etadi. Shu sababli ham, ichki huquq tizimidagi konstitutsiya va qonunlarda xalqaro huquq normalari ustunligini belgilash holatlari ko'p uchraydi. Qo'shimcha tarzda aytish mumkinki, xalqaro munosabatlarda xalqaro huquq normalarining ichki qonunchilik normalaridan ustunligining tan olinishi, ichki qonunchilik normasi xalqaro huquq normasiga zid bo'lgan holda uni bekor qilish lozimligini anglatmaydi. Bu tamoyil faqatgina davlat o'zining xalqaro munosabatlardagi majburiyatlarini bajarmasligi bilan bog'liq hollarda yuzaga keladi.

¹ PCIJ, Series B, №. 17 – P. 32.

² PCIJ, Series A/B, No. 46 – P. 167.

³ ICJ Reports 1988 – P. 34

⁴ PCIJ, Series A/B, №. 44 – P. 24.

II. Boshqa muammoli vaziyatlar

Betaraflik qonuni (Law of neutrality). Mazkur ishda qo'llanilgan Washington konvensiyasining uch qoidasi, ayniqsa, birinchi qoida, o'sha davrdagi moddiy xalqaro huquqni aks ettirganligi haqida olimlarning turli qarashlari mavjud¹. Biroq raqiblik maqsadida bo'lgan kemalarning qurollanishi, 1794-yildagi AQSHning betaraflik to'g'risidagi qonuni hamda 1819-yildagi Britaniyaning chet eldag'i harbiy harakatlar to'g'risidagi aktida taqiqlanganligidan tashqari boshqa mamlakatlar ham betaraflik deklaratsiyalarida taqiqlagan davlat majburiyatları XIX asrning boshlarida bir qanchani tashkil etar edi. Washington konvensiyasi qoidalari mazkur nizo yuzaga kelgan paytda allaqachon moddiy xalqaro huquq normasi edi degan qarash nisbatan asosli². Keyinchalik Washington konvensiyasining 1-qoidasi "Dengiz urushlari paytida betaraf davlatlarning huquq va majburiyatları to'g'risidagi konvensiya"ning (1907-yil) 8-moddasiga ham kiritiladi.

O'zaro mas'uliyatni his qilish holatida bo'lish. O'zaro mas'uliyatda bo'lish anglo-sakson huquq tizimining qoidalariidan biri bo'lib, u xalqaro huquq qoidasi sifatida qo'llanilgan ish sifatida aynan Alabama ishi keltiriladi. O'zaro mas'uliyatda bo'lish tamoyilida o'zarolik darajasi "yaxshi uy xojasining mas'uliyati" (*diligentia boni patris familias*) darajasidami yoki "inson o'z ishiga bo'lgan mas'uliyati" (*diligentia quam in suis*) darajasida ekanligi borasida ham ziddiyatli qarashlar mavjud. Biz ko'rib chiqayotgan nizoda ham AQSH birinchi qarashni yoqlab chiqayotgan bo'lsa, Britaniya ikkinchi qarashga tayanmoqda. Biroq sud yakunida u ham birinchi qarashga tayanishini ko'rsatdi³.

Bundan tashqari, xalqaro majburiyatlarni ado etish uchun hukumat tayanishi mumkin bo'lgan vosita ichki qonunchilik normalari orqali chegaralangan hollarda mazkur ichki qonunchilik normasi o'zaro mas'uliyatda bo'lish majburiyatiga zid kelib qolish yoki qolmaslik holati muammo bo'lishi mumkin. Ammo bunday vaziyatda yana o'sha xalqaro huquq normalarining ichki qonunchilik normalaridan ustunligi tamoyiliga tayanib yuqoridagi kabi ichki qonunchilik normasi rad etilishi zarur deb aytishimiz mumkin. Hukumat va ma'muriy organlar emas, balki mamlakat parlamenti ham davlat organi sifatida davlatning xalqaro majburiyatlarini

¹ (Britaniya ham aynan mazkur masala yuzasidan qo'llanilgan uch qoida o'sha davrda faqatgina ushbu ishda qo'llanilib, amalda xalqaro huquq normasi emas degan pozitsiyada turgan.

² Vani Kentaro. Odatga aylangan betaraflik tizimining huquqiy tabiat. 2010. – B. 103-118.

³ Riccardo Pisillo-Mazzeschi. The Due Diligence Rule and the Nature of the International Responsibility of States. GYIL, Vol. 35. 1992.

bajarish zaruriyati sifatida ichki qonunchilikka o'zgartirishlar kiritishni anglashi va bunday harakatlar amalga oshirilmasa, davlat xalqaro majburiyatlarini bajarmaslik holati yuzaga kelishini hisobga olishi lozim¹.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sizningcha, har doim ham xalqaro huquq normalari ichki huquq normalaridan ustun bo'la oladimi?
2. Davlat konstitutsiyasidagi normalar hamda xalqaro huquq normalari o'zaro zid kelib qolishi mumkinmi va bunday vaziyatlarda qay biri ustunlikka ega bo'ladi?
3. O'zbekiston xalqaro hamjamiyat oldida qanday majburiyatlarga ega?
4. O'zbekistonning tashqi siyosat konsepsiysi va betaraflik tushunchasini o'zaro solishtiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. The Alabama Arbitration Arbitral Award, in J.B. Moore, History and Digest of the International Arbitrations to Which the United States Has Been a Party, Vol. 1 (1898). – P. 495.
2. Vani Kentaro. Odatga aylangan betaraflik tizimining huquqiy tabiat. 2010 – Yaponiya,
3. Riccardo Pisillo-Mazzeschi. The Due Diligence Rule and the Nature of the International Responsibility of States. GYIL, Vol. 35. 1992.
4. Gerald Fitzmaurice. The General Principles of International Law. Recueil des cours. Vol. 92. 1957.

¹ Gerald Fitzmaurice, "The General Principles of International Law", Recueil des cours, vol. 92, 1957. pp. 87-88.


III. Xalqaro huquq subyektlari. Davlatlarning tashkil topishi va tugatilishi. Yevropa Ittifoqining Yugoslaviya ishlari bo'yicha konferensiyasi, 1992-yil 4-iyuldag'i arbitraj komissiyasining 8-xulosasi

(Arbitration Comission, EC Conference on Yugoslavia, Opinion No 8, ILR, Vol.92, p. 199.)

(A.Xakimov)

Nizoning vujudga kelishi: sobiq Yugoslaviyaning parchalanishi va arbitraj komissiyasining tuzilishi. Mazkur ish sobiq Yugoslaviya Sotsialistik Respublikasining parchalanib ketishi jarayonida yuzaga kelgan, xalqaro huquq bilan bog'liq bo'lgan muammolar, ya'ni davlat, davlat sifatida tan olinishi va davlat vorisligi kabi holatlarni hal qilish masalalari bilan bog'liq. Ushbu nizoni hal qilish maqsadida Yevropa Ittifoqining sobiq Yugoslaviya bo'yicha arbitraj komissiyasini tashkil etishi va mazkur masala yuzasidan ittifoqchilarning takliflarini talab qilib chiqdi. Arbitraj komissiyasi 1991-yil 29-noyabr-dan 1992-yil 4-iyulga qadar o'nta xulosa bilan murojaat qilgan bo'lib, ushbu kitobda asosiy e'tibor sakkizinchchi xulosaga qaratiladi.

5-rasm. Sobiq Yugoslaviyaning 1991-yil yanvar holatiga ko'ra xaritasi.



1991-yil may oyida sobiq Yugoslaviyada konstitutsiyaviy tuzumning halokatga yuz tutishi, keyinchalik 25-iyun kuni Sloveniya va Xorvatianing o'z mustaqilliklarini e'lon qilishi bilan ichki urushlar avj olib ketdi. Bu esa Yugoslaviyaning parchalanish jarayoni boshlanganini anglatar edi. 27-avgustda Yevropa Ittifoqi hamda Yevropaning siyosiy masalalarda hamkorlik qiluvchi boshqa a'zo mamlakatlari tashabbus bilan chiqib, Yugoslaviya prezidenti hamda hukumati, shuningdek oltita respublikalarning prezidentlari, Yevropa Ittifoqi va uning a'zo mamlakatlari bir stol doirasida uchrasha oladigan tinchlik konferensiyasini tashkil etdilar.

Bu chaqiriqda arbitraj komissiyasi konferensiyaning bir qismi sifatida tashkil etilishi, tegishli qo'mita Yevropa Ittifoqi mamlakatlari sudlarining raislaridan besh qafarini tanlab olish yo'li bilan arbitraj komissiyasi a'zolarini shakllantirishi va ular ikki oy ichida yakuniy qarorga kelishlari lozimligi aytilgan edi (p. 162-163).

1991-yil 20-noyabr kuni tinchlik konferensiysi raisi arbitraj komissiyasiga xat yo'llab, quyidagi savollar bilan murojaat qildi.

1) o'z mustaqilligini e'lon qilgan respublikalar sobiq Yugoslaviyadan ajralib chiqqanmi yoki yo'qmi?

2) sobiq Yugoslaviyani parchalanib ketgan deb hisoblash mumkinmi yoki yo'qmi?

3) agar parchalanib ketgan deb topish mumkin bo'lsa, oltita respublikaning barchasi uning teng huquqli vorislari hisoblanadimi yoki yo'qmi?

Bu savollarga javob birinchi xulosada keltirilgan bo'lib, unda Yugoslaviya parchalanish jarayonida deyilgan edi (p. 166).

Arbitraj komissiyasining sakkizinchı xulosasi bo'yicha talablar.

1992-yil 18-may kuni Tinchlik konferensiysi raisi arbitraj komissiyasiga quyidagi uch savol bo'yicha o'z xulosalarini berishlarini so'rab xat bilan murojaat qildi.

1) xalqaro-huquqiy tomondan yangi respublikalar "Yugoslaviya deklaratasiysi" hamda 1991-yil 18-mayda Yevropa Ittifoqi konsulligi tomonidan qabul qilingan "Sharqiy Yevropa va Sovet Ittifoqi o'rnida tashkil topgan davlatlarni tan olish bo'yicha ko'rsatma"ga asoslanib, Yevropa Ittifoqining a'zo mamlakatlari tomonidan tan olinishi lozim bo'lgan yangi mamlakatlarmi (p. 206)?

2) 1991-yil 16-dekabrdagi birinchi xulosada arbitraj komissiyasi "Sobiq Yugoslaviya parchalanishi jarayonida" degan fikrda edi. Hozir mazkur jarayon tugallandi deb hisoblash mumkinmi (p. 200-201)?

3) agar shunday bo'lsa, qanday asoslarga tayanib, shuningdek qanday vositalar yordamida sobiq Yugoslaviyadan ajralib chiqadigan yangi mamlakatlarning vorislik masalalarini hal etish mumkin (p. 203)?

Arbitraj komissiyasining xulosalari


1. Arbitraj komissiyasining xulosalarida birinchi va uchinchi savollarga javoblar ikkinchi savolning javobiga chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, avvalo, ikkinchi savolga javob berib, keyin esa birinchi va uchinchi savollarga, o'ninchi hamda to'qqizinchı xulosalarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Birinchi xulosada arbitraj komissiyasi sobiq Yugoslaviya parchalanish jarayonida deb ta'kidlagan edi. Bu parchalanish hozirda nihoyasiga yetgan deb hisoblash mumkinmikan?

Komissiya Bosniya va Gersegoviniya, Xorvatiya, Makedoniya, Montenegro, Serbiya hamda Sloveniya respublikalaridan yuborilgan qoralamalar, fikrlar va xatlarga nazar tashlaydi (p. 201).

2. Komissiya birinchi xulosada davlatning mavjudligi yoki mavjud emasligi, davlatning belgilari to‘g‘risidagi xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan tamoyillariga asoslangan holda aniqlashtirilishi lozim, shuningdek “sobiq Yugoslaviya parchalanishi jarayonida bo‘lsa-da, ma’lum bir holatlarda tanlanilayotgan demokratik hamda yangi tuzilma qanday tuzilishda bo‘lishi, respublikalarning xohish-irodasiga bog‘liq hamda davlatning mavjudligi yoki tugatilganligi asosan amaliyot bilan bog‘liq masaladir deb xulosa yasaydi (p. 201).

3. Davlatning tugatilishi u allaqachon yuridik shaxslik xususiyatlarini yo‘qotganligini anglatganligi sababli bunga katta e‘tibor berish lozim. Bir qancha alohida birliklardan tashkil topgan federativ davlatlarning aynan

6-rasm. Sobiq Yugoslaviya parchalangandan keyingi holat.



q‘sha birliklari u federativ vakolatlarini yo‘qotgan paytda alohida suveren subyekt sifatida tashkil topayotganda vaziyat anchagina xavfli tus oladi. Shu bilan birgalikda, bunday davlatlar boshqa mamlakatlar tomonidan tan olinishi zarur va bu tan olish shunchaki e‘lon qilish yo‘li bilan amalgalashiriladi”. Biroq shuni ham unutmaslik lozimki, “aynan o‘sha e‘lon qilish yo‘li bilan tan olish, yangi davlatning xalqaro hamjamiyat a‘zosi sifatidagi o‘rni

bilan birgalikda tan olingen siyosiy subyekt ekanligini hamda unga xalqaro huquq asosida huquq va majburiyatlar yuklanganiga qat‘iy ishonch bildirilganining dalili bo‘ladi (p. 201).

4. Birinchi xulosa taqdim etilganidan so‘ng Serbiya hamda Montenegro yangi davlat, ya’ni yangi Yugoslaviya mamlakatini tashkil etib, 27-aprel kuni yangi konstitutsiyani qabul qildilar. Shuningdek, sobiq Yugoslaviya tarkibidan ajralib chiqqan yangi mamlakatlar ham o‘zaro bir-birlarining mustaqilliklarini tan oldilar va sobiq Yugoslaviyaning ma’muriy organlari o‘z faoliyatlarini to‘xtatdi. Sobiq Yugoslaviyaning parchalanishi to‘liq nihoyasiga yetdi. Uning eski hududlari hamda aholisini hozirda yangi suveren va mustaqil mamlakatlarning qo‘l ostidadir.

Bosniya va Gersegoviniya, Xorvatiya hamda Sloveniya Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlari tomonidan mustaqil davlat sifatida tan olinib, ularning BMTga a'zo bo'lib kirishlari ham e'tirof etildi. Biroq yangi Yugoslaviyaning Sobiq Yugoslaviyaning vorisi sifatida BMTga a'zoligini tan olinishi bo'yicha da'vosi Xavfsizlik Kengashi tomonidan rad etildi (p. 202).

5. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, birinchi xulosada aytilgan sobiq Yugoslaviyaning parchalanish jarayoni hozirgi kunda o'z nihoyasiga yetdi va endi sobiq Yugoslaviyani mayjud emas, deb hisoblash o'rnlidir (p. 202).

Sharh

Mazkur ish bo'yicha berilgan xulosalar, sobiq Yugoslaviyaning parchalanishi natijasida yuzaga kelgan xalqaro huquqdagi davlat bilan bog'liq masalalar, ya'ni davlat belgilari, davlatlarning tugatilishi mazmun-mohiyati, davlatning parchalanishi va ularning tan olinishi hamda vorislik masalalari bilan bog'liq bo'ladi.

Xalqaro huquqda davlat belgilari. Xalqaro huquqda davlatning belgilari sifatida doimiy yashovchi aholi, aniq belgilangan hudud va hukumatning mavjudligi tan olinadi. Ushbu ishda arbitraj komissiyasi birinchi xulosada ma'lum bir subyektni davlat deb hisoblash uchun xalqaro huquqda belgilangan bir qancha tamoyillarga tayanish lozim deb ta'kidlab, davlat tartiblashtirilgan siyosiy hokimiyat va uning ta'sir kuchi doirasida bo'lgan hudud hamda aholidan tashkil topadigan suveren birlashmadir deb o'z ta'rifini keltiradi. Shuningdek, komissiya federativ davlatga ham to'xtalib o'tadi. "Federativ davlatda, – deydi komissiya federativ organ federatsiyaning birliklari nomidan amaldagi hokimiyatni tatbiq etib turadi". Uning bunday ta'riflarini yuqoridagi davlatning uch belgisini yanada aniqlashtirish maqsadida berilgan deyishimiz ham mumkin.

Davlatning tugatilishi va uning mazmun mohiyati. Mamlakat parchalanib, uning o'rnida bir nechta yangi davlatlar tashkil topganda (sobiq Yugoslavia misolida), bir davlat ikkinchi bir davlat bilan birlashib, uning bir qismiga aylanganda (Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning birlashuvni natijasida hozirgi Germaniya davlatining vujudga kelishi misolida) hamda ikki yoki undan ortiq mamlakatlar bir davlatga (Shimoliy Yaman hamda Janubiy Yamanning yagona Yaman davlatiga birlashganligi misolida) birlashganda hududlari o'zgargan sobiq davlat tugatilganmi yoki

hali hanuzgacha mavjudmi degan muammo o'rtaga chiqadi. Bunday vaziyatlarda davlat mavjudligi yoki tugatilganligini belgilash uchun qanday talablar borligini aniqlab olish lozim bo'ladi. Biroq xalqaro huquqda bunday muammolarni hal etish standartlari aniq belgilab qo'yilmagan bo'lib, olimlar o'rtasida ham munozaralarga sabab bo'ladi. Yuqoridagi davlatning tashkil topishi bilan bog'liq birinchi holatda davlat tugatilmaganligini tan olish yoki olmaslik borasida bir qarorga kelishda obyektiv hamda subyektiv faktorlarni¹, ayniqsa, subyektiv faktorlarni hisobga olish kerakligi borasidagi qarashlar ko'pchilikni tashkil etadi².

Ushbu ishda arbitraj komissiyasi davlatning mavjudligi yoki tugatilishi amaliyot bilan bog'liq muammo bo'lib, sobiq Yugoslaviya tarkibidan ajralib chiqqan yangi davlatlarning Yevropa Ittifoqining a'zo mamlakatlari tomonidan tan olinishi, ularning BMTdagi o'rnining e'tirof etilishi hamda Xavfsizlik Kengashining qaroriga tayanib sobiq Yugoslaviya mavjud emas degan xulosaga keldi.

Sobiq Yugoslaviyaning parchalanib ketishi va davlatni tan olinishi bilan bog'liq masalalar. Arbitraj komissiyasi birinchi xulosada davlatning mavjudligi yoki tugatilganligi masalasi amaliy muammo bo'lib, boshqa mamlakatlar tomonidan tan olinishini e'lon qilish yo'li bilan amalga oshiriladi deb belgilagan edi. Sakkizinchi xulosada esa "davlatlar tomonidan e'lon qilish yo'li bilan tan olish yangi davlatning xalqaro hamjamiyat a'zosi sifatidagi o'rni bilan birgalikda tan olingan siyosiy subyekt ekanligini hamda unga xalqaro huquq asosida huquq va majburiyatlar yuklanganiga qat'iy ishonch bildirilganining dalili bo'ladi" degan fikrni ilgari surgan edi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining a'zo mamlakatlari tomonidan yangi davlatlarning tan olinish masalasi bo'yicha to'rtinchи xulosada (Bosniya va Gersegoviniya), beshinchi xulosada (Xorvatiya), oltinchi xulosada (Makedoniya) hamda yettinchi xulosada (Sloveniya) komissiya birma-bir to'xtalib o'tdi³.

¹ Bu yerda obyektiv faktorlar deganda mavjud davlatning hududi, aholisining tarkibiy qismi, poytaxting joylashgan yeri, tabiiy boyliklari, tarixiy madaniyati nazarda tutilmoqda. Subyektiv faktorlar deganda esa hanuz mavjudlik da'vosi bilan yangi tashkil topgan mamlakatlar uning bu da'vosi tan olinishi bilan bog'liq holatlar hamda uchinchi mamlakatlar tomonidan uning bu da'vosi tan olinishi nazarda tutilmoqda.

² Kotera Akira va boshqalar. Xalqaro huquq. Yaponiya 2010. – B.144-145. Bundan tashqari, qarang: Morikawa Toshitaka. Davlatlarning vorislik hamda tan olinish masalalari. Yokohama: Xalqaro iqtisodiy huquq. 4-jild, 2-qism, – B.159.

³ Wang Zhi-an. Yugoslaviyaning parchalanishi va davlatning tan olinishi. Komazawa universiteti huquqshunoslik dissertatsiyalari to'plami, 48-jild, – B.19. Bundan tashqari, qarang: Crawford J. The creation of states in International Law. 2nd edition. (2006) – PP. 24-25.

Asosan muammoli holatlar, sakkizinchı xulosa hamda Yevropa Ittifoqi va BMT tomonidan amalga oshirilgan harakatlar bilan bog'liq bo'ldi. Bunda davlatni tan olishning huquqiy oqibatlari, juda erta tan olish, vaziyatga qarab tan olish hamda guruh bo'lib tan olish kabi masalalar muhokama mavzusiga aylandi. Masalan, davlatni tan olinishining huquqiy oqibatlari to'g'risida komissiya o'zining birinchi xulosasida boshqa davlatlar tomonidan davlatning tan olinishi e'lon qilish yo'li bilan amalga oshirilishini ta'kidlagan bo'lsa-da, olimlar orasida quyidagicha qarashlar mavjud. Kroford Yugoslaviyaning parchalanib ketishiga nisbatan shunday fikr bildiradi: "sobiq Yugoslaviyaning tugatilishiga nisbatan xalqaro hamjamiyatning munosabati anchagini tushunarsiz bo'lganligini aytadi. Yana Makedoniya bir necha yillar davomida tan olinmaganligiga qaramay, deyarli barcha davlatlar tomonidan davlat sifatida qabul qilinib kelindi. Shuningdek, Serbiya va Montenegro sobiq Yugoslaviyaning vorisi sifatida tan olinmay, buning natijasida ko'plab mamlakatlar ular bilan hech qanday tashqi aloqalarga kirishmadilar. Biroq ularning aslida davlat ekanligiga hech kimda shubha bo'lmagan"¹.

Sobiq Yugoslaviyaning parchalanib ketishi va unga vorislik masalalari. Arbitraj komissiyasi birinchi xulosasida davlat vorisligi masalalari xalqaro huquqning asosiy prinsiplarida belgilangan bo'lib, 1978-yil 23-avgustdag'i "Davlatlarning shartnomalar bo'yicha huquqiy vorisligi" hamda 1983-yil 8-apreldagi "Davlatlarning davlat mulklari bo'yicha huquqiy vorisligi" kabi Vena konvensiyalari aynan o'sha asosiy tamoyillardan andoza olgan. Mazkur tamoyillarga tayanadigan bo'lsak, vorislik oqibati adolatli bo'lishi lozim hamda vorislikka aloqador bo'lgan mamlakatlar o'rtasida kelishuvga ko'ra erkin belgilab olinishi ham mumkin. Bundan tashqari, xalqaro ommaviy huquqdagi kuch ishlatish chegarasini ham hisobga olish lozim. Chunki shaxsning asosiy huquq va erkinliklari, fuqarolarning va kam sonli shaxslarning huquqlari barcha vorislikka daxldor mamlakatlarning vakolatlarini cheklab qo'yadi. Shuning bilan birgalikda, to'qqizinchı xulosada sakkizinchı xulosadagi sobiq Yugoslaviyaning tugatilganligi va u allaqachon mavjud emasligi haqidagi xulosalar qaytarilganidan so'ng, uning o'mnida tashkil topgan barcha mamlakatlar uning vorisi ekanligi belgilangan edi. Bunda komissiya tomonidan davlat vorisligi to'g'risidagi konvensiyaga qayta murojaat etilayotganligi hamda inson huquqlarini himoya qilish masalasi barcha voris mamlakatlarga birdek ta'sir o'tkazishi nazarda tutilayotganiga e'tibor qaratishimiz lozim.

¹ Crawford J., The creation of states in International Law, 2nd edition, (2006). – P. 25.

Sobiq Sovet Ittifoqi hamda Sobiq Yugoslaviya o'rtasidagi tafovutlar. Sobiq Sovet Ittifoqi ham, sobiq Yugoslaviya ham federativ davlat bo'lib, ular parchalanib ketganidan so'ng ulardan bir qancha mustaqil davlatlar ajralib chiqqanligi jihatidan bir-biriga o'xshash

7-rasm. Sobiq Sovet Ittifoqi va undan ajralib chiqqan davlatlar xaritasi



bo'lishiga qaramay, Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Rossiya uning yagona vorisi sifatida BMT tomonidan tan olingan bo'lsa-da, yangi Yugoslaviya bu tarzda tan olinmadi. Bir so'z bilan aytganda, ikki mamlakatga butunlay o'zgacha yondashuvda bo'lindi. Nega bunday yondashuvda bo'lindi degan savolga davlatning tugatilishi va uning mazmun-mohiyati qismida keltirib o'tilgan

subyektiv faktorlar sabab bo'ldi deb aytishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, Rossiya Sovet Ittifoqining vorisi sifatida tan olinishiga Sovet Ittifoqidan ajralib chiqqan boshqa mamlakatlar qarshilik qilmagani, Yevropa Ittifoqi, BMT va boshqa mamlakatlar ham Rossianing SSRI vorisi bo'lishiga qarshilik qilmagani sabab bo'lgan. Yugoslaviya bilan bog'liq vaziyatda esa sobiq Yugoslavianing vorisi sifatida yangi Yugoslavianing tan olinishi bo'yicha vajga nisbatan sobiq Yugoslaviyadan ajralib chiqqan boshqa mamlakatlar rozi bo'lmadilar hamda boshqa davlatlar tomonidan ham yuqoridagi vaj inkor etildi. Yangi Yugoslavianing BMTdagi o'rni masalasida ham Rossiya Sovet Ittifoqi davomchisi sifatida tan olindi, ammo sobiq Yugoslaviya o'rnida tashkil topgan yangi davlatlar unga a'zo bo'lishlari uchun ulardan ariza talab etildi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sizningcha, davlatning asosiy belgilariiga uning boshqa davlatlar tomonidan tan olinishi shartini ham kiritish mumkinmi?
2. Davlat qanday yo'llar bilan tashkil etiladi?
3. Davlatlarning parchalanib ketishiga bir qancha misollar keltiring va ular o'rtasidagi tafovutlarni muhokama qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vang Zhi-an. Yugoslaviyaning parchalanishi va davlatning tan olinishi. Komazava universiteti huquqshunoslik dissertatsiyalari to‘plami. 48-jild.
2. Kotera Akira va boshqalar. Xalqaro huquq, Yaponiya, 2010.
3. Morikava Toshitaka. Davlatlarning vorislik hamda tan olinish masalalari. – Yokohama. Xalqaro iqtisodiy huquq. 4-jild. 2-qism.
4. Crawford J. The creation of states in International Law. 2nd edition. 2006.


IV. Xalqaro huquqda yurisdiksiya masalalari. Davlat suvereniteti va yurisdiksiya masalalari: 1923-yil 17-avgustdagagi Uimblodon ishi (Affaire du Vapeur "Wimbledon", Arret, 1923, CPJI serie A No 1, p.15) (A.Xakimov)

Ushbu ish Birinchi jahon urushidan keyin tashkil etilgan Muvaqqat xalqaro sud (PCIJ¹) tomonidan ko'rib chiqilgan dastlabki nizo sifatida ham ahamiyatga molikdir. Ushbu ishda Antanta Ittifoqi hamda Millatlar Ligasi bilan Germaniya o'rtaida tuzilgan Tinchlik shartnomasi (Versal shartnomasi)ning 380-modda-siga ko'ra, internatsionalizatsiya-lashtirilgan Kil kanaliga nisbatan Germaniyaning kanal uning boshqaruvi ostida ekanligi to'g'risida chiqargan Neytrallik aktini qo'llash bilan bog'liq masala asosiy muammo bo'ldi. Britaniya bayrog'i ostida bo'lgan va vaqtincha foydalanish uchun Fransiya kompaniyasi tomonidan olingan (time-chartered²) Uimblodon (Wimbledon) kemasi Gretsianing Salonika portidan 4200 tonnadan iborat bo'lgan o'q-dorilar va artilleriyani olib Dansigda joylashgan Polshaning dengiz qo'shinlari tomon yo'lga tushgan edi. 1921-yil 21-mart kuni Kil kanalining kirish qismiga yetib kelganda, Germaniyaning tegishli organ xodimlari tomonidan to'xtatiladi va Kil kanali bo'ylab o'tishiga ruxsat berilmaydi. Bunga sabab o'sha vaqtarda rus-polyak urushi davom etayotgan edi. Bundan tashqari, Germaniya 1920-yil 25-iyulda mazkur urushga aralashmasligini e'lon qilgan holda Neytrallik aktini qabul qilgan edi. Bu vaqtida Fransianing elchisi tomonidan kemaga ruxsat berish

8-rasm. Muvaqqat Xalqaro Sud embleması.



9-rasm. Kil kanali.



¹ Muvaqqat Xalqaro Sud (Permanent Court of International Justice) – 1920-yilda Millatlar Ligasi qoshida tashkil etilgan Xalqaro sud. Hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Xalqaro Sud (International Court of Justice)ning ajodi sifatida qaraladi.

² Time-charter – kemadan foydalanish uchun uni ijara olish. Bunda kema egasining unga egalik huquqi saqlanib qolaveradi. Biroq port a'zolari, kemaning suzish yo'naliishi va unga yuklanadigan yukni ijara oluvchi charter hal etadi.

haqidagi iltimosnomaning kiritilishi ham hech qanday natija bermadi. Kema 11 kun Kil kanalining kirish qismida kutgandan so'ng ham hech qanday natija bo'limgach, Daniya bo'g'ozi orqali suzib o'tib, 13 kunda kechikkan holda belgilangan manzilga yetib bordi.

Bu voqealardan so'ng Versal shartnomasining 380 – 386-moddalari buzilgan deb, mazkur ish bo'yicha Muvaqqat Xalqaro Sud statutining 40-moddasiga asosan, Muvaqqat Xalqaro Sudga da'vo bilan chiqildi. Birinchi jahon urushining yetakchi mamlakatlari Angliya, Fransiya, Italiya va Yaponiya o'z da'vosida:

a) Germaniya tomonidan Uimblodon kemasining Kil kanaliga kiritilmaganligi hamda u bo'ylab suzib o'tishga ruxsat etilmaganligi Versal shartnomasining 380-moddasiga zid ekanligi va noqonuniyligini ta'kidladilar;

b) kemaga ruxsat etilmasligi oqibatida charter hamda kema egasiga yetkazilgan zarar Germaniya tomonidan to'lanishi lozimligi talab qilindi.

Bunga qarshi Germaniya tomon rus-polyak urushi ketayotgan bir vaqtida Germaniyaning Neytrallik to'g'risidagi akti mazkur holatda ham qo'llanilishi kerakligi va yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talab rad etilishi lozimligini bildirdi.

Mazkur ishda Polsha ham Muvaqqat Xalqaro Sud statutining 62-moddasiga binoan ishda qatnashishini bildirgan bo'lsa-da, Sud tomonidan 1923-yil 28-iyunda chiqarilgan qarorda Polsha 62-modda emas, aksincha, 63-modda asosida sud jarayoni qatnashchisi sifatida ishda ishtirok etishi mumkinligini belgiladi.

Demak, biz ko'rib chiqayotgan nizo bo'yicha Muvaqqat Xalqaro Sud quyidagicha qarorga keldi:

1) to'rt davlat da'vogar sifatida, Polsha esa sud jarayoni qatnashchisi sifatida da'vo bilan murojaat etilgan ushbu ish sud yurituviga qabul qilinsin;

2) Germaniyaning Uimblodon kemasi Kil kanalidan o'tishiga ruxsat bermaganligi va uni kiritmaganligi noqonuniy deb topilsin;

3) Versal shartnomasining 380-moddasi Germaniya tomonidan 1920-yil 25-iyulda qabul qilingan Neytrallik akti Kil kanali havzasi bo'ylab qo'llanilishini taqiqplaydi deb topilsin;

4) Germaniya hukumati kema egasi va uning charteriga yetkazilgan zararni to'liq qoplab bersin;

5) shuningdek, Germaniya hukumati Fransiya hukumatiga yetkazilgan zarar uchun Fransiya valyutasida 140.749 frank jarima to'lasin. To'lov uch oy ichida amalga oshirilishi lozim. Vaqtida amalga oshirilmagan to'lovlar uchun sud qarori chiqqan sanadan boshlab 6 foiz miqdorida penya belgilansin. Sud xarajatlarini qoplash har bir ishtirokchi mamlakatga teng ravishda yuklansin.

Qo'shimcha tarzda sudyalar: Anzilotti, Huber va Germaniyalik suda Schucking mazkur sud qaroriga qarshi bo'lganlari keltirib o'tiladi.

Sud qarorining ahamiyatli bandlari

Suveren hokimiyatning amalga oshirilishini cheklovchi shartnoma.

Kil kanali to'g'risidagi Versal shartnomasining 380-moddasi ommaviy va majburiy xarakterga ega norma hisoblanadi. Boshqa so'z bilan aytganda, uning mazmunidan anchagina qat'iy norma ekanligi hamda ikkilantiruvchi xarakterga ega emasligining guvohi bo'lismumkin. Shartnomada belgilangan yangi tizimga ko'ra Kil kanali u harbiy yoki savdo kemasi bo'lishidan qat'i nazar, barcha kemalar uchun ochiq bo'lib, teng ravishda foydalanimishi zarur edi. Albatta, ushbu vaziyatda Germaniyaning Kil kanaliga nisbatan bo'lgan yurisdiksiyasini hech kim inkor etmaydi, ammo mazkur yurisdiksiya ijrosi bilan bog'liq cheklash mavjud ekanligini ham unutmaslik lozim. Bu holatda bunday cheklashni o'rnatuvchi norma haqida qandaydir shubha mavjud bo'lsa, anchagina tor doiradagi sharplash uchun yetarlicha sabablar yuzaga keladi. Biroq sud tor doiradagi sharplashni amalga oshirganidan so'ng ham 380-moddada aniq keltirilgan so'zlar yordamida belgilab qo'yilgan ma'noni inkor eta olmadi (pp. 24-25).

Neytral mamlakatning huquqlari. Germaniya hukumati barcha kemalarning Kil kanalidan suzib o'tish huquqining tan olinishi va ularga umumiylar tarzda ruxsat berilgan taqdirda ham bu urush davrida neytral mamlakat sifatida huquqlar va majburiyatlarni amalga oshirishni inkor etmaydi degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari, Germaniya u uchun yuqoridagi kabi ruxsat berishlar, urush olib borayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan taqiqlangan mahsulotlar va tovarlarni kanaldan olib o'tishga ruxsat berish majburiyatini yuklamaydi deb hisoblaydi. Germaniya keyingi o'rindagi da'volarni keltiradi. Bu tarzda keng ko'lamli ruxsat berish insoniy hamda qadimdan saqlanib kelgan abadiy huquqlar Germaniya tomonidan toptalishiga olib keladi degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, mazkur neytrallik huquqi Germaniya suverenitetining zaruriy qismi bo'lib, ushbu vaziyatda Germaniya yuqorida tilga olingan huquqlarni buzsa ham bu u tomonidan ixtiyoriy ravishda qilinganligini anglatmaydi. Biroq Germaniyaning bu vajlari sud tomonidan inobatga olinmadi va sud uni quyidagicha izohladi. Yuqorida keltirilgan vajlar eng muhim deb sanaladigan umumiylar huquqlar to'g'risidagi qarashlarga amaliy jihatdan qarama-qarshidir. Bundan tashqari, umume'tirof etilgan xalqaro odatlarga ham zid kelish bilan birga urush vaqtida ham, tinchlik vaqtida ham qo'llanilishi aniq ravshan bo'lgan Versal shartnomasining 380-moddasiga ham ziddir (p. 25).

Suverenitetning belgisi sifatida shartnomalar tuzish huquqi.

Sud davlat ma'lum bir shartnomani imzolashga yoki imzolamaslikka va'da berishi hamda o'zi a'zosi bo'lgan shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarni bajarishi suverenitetining buzilishiga olib keladi deb hisoblamaydi. U quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Albatta, davlat oldida ma'lum bir majburiyatni yuzaga keltiruvchi har qanday konvensiya yoki shartnoma ham suveren hokimiyatni amalga oshirishga nisbatan qandaydir ko'rinishdagi yo'nalishni taqdim etadi va bu davlat suveren hokimiyatini amalga oshirishda cheklashni vujudga keltirishi mumkin. Biroq xalqaro shartnomalarni tuzish qobiliyati davlat suveren hokimiyatining uzviy ajralmas qismi hisoblanadi". Shu sababli ham ushbu vaziyatda shartnomadan kelib chiqqan majburiyatni bajarish Germaniya suverenitetini cheklamaydi (p. 25).

Neytral davlatning ichki huquq normalari hamda xalqaro shartnomalar. Uimblond kemasining Kil kanali bo'ylab suzib o'tishiga ruxsat berilmaganligiga Germanianing Neytrallik to'g'risidagi akti asos bo'lib xizmat qilishi mumkinmi? Avvalo, bir xorijiy mamlakatda ortilib, ikkinchi xorijiy mamlakatga yuborilayotgan yuklar kanaldan olib o'tilishi Germaniya tomonidan neytrallik aktida belgilangan "ekport qilinadigan yuklar" qatoriga kirmaydi. Shuningdek, neytrallik aktida taqiqlangan "o'tish" ham Kil kanaliga taalluqli deb aytish qiyin. Nima bo'lganda ham bir davlat tomonidan qabul qilingan neytrallik akti tinchlik to'g'risidagi xalqaro shartnoma qoidalaridan ustun bo'la olmaydi. Versal shartnomasining 380-moddasi Germaniya bilan shartnoma imzolagan barcha mamlakatlarning savdo va harbiy kemalariga kanaldan o'tish huquqini berar ekan, Germanianing neytrallikni saqlash uchun urush davrida olib o'tilishi taqiqlangan tovarlarni olib o'tmaslik bo'yicha vajlari ahamiyatsiz bo'lib qolaveradi (p. 29).

Yuqorida gilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Germaniya o'z neytrallik majburiyatidan kelib chiqib, Uimblond kemasini to'xtatishga majbur bo'Imagan, aksincha, unga ruxsat berish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, Versal shartnomasining 380-moddasiga ko'ra Germanianing kemalar o'tishiga doir aniq va ravshan majburiyati belgilab berilgani bois Germaniya o'zining neytrallik aktini qo'llay olmaydi (p. 30).

Sharh

Sud o'zining qarorida aslida mavhum bo'lgan davlat suvereniteti tushunchasi hamda aniq hokimiyatga asoslangan suverenitet tushunchalarini bir-biridan farqlab, Germanianing Kil kanaliga nisbatan

bo‘lgan suvereniteti va bu suverenitetni amalga oshirishning xalqaro shartnoma tomonidan cheklanishini tushuntirdi. Sud bu mantiq bilan, suverenitetning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma tuzish huquqini amalga oshirish va buning natijasida davlatning vakolatlari xalqaro shartnoma tomonidan ma’lum bir darajada cheklansa ham, bu suverenitetning buzilishiga olib kelmaydi, degan xulosani berdi. Boshqa so‘z bilan aytganda, davlat suvereniteti va xalqaro shartnomalar vositasida cheklash o‘rtasidagi “suverenitet dilemmasi” bo‘yicha ahamiyatli izoh qoldirdi.

Bu vaqtida Muvaqqat Xalqaro Sud Tunis va Morokash o‘rtasida “Fuqarolik to‘g‘risida”gi qonun bo‘yicha kelib chiqqan ish va Xalqaro Mehnat Tashkiloti vakolatlari bo‘yicha ishlarda ham davlat suvereniteti va uning xalqaro shartnomalar vositasida cheklanishiga doir muammolarga duch keldi. Shuningdek, yana bir masalani ta’kidlab o‘tish joizki, Fridrih Hegel nazariyasiga asoslangan absolyut suverenitet tushunchasi o‘sha vaqtida Germaniyada ustuvor hisoblanar edi. Mazkur ishda ham sud qaroriga qarshi bo‘lgan, ya’ni neytral davlat va urush holatida bo‘lgan davlatlar shartnomada ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan hamda aniq belgilangan huquq va majburiyatlar mustahkamlanmagan bo‘lsa ham o‘zining neytralligi va xavfsizligi uchun favqulodda choralar qo‘llash huquqiga ega, degan qarash bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Germaniyaning fuqarosi bo‘lgan sudyda ham, Versal shartnomasida belgilangan majburiyatlarni xalqaro foydalanish (International easement¹) sifatida tan olish bilan birgalikda, barcha shu tarzdagi foydalanishni, urushga nisbatan qat’i va mutlaq neytrallikni saqlovchi va uni hayot-mamot darajasida hurmat qiluvchi davlatning huquqiga bo‘ysundirmoq lozim deb hisoblaydi. Shu sababli ham bu yerda Versal shartnomasining talqini sifatida rivojlanib kelgan sud a‘zolarining ko‘pchiligi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan qarashga qarama-qarshi bo‘lgan fikrni bildiradi. Bu esa suverenitetga nisbatan qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatning asosida “suverenitet dilemmasi” ni qanday tushunish muammozi yotganligini anglatadi. Bugungi kunda yuqorida ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlangan qarash aslida o‘sha davrdagi vaziyat taqozosi natijasi ekanligi barchaga ayon.

Keyinchalik ham, Muvaqqat Xalqaro Sud 1925-yilda Gretsiya va Turkiya o‘rtasidagi aholi almashinushi bo‘yicha bergen tushuntirishida, Turkiyaning almashinish obyekti bo‘lgan aholining doirasini belgilashda milliy qonunchilikka asoslanilishi va bu Turkiyaning suveren huquqi

¹ International easement – Boshqaning yeridan o‘z manfaati yo‘lida beg‘araz foydalanish.

ekanligi to‘g‘risidagi va’jiga nisbatan Uimblodon ishini havola qilgan. Turkiyaga nisbatan xalqaro shartnomada belgilangan majburiyatlar natijasida davlat vakolatlarining ma’lum bir darajada cheklanishi ushbu mamlakat suverenitetining buzilishini anglatmaydi degan javobni berdi.

1927-yilda sud tomonidan Danube daryosi ishi bo‘yicha berilgan tushuntirishda ham avvalgi qarorlardagi kabi davlat tomonidan xalqaro shartnomaga qo‘shilish natijasida yuzaga kelgan davlat suverenitetini amalga oshirishni cheklovchi shartlar suverenitetning buzilishi hisoblanmaydi, degan xulosaga kelindi. Albatta, sudning bunday sharhi xalqaro huquqning majburiyatlarga taalluqli barcha masalalarini hal etishga qaratilmagan bo‘lsa-da, suveren davlat o‘zi rozi bo‘lib kirgan xalqaro shartnoma tomonidan qanday cheklovlargacha uchrashi mumkinligi to‘g‘risidagi amaliy yechimni taqdim etdi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Neytral davlat deganda qanday davlatni tushunasiz?
2. Agarda, hozirgi kunda ham Uimblodon ishidagi kabi nizo yuz bersa, Xalqaro Sud bunday nizoni qay yo‘sinda hal etadi, deb o‘ylaysiz?
3. Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar davlatning konstitutsiyasidagi assosiy prinsiplarga zid kelib qolsa, davlat o‘z konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritishi lozim deb hisoblaysizmi?
4. Sizningcha, 3-savolda nazarda tutilgan holat amalda yuzaga kelishi mumkinmi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jan Klabbers “Clinching the Concept of Sovereignty: Wimbledon Redux”, Austrian Review of International and European Law, Vol. 3, (1998), 345-367 pages.
2. Michel Cosnard, “Sovereign Equality – the Wembledon sails on,” M. Byers and G. Nolte eds., United States Hegemony and the Foundations of International Law (2003), 117-134 pages.
3. Martti Koskeniemi, “What Use for Sovereignty Today?”, Asian Journal of International Law, Vol. 1 (2011), 61-70 pages.
4. Tabata Shigejiro, “Xalqaro hamjamiyatda davlat suvereniteti”, Ommaviy huquq tadqiqoti, 3-son, 1-bet.
5. Okuvaki Naoya, “Yaponianing Xalqaro ommaviy huquq fani sohasida hududiylik asoslарining rivoji”, Xalqaro 96-jild, 4-5 qismlar, 86-bet.

V. Xalqaro huquqning prinsiplari va yurisdiksiya. O'zbekiston va Metal-Tech ishi 2013-yil

Metal-Tech Ltd. v Republic of Uzbekistan (ICSID Case No. ARB/10/3).
(A.Xakimov)


Nizoning yuzaga kelishi. 2000-yilda Isroilning molibdenium ishlab chiqaruvchi Metal-Tech jamoa shirkati O'zbekistonning ikki davlat korxonasi AGMK hamda UzKTJM bilan molibdenium ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan zavod qurish va uni boshqarish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etdi. Unga ko'ra, Metal-Tech o'zining texnologiya, nouxou va moliyaviy mablag'larini yangi Uzmetall deb nomlanuvchi qo'shma korxona uchun taqdim etdi. Bundan tashqari, Metal-Tech bilan birgalikda qo'shma korxona tashkil etish xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini ham taqdim etar edi. O'z navbatida, O'zbekiston korxonalari ham yangi zavodni ishga tushirish uchun binolar, qurilish materiallari, mashinalar, asbob-uskunalar hamda molibdenium xomashyosini yetkazib berdilar.

Biroq 2006-yilga kelib Toshkent viloyati prokuraturasi qo'shma korxonaning bir qancha rasmiylariga nisbatan o'z mansab vakolatlarini va O'zbekiston Respublikasiga moddiy zarar yetkazishda ayblab jinoyat ishi

10-rasm. Molibden xomashyosi. qo'zg'atdi. Bir oydan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qo'shma korxonaning molibdenium xomashyosini talab qilish va molibdeniumni eksport qilishga bo'lgan mutlaq huquqini bekor qilish bo'yicha qarori chiqarildi. Natijada O'zbekiston korxonalari qo'shma korxona borasidagi o'z shartnomalarini to'xtatdi va unga nisbatan bankrotlik protsedurasi boshlanadi. Metal-Techning qarshiligiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Xo'jalik sudi tomonidan qo'shma korxona likvidatsiya qilindi hamda 2009-yilda yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan chiqarildi.

Shundan so'ng Metal-Tech Investitsion nizolarni hal qilish markaziga (ICSID) da'vo bilan chiqdi.

Metal-Techning da'volari. Metal-Tech o'z da'vosida O'zbekiston o'z ichki huquqida belgilangan majburiyatlarini hamda O'zbekiston-Isroil BITidagi majburiyatlarini buzganligini ta'kidlaydi. O'z da'vosining asosiy safatida O'zbekiston yuqorida keltirib o'tilgan normativ-huquqiy hujatlardagi adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezoni, yetarli darajada



himoya qilish va kafolatlar berish qoidasi, qo'shma korxona bo'yicha kelishuvni buzganlikda hamda Metal-Tech mulkini qonunga xilof ravishda ekspropriatsiya qilganligini keltirib o'tadi. Bundan tashqari, ekspropriatsiya qilishda hech qanday sabablarsiz investor mulki tortib olinganligi va diskriminatsiyaga yo'l qo'yilganligi hamda O'zbekistonning bu harakatlari da'vogarni o'z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etish hamda uni boshqarishdan mahrum etdi.

O'zbekistonning vajlari. O'zbekiston tomoni esa da'vogarning barcha da'volarini rad etdi. Shuningdek, Sud O'zbekiston – Isroil BITiga ko'ra mazkur ish bo'yicha yurisdiksiyaga ega emasligini ta'kidlab, Metal-Techning noqonuniy xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zarami qoplash bo'yicha qarshi da'vo kiritdi.

Sud qarori. 2013-yilning 4-oktabr kuni O'zbekiston hamda Isroil kompaniyasi bo'lmish Metal-Tech o'rtaqidagi xalqaro investitsion nizo bo'yicha ICSID o'z qarorini chiqardi. Qarorda arbitraj quyidagilarni keltirib o'tdi. Avvalo, ICSID da'vogarning da'volari hamda javobgarning qarshi da'volari bo'yicha O'zbekiston – Isroil BITi hamda O'zbekistonning milliy huquqiga ko'ra hech qanday yurisdiksiyaga ega emasligini ta'kidlaydi. Chunki mazkur Metal-Techning O'zbekistonga kiritgan investitsiyasiga (agar investitsiya deb aytish to'g'ri bo'lsa) korrupsiya aralashgan edi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bir qancha shaxslar, O'zbekiston hukumatining ba'zi amaldorlari, o'sha paytdagi yuqori lavozimdagи amaldor hamda uning ukasiga taxminan 4 million AQSH dollarini ular tomonidan ko'rsatilgan ba'zi bir qo'shtimoq ichidagi xizmatlar uchun Metal-Tech taqdim etgan edi. Bu esa o'zbek milliy qonunchiligidagi korrupsiya sifatida baholanar edi.

Sud qarorining ahamiyatli bandlari

Investitsiyaning qonuniyligi. ICSID o'zining qarorida nizolashuvchi taraflarning da'vosi hamda qarshi da'vosi bo'yicha u hech qanday yurisdiksiyaga ega emasligini quyidagicha asoslaydi. Birinchidan, bizga ma'lumki, xalqaro arbitrajlarda nizolar ko'rib chiqilishi uchun taraflarning roziligi bo'lishi talab qilinadi. ICSID esa mazkur ishda qo'llanilayotgan BITning 8-moddasi 1-qismiga ko'ra¹ O'zbekistonda aynan shunday rozilik

¹ O'zbekiston va Isroil o'rtaqidagi bitimning 8-moddasi 1-qismi Ahdashuvchi Tomon va boshqa Ahdashuvchi Tomon o'rtaqida ikkinchi Tomonning birinchi Tomon hududidagi investitsiyalariga nisbatan yuzaga kelgan har qanday huquqiy nizolarni imzolash uchun 1965-yil 18-martda Washingtonda ochilgan Davlatlar va boshqa Davlatlar fuqarolari o'rtaqidagi investitsion nizolarni hal etish to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq maxsus Bitim yoki arbitraj yo'li bilan hal etish uchun mazkur Bitim har bir Ahdashuvchi Tomonga Investitsions nizolarni hal etuvchi Xalqaro Markaz (bundan buyon «Markaz» deb yuritiladi)ga murojaat qilish majburiyatini yuklaydi.

mavjud emasligini aniqladi. Chunki, BITning 1-moddasi 1-bandiga ko'ra¹ har qanday ko'rinishdagi aktivlar shartnomalar taraflari bo'lgan davlatlarning qay biri hududiga investitsiya kiritilgan bo'lsa, aynan o'sha davlatning qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq bo'lishi ta'kidlanadi. O'zbekiston tomoni esa mazkur modda nafaqat investitsiya kiritilgan vaqt, balki u qanday idora etilganligini ham o'z ichiga olishini bildirgan bo'lsa-da, ICSID ushbu talabni faqatgina investitsiya kiritilayotgan vaqtida u o'sha paytdagi qonunlarga muvofiq bo'lishi kerakligini anglatadi deb talqin qildi va javobgarning talablarini rad etdi (para 193).

Biroq keyinchalik ishni ko'rib chiqish jarayonida Metal-Tech investitsiyani kiritish vaqtida korrupsiyaga yo'l qo'yanligini, ya'ni hukumatning ba'zi amaldorlariga katta miqdorda pora berilgani va bu umumiy loyihaning 20%ni tashkil etishini aniqladi hamda keltirilgan dalillar O'zbekiston qonunchiligin yetarli darajada buzilgan deb topish uchun asos bo'lishini aytib, mazkur holatda Metal-Techning investitsiyasi BITning 1-moddasi 1-bandiga mos kelmasligini ta'kidladi.

Javobgar bo'lmish O'zbekiston tomoni ham investor investitsiya loyihasini kiritish uchun bir qancha amaldor shaxslarga pora bergenligi va shu yo'l bilan o'z investitsiya loyihasini hukumat tomonidan tasdiqlanishiga erishganligini keltirib, bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini, xalqaro tamoyillarni hamda xalqaro ommaviy tartibni investor tomonidan buzilganligini ta'kidladi. Bu ayblovlarga qarshi da'vogar hech qanday hujjat va dalil keltira olmadi.

Shu sababli ham Metal-Techning da'volari BITning 8-moddasi 1-bandiga to'g'ri kelmasligini, bu esa O'zbekiston ishni ICSIDda ko'rib chiqilishi uchun rozi emasligini anglatishini keltirib o'tdi. O'z-o'zidan bu holatda ICSID konvensiyasining 25-moddasi 1-bandi²ga binoan ICSID hech qanday yurisdiksiyaga ega bo'lmaydi (paras. 372-373). Bundan tashqari, ushbu vaziyatdagi O'zbekistonning roziligi mavjud emasligi nafaqat da'vogarning da'volariga nisbatan ICSIDning yurisdiksiyasi mavjud bo'lmasligini, balki O'zbekiston tomonidan bildirilayotgan qarshi da'volar bo'yicha ham yurisdiksiyasi yo'qligini ham anglatishini keltirib o'tdi (para. 413).

¹ O'zbekiston va Isroil o'rutasidagi bitimning 1-moddasi 1-qismi «Investitsiya» atamasi barcha turdagи aktivlarni o'z ichiga oladi va quyidagilarni ham qo'shib hisoblagan holda hududiga investitsiyalar amalga oshirilgan Ahdlashuvchi Tomonning qonun va qoidalariga muvofiq tarza qo'llaniladi:

² ICSID Convention Article 25 (1). The jurisdiction of the Centre shall extend to any legal dispute arising directly out of an investment, between a Contracting State (or any constituent subdivision or agency of a Contracting State designated to the Centre by that State) and a national of another Contracting State, which the parties to the dispute consent in writing to submit to the Centre. When the parties have given their consent, no party may withdraw its consent unilaterally.

Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim. ICSID ishni ko‘rib chiqish jarayonida “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” (bundan keyin MFN rejimi) qoidasi bilan ham duch keldi. Metal-Tech tomonidan O‘zbekistonga kiritilgan investitsiya BITning 1-moddasi 1-bandiga mos kelmagan bo‘lsa-da, Metal-Tech BITning 3-moddasi¹ 2-bandiga tayangan holda ushbu moddada belgilangan MFN rejimiga asosan Gretsiya – O‘zbekiston BITSining 1-moddasi 1-bandida investitsiyaga berilgan ta’rif Isroil-O‘zbekiston BITiga ham tatbiq etilishi lozimligini da’vo qildi.

Ammo ICSID MFN rejimini qo‘llash bo‘yicha keltirilgan shikoyatni rad etdi va uni quydagicha asosladi: birinchidan, investitsiya shartnomada belgilangan doirada bo‘lishi zarur. Chunki investitsiya va investor tushunchasi shartnomada aniq belgilangan bo‘lib, MFN ham shu shartnomaning bir qismi sifatida qo‘llaniladi. Ikkinchidan, Isroil-O‘zbekiston BITining 7-moddasi (c) bandiga ko‘ra MFN rejimi investitsiya tushunchasiga nisbatan tatbiq etilmasligi aniq va ravshan qilib ko‘rsatilgan edi. Shunday qilib, ICSID Metal-Tech tomonidan keltirilgan MFN rejimini tatbiq etish bo‘yicha da’voni MFN rejimini talqin qilgan holda rad etdi va bu vaziyatni mezbon mamlakat foydasiga hal etdi.

ICSID ishni o‘z yurisdiksiyasiga olmaganligi sabablari

Da’vogar tomonidan javobgar “O‘zbekiston Respublikasi Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to‘g‘risida”gi Qonuning 10-moddasi²ga binoan ICSIDda ish ko‘rib chiqilishiga rozilik bergen degan da’vo ham keltirildi. Mazkur Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, arbitraj investitsion nizolarni hal etishning bir vositasi sifatida belgilab berilgan bo‘lib, bu esa O‘zbekistonning ICSIDda nizoni hal etish bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri roziligin anglatmasligi hamda unda aniq bir arbitraj nomi keltirilmaganligi ICSID tomonidan ta’kidlandi.

¹ O‘zbekiston va Isroil o‘rasisidagi bitimning 3-moddasi 1-qismi quydagicha bayon etiladi:

Ahdashuvchi Tomonlarning har biri o‘z hududida ikkinchi Ahdashuvchi Tomon investorlarining investitsiyalari yoki daromadlari uchun o‘z invyestorlarining investitsiyalari yoki daromadlari uchun yoki istalgan uchinchi Davlat investorlarining investitsiyalari yoki daromadlari uchun yaratilganidan ko‘riyodroq imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

² “O‘zbekiston Respublikasi Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to‘g‘risida”gi qonuning 10-moddasi quydagicha bayon etiladi. Chet el investitsiyalari bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq nizo (investitsiyaga oid nizo), taraflar kelishuviga ko‘ra, ular o‘rasisidagi maslahatlashuvlar orqali hal etishi mumkin. Agar taraflar kelishilgan hal qiluvga erisha olmasalar, bunday nizo O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik sudi tomonidan yoxud hakamlik vositasida investitsiyaga oid nizolarni hal etishiga doir O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro shartnomalarining (bitimlar va konvensiyalarining) qoidalari va tartibotiga muvofiq hal etilishi lozim. Investitsiyaga oid nizoga jalb etilgan taraflar o‘zaro kelishuvuga ko‘ra bunday nizoni ko‘rib chiquvchi organni, shuningdek investitsiyaga oid nizo bo‘yicha hakamlik sudlovini amalga oshiruvchi mamlakatni aniqlashlari mumkin. Chet ellik investorlarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi investitsiya faoliyatini bilan bog‘liq bo‘limgan nizolarni O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi, shartnomada nizolarni hal qilishning xalqaro huquq normalariga muvofiq o‘zga tartibi nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

Shu bilan birgalikda, ICSID konvensiyasining 46-moddasi¹ bo'yicha javobgar tomonidan ham qarshi da'volar bildirildi. Javobgar o'zining qarshi da'vosida da'vogarning noqonuniy xatti-harakatlari hamda noto'g'ri ayblovlar natijasida javobgar tomonidan ko'rilgan zararning qoplab berilishini talab qildi. ICSID mazkur holat bo'yicha ham yurisdiksiyaga ega emasligini, chunki ushbu nizoda 46-moddada belgilab qo'yilgan rozilik mavjud emasligini ta'kidladi.

Sud qaroriga sharh

11-rasm. Investitsiya kiritilgan hudud.



qo'yganligi hamda ICSID korrupsiya aralashgan ishlarni ko'rib chiqmasligini namoyon etganligi bilan ham e'tiborga loyiqdirdi.

ICSID tomonidan ishni ko'rib chiqishning rad etilishi.

Avvalo, ish ko'rib chiqilar ekan ICSID ish bo'yicha yurisdiksiyasi mavjud emasligini ta'kidlab, uni javobgarning ushbu ish ICSIDda ko'rib chiqilishiga roziliqi mavjud emasligi bilan izohladi. Shuningdek, qarorda Metal-Tech tomonidan korrupsiyaga yo'l qo'yilganligi xalqaro huquq hamda ko'plab mamlakatlarning huquqiga zid ekanligini qisqacha keltirib o'tdi (para 290)². Biroq biz mazkur holatga kengroq to'xtaladigan bo'lsak, bu vaziyatda xalqaro huquqning shaffoflik prinsipi buzilganligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Shaffoflik prinsipi xalqaro odat huquqining asosiy prinsiplaridan hisoblanib, xalqaro ommaviy tartibga rioya etilishi lozimligini anglatuvchi tamoyil sifatida tan olinadi. Korrupsiya esa xalqaro ommaviy tartibga zid xatti-harakat sifatida baholanadi. Shu sababli ham ICSID tomonidan Metal-Techning investitsiyasi avval boshdanoq xalqaro odat huquqiga ko'ra ham, mamlakatlarning ichki huquqiga ko'ra ham qonuniy investitsiya emas edi.

Mazkur ICSID tomonidan chiqarilgan qaror o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu qaror xalqaro hamjamiyatga xalqaro ommaviy-huquqiy munosabatlarda shaffoflikni ta'minlaganligi, bunday xalqaro ommaviy tartibga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirganlik - taraflarga foyda keltirmasligini ko'rsatib

¹ ICSID Convention Article 46. Except as the parties otherwise agree, the Tribunal shall, if requested by a party, determine any incidental or additional claims or counter-claims arising directly out of the subject-matter of the dispute provided that they are within the scope of the consent of the parties and are otherwise within the jurisdiction of the Centre.

² Tamar Meshel. Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan – Is Really No One Getting Punished? <http://arbitrationblog.kluwerarbitration.com/2014/01/03>.

Bundan tashqari, O'zbekiston va Metal-Tech o'rtaida kelib chiqqan nizoga o'xhash xalqaro pretsedentlar ham mavjud. Ulardan biri WDF va Keniya Respublikasi o'rtaidagi ish 2006-yilda Investitsion nizolarni hal qilish markazi (ICSID) ga kelib tushgan. Mazkur ishda nizoning kelib chiqishiga asosiy sabab sifatida WDF, Isle of Man kompaniyasi va Keniya aeraporti muxtoriyati (Kenya hukumatining rahnamoligi ostida) o'rtaida kelib chiqqan ziddiyatni keltirishadi. Nizoga asosiy sababni yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, 1989-yilda tuzilgan shartnoma bo'yicha Nairobi hamda Mombasa xalqaro aeroportlarida Duty-Free binolarini qurish, ta'mirlash hamda ulardan foydalanish borasida ishlar olib borishi bo'ldi. Shundan so'ng WDF o'z mulklaridan mahrum qilinganligi va 1989-yilgi shartnomaning buzilishi bo'yicha ICSIDga murojaat qildi.

Avval boshidan CEO va WDFning aksiyadorlari Keniya o'z bizneslarini davom ettirishlari uchun Keniya prezidentiga personal donation (dolya tashlashlari) berishlari kerakligi talab qilingan. Personal donation summasi esa 2 million dollarni tashkil etdi. Keyinchalik Keniya hukumati WDFning mulklari ustidan nazoratni o'z qo'liga ola boshladи. CEO ni esa BAAga deport qilib yubordi. Keniya Oliy sudi esa mulklar hukumat ixtiyoriga o'tganini tasdiqladi.

Sud ishni ko'rish jarayonida 1989-yildagi shartnoma pora berish yo'li bilan tuzilganligini aniqladi va bu shartnoma haqiqiy emas deb topilishiga asos bo'lishini, WDFning oldida ikki yo'l bo'lganligi (1. Pora bermasdan Keniyada biznes faoliyatini amalga oshirmsaslik; 2. Pora berish yo'li bilan Keniyada biznes qilishdek noplari yo'l) biroq, WDF ikkinchi yo'lni tanlaganligini ta'kidlab o'tdi. Pora aralashtirish Xalqaro ommaviy tartibga zidligi, shuningdek, Angliya va Keniya qonunlarida ham ommaviy tartibga zid deb topilganligi sababli ICSID da'veoni rad etdi.

Mazkur ishda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bu ishda sud xalqaro huquqning shaffoflik prinsipiiga tayanib ish ko'radi. Bunda investor va davlat o'rtaida tuzilgan shartnomalarning umuman ahamiyati bo'lmaydi. Nega deganda birgina xalqaro ommaviy huquqning prinsipini buzish ko'plab xususiy munosabatlardagi qoidalarni buzishdanda ko'proq zarar yetkazishi mumkin bo'ladi. Shu sababli ham sud ishni ko'rmay qoldiradi.

O'zbekistonning ichki qonunchiligiga berilgan talqin va uning ahamiyati.

Mazkur ishning yana bir o'ziga xos ahamiyati shundan iborat bo'ldiki, ICSID "O'zbekiston Respublikasi Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi Qonuning 10-

moddasiga ham talqin berdi. Bu vaqtga qadar O'zbekiston tomonidan ham mazkur 10-modda Xalqaro arbitrajlarda qanday sharhanishi mumkin ekan degan xavotir mavjud edi. Shunday qilib, ushbu 10-modda aynan biror-bir investitsion arbitrajda nizoni hal qilishga rozilikni anglatmasdan, xalqaro arbitrajlarni xalqaro investitsion nizolarni hal qilishning bir usuli sifatidagina keltirilganligi ta'kidlandi. Bunday talqin O'zbekistonning o'sha vaqtgacha bo'lgan barcha xavotirlari o'rinsizligini va bundan keyin ham ushbu modda qoidalari bo'yicha xavotir olish o'rinsiz ekanligini ko'rsatib qo'ydi¹.

Ushbu ishdan kim qancha zarar ko'rdi?

Mazkur ishdan taraflar hech qanday foyda ko'rmadi, aksincha, ko'proq zarar ko'rdi deb aytishimiz mumkin. Chunki sud o'z qarorida ushbu ish uchun nizolashuvchi taraflar tomonidan sarflangan xarajatlarni o'zлari qoplashlari lozimligini belgiladi. Bunga sabab qilib esa, korrupsiya faqatgina investor tomonidan amalga oshirilmaganligi va bu korruption munosabatlarda O'zbekiston hukumatining aybi bo'lganligi ta'kidlab o'tdi. Bu xarajatlar Metal-Techda 1,7 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, javobgar taraf ushbu ish uchun 8 million dollar sarflagan edi². Bundan tashqari, ICSID nizoni ko'rib chiqishni o'z ish yurituviga olmaganligi natijasida O'zbekiston investor tomonidan unga qo'yilishi mumkin bo'lgan bir qancha ayblovlardan qutilib qolgan bo'lsa-da, uning obro'yi xalqaro hamjamiyatda tushishi va investorlar oqimining kamayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan risk ostida qoldi. Metal-Tech investorlari esa korrupsiya jinoyatiga yo'l qo'yganlariga qaramasdan, ularning jinoyatlari jazosiz qolib ketdi. Biroq ular O'zbekistondagi barcha mulklaridan ayrildilar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ICSID xarajatlar taraflarning o'zлari tomonidan qoplanishini belgilab, "bir tomonni boshqa bir tomonning kasriga jazolash emas, balki huquq ustuvorligini ta'minlash yaxshiroq" degan g'oyaga asoslandi.

¹ A.Umirdinov. Metal-Tech v Uzbekistan: No Jurisdiction Because of Corruption.
<http://www.cisarbitration.com/2013/12/16/>.

² A.Umirdinov. Metal-Tech v Uzbekistan: No Jurisdiction Because of Corruption.
<http://www.cisarbitration.com/2013/12/16/>.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro huquqdagi shaffoflik tamoyilini tushuntiring. Qanday huquqiy asoslarga ko'ra ushbu tamoyil xalqaro huquqda qo'llanilib kelinmoqda?
2. Sizningcha korrupsiya haqiqatdan ham xalqaro ommaviy tartibga zidmi? Agarda zid bo'lsa, sabablarini tushuntiring.
3. O'zbekiston Respublikasi ishtirokida tuzilgan qanday ikki tomonlama investitsion shartnomalarni bilasiz va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Korrupsiya, xalqaro ommaviy tartib va huquq ustuvorligi tamoyilini bir-biri bilan qanday bog'liqlikka ega ekanligini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Tamar Meshel. Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan – Is Really No One Getting Punished? arbitrationblog.kluwerarbitration.com.
2. A.Umirdinov. Metal-Tech v Uzbekistan: No Jurisdiction Because of Corruption. <http://www.cisarbitration.com/2013/12/16/>.

VI. Xalqaro huquqda hudud masalalari. Davlat chegaralarining belgilanishi – Benin va Niger o'rtasidagi chegara nizosi
*(Frontier Dispute, International Court of Justice Reports 2005, 90
(12 July 2005)*

(A.Umirdinov)

I. Nizoning yuzaga kelishi. 1960-yilning avgust oyida Fransiyadan mustaqil bo'lib ajrab chiqqan Benin (o'sha paytdagi nomi Dahomey) va Niger davlatlari, Fransuz mustamlaka davridan davom etib kelayotgan ikki muammo, ya'ni davlat chegarasi va

12-rasm. Benin va Niger chegarasi.



Lete oroliga egalik masalasi bo'yicha, o'zaro o'tkazgan muzokaralar muvaffaqiyatsiz tugagach, uni hal etish yuzasidan Xalqaro sudga murojaat qilish borasida o'zaro kelushuvga erishildi (2001-yil 15-iyun). Ushbu maxsus bitimning 1-moddasi qoidalariga muvofiq, Tomonlar o'zlarining chegara bo'yicha bahslarini Xalqaro Sud Ustavining 26-modda, 2-bandiga muvofiq Sud palatasiga (Chamber of Court) topshirib, Xalqaro Sud tomonidan tayinlanadigan uch sudyaga qoshimcha ravishda har bir Tomon bittadan o'z sudyalarini tayinlashga kelishib oldilar. Natijada, Sud palatasi quyidagicha tashkil etildi: Prezident Guillaume; sudyalar Ranjeva, Kooijman; *ad hoc* sudyalar Bedjaoui

(Niger tomonidan tanlangan) va Bennouna (Benin tomonidan tanlangan).

Sud palatasi 1960-yil avgustida Fransuz G'arbiy Afrikasi tarkibiga kirgan ikki sobiq mustamlakalar o'rtasidagi tortishuvlarning geografik va tarixiy kontekstini qisqacha korib o'tganidan so'ng nizo bo'yicha qo'llaniladigan huquqni ko'rib chiqdi. Palata ikki tarafning kelishuvi ichida *uti possidetis iuris*, ya'ni mustamlaka davridan qolgan chegaralarning o'zgarmasligi prinsipining "asosiy maqsadi... mustaqillik erishilgan paytdagi hududiy chegaralarga bo'lgan hurmatni ta'minlash" ekanligini alohida qayd etdi. Shundan so'ng ikki tomon:

- 1) Niger daryosi hududidagi davlat chegaralarining belgilanishi;
- 2) Lete orolini o'z ichiga olgan Niger daryosidagi orollar bo'yicha yurisdiksiya;
- 3) Mekro daryosi hududidagi davlatlar chegarasining belgilanishi masalasining Sud palatasi tomonidan ko'rib chiqilishini so'radi.

II Xalqaro Sud palatasi qarorining ahamiyatga molik bandlari

Palata ishi jarayonida Niger daryosi sohilidagi chegara yo'li ko'rib chiqildi. Palata avval Tomonlarning da'volarni qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etgan turli xil tartibga soluvchi yoki ma'muriy hujjatlarni ko'rib chiqdi va "Tomonlarning hech biri mustamlaka davri mobaynida bunday egalikka oid hujjatlarni taqdim etishga qodir emas" degan xulosaga keldi. Qonuniy unvon (legal title) mavjud bo'lmanan taqdirda samaradorlik (*effectivités*) "har doim hisobga olinishi kerak" degan prinsipga muvofiq, Niger daryosidagi chegaralarni aniqlash va ushbu daryoda joylashgan orollar, xususan, Lété oroli kimga tegishli ekanligini aniqlash uchun Palata mustamlaka davrida vakolatni samarali tarzda amalga oshirishga oid Tomonlar taqdim etgan dalillarni ko'rib chiqdi.

1914–1954-yillarga oid ushbu dalillar asosida Palataga tegishli mintaqada Dahomey (fransuz mustamlaka davridagi Benin nomi) va Niger mahalliy ma'murlari o'rtasida vaqtinchalik kelishuv (*modus vivendi*) mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, har ikkala tomon ham daryoning asosiy navigatsiya qismini mustamlaka davridagi chegara deya tushunishgan. Palataning ta'kidlashicha, ushbu *modus vivendi* asosida Niger ma'muriyatি daryoning asosiy oquvchi kanalining (Lété orolini o'z ichiga olgan) chap tomonidagi orollar ustidan va Dahomey esa kanalning o'ng tomonida joylashgan orollar ustidan ma'muriy hokimiyatga ega bo'lgan. Palataning ta'kidlashicha, "Nigerning Lété orolini boshqarish huquqi vaqtı-vaqtı bilan amaliy sabablarga ko'ra shubha ostiga qo'yilgan, biroq unga oid na huquqiy, na faktlar bo'yicha ixtilof bo'lmanan". Gaya (Niger) shahri qarshisidagi orollarga qaraganda, Palata *modus vivendi* asosida ushbu orollar Dahomey yurisdiksiyasiga kirgan deb hisoblagan. Palataning fikriga ko'ra, daryoning ushbu sohasidagi chegara ushbu uchta orolning chap tomonidan o'tadi deb hisoblash lozim.

Biroq Palataga ko'ra 1954–1960 yillar orasidagi vaziyat unchalik ham aniq emas. Shunga qaramay, Tomonlar taqdim etgan dalillarga asoslanib, 1954-yilgacha Niger tomonidan amalga oshirilgan Lété orolining ma'muriy boshqaruvi Dahomeyga (hozirgi Benin) tomonidan haqiqatan ham o'tkazildi yoki shunday boshqaruvi Benin tomonidan amalga oshirildi degan xulosaga kelmadи.


Sud palatasi quyidagi xulosaga keldi: Benin va Niger orasidagi chegara ushbu davlatlar mustaqillikka erishgan paytda mavjud bo'lgan Niger daryosining asosiy navigatsiya kanali bo'yicha belgilanadi. Natijada chegara quyidagicha tushunilishi lozim: chegara Gaya shahrining qarshisidagi uchala orol yaqinida ularning chap tomonidan o'tadi deya tushunilishi lozim. Natijada Benin belgilanadigan chegaragacha bo'lgan va daryoning o'ng qirg'og'i oralig'idan joylashgan orollarga egalik qiladi. Niger esa daryoning chap qirg'og'i va chegara oralig'idagi orollarga egalik qiladi.

Tomonlarning mustaqillikka erishgan paytdagi chegaraviy chiziqning asosiy navigatsiya kanalidagi aniq joyini, ya'ni eng chuqur burg'ulash chizig'ini (*line of deepest soundings*) aniqlash maqsadida Palata 1970-yildagi tayyorlagan hisobotida hukumatning iltimosiga binoan shu holatga asoslanadi. Dahomey, Mali, Niger va Nigeriya hukumatlarining iltimosiga binoan Niderlandiyaning Muhandislik Konsalting (NEDECO) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan hisobotga tayanadi. Palata o'zining qarorida, Benin va Niger o'rtasidagi chegara o'tadigan 154 nuqtadagi koordinatalarini aniqladi. Boshqa tomondan, Léte Goungou Nigerga tegishliligi qayd etildi. Nihoyat, Tomonlar o'rtasidagi maxsus kelishuvda Palataga nisbatan Gaya va Malanvil orasidagi ko'priklardagi chegara chizig'ini aniqlash uchun yurisdiksiyaga berilgan degan xulosaga keldi. Shu sababli o'z vakolatidan foydalangan holda Palata ushbu tuzilmalar ustidagi chegara Niger daryosining chegaralari bo'yicha belgilanishiga qaror qildi.

Palata qarorning ikkinchi qismida Mekrou daryosidagi Benin va Niger o'rtasidagi chegaraning g'arbiy qismi bilan bog'liq holda o'z dalillarini qo'llab-quvvatlash uchun Tomonlar taklif etgan turli hujjatlarni ko'rib chiqdi. Natijada Niger o'zining da'vo qilayotgan chegarasini qo'llab-quvvatlash uchun 1907-yilgi huquqiy maqomga ega bo'lishiga qaramasdan, eng kamida 1927-yildan boshlab vakolatli ma'muriy organlar Mekrou daryosi oqimini Nigerni Dahomeydan ajratib turadigan chegarasi deb hisoblashgan. Ushbu ma'muriy organlar 1927-yildan keyin Tomonlar e'lon qilgan turli hujjatlarda chegara aks ettirilganini aniq ko'rsatib, ba'zilari esa, chegaralar borligiga ishora qilgan va bu holat 1960-yilning avgustida Tomonlar mustaqillikka erishgan paytdagi huquqiy holat bo'lgan.

Palata Mekrou daryosidagi Niger va Benin chegarasi daryo o'rtasidagi chiziq (median line) ekanligiga qaror qildi.

13-rasm. Niger daryosi xaritasi.



Ushbu nizo xalqaro huquqda chegara va nizoli hududlarga oid ishlarni hal etishdagi bir necha muhim me'yorlarning normativ xarakterini yoritganligi uchun diqqatga sazovor bo'lib, quyida uning muhim nuqtalarining bir nechasiga qisqacha sharh beramiz.

1. Hududiy nizolarni hal etishda *uti possidetis iuris* qoidasining roli.

"O'zingiz ega bo'lgan narsalarga egalikni davom ettirishingiz mumkin" (as you possess, so you may possess) degan Rim huquqidagi prinsipga asoslangan ushbu norma Ispaniyaning Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi eski mustamlakalarining mustaqillikka erishish paytida o'z chegaralarini aniqlash maqsadida qo'llanilgan. Bu qoida, mamlakatlarning hududiy chegaralarini aniqlab, ularni muvofiqlashtirish funksiyasiga egadir. Shundan so'ng *uti possidetis iuris* qoidasi Fransiyaning Afrikadagi mustamlakalari hisoblangan Niger va Benin o'rtaсидаги ко'rib chiqilayotgan qo'lingizдаги ushbu nizo, Burkino Faso va Mali davlatlari chegara nizosi, shuningdek Yugoslaviyaning parchalanishi paytidagi nizolarga ham qo'llanilgach, butun dunyoda qo'llaniladigan huquqning umumiy qoidasi darajasiga ko'tarildi.

Ushbu tamoyil urushayotgan tomonga urush natijasida olgan hududni da'vo qilish imkonini beradi. *Uti possidetis iuris* prinsipi ayni paytdagi egalikni himoya qilib, u mulkning qanday qo'lga kiritilganligiga qaramaydi. Shuningdek, *de jure* va *de facto* egalik o'rtaсидаги farqqa ham e'tibor bermaydi. E'tibor berish kerakki, mustamlaka davridagi ma'muriy chegaralar deyarli hech qachon aholi punktlari chegaralariga mos kelmagan va deyarli har doim ularni kesib tashlagan va natijada millatlar yangi davlatlar paydo bo'lgan ichida qamalib qolishiga sabab bo'lgan. Shu paytgacha, *uti possidetis iuris* barqarorlik va yakuniylik (stability and finality)ni qo'lga kiritish uchun bunday bir xil qo'llanishi millatlarning o'z taqdirini belgilash (self-determination) va chegara masalalari bo'yicha ko'plab da'volarni keltirib chiqardi. Boshqa tomondan bu tamoyil dekolonizatsiya jarayonida paydo bo'lgan yangi davlatlar tomonidan yuksak baholanadi, chunki bu ularning hududiy yaxlitligini kafolatlaydi. Bir necha yillar mobaynida ushbu prinsip hududlardagi chegaralarni tugatish, masalan, Yugoslaviya kabi vaziyatlarda chegaralarni nihoyasiga yetkazish uchun post-kolonial chegaralarga cho'zilgan va qo'llanilgan.

Xo'sh, agar mustamlaka davridan yangi chiqqan ikki yangi davlatning o'rtaсидаги aloqalar, *Uti possidetis iuris* prinsipiga asoslanmagan bo'lsa va ular orasidagi chegara masalalari yana ham murakkab bo'lsa, u qanday

yechilishi zarur degan haqli savol tug'iladi. Chunki garchi tandiqiy tomonlar ko'pligi qaramasdan, *Uti possidetis iuris* prinsipi huquqiy norma bo'lib, taraflarning kuch ishlatalish choralarini qo'llashdan saqlab turadi. Bunday holatlarda esa Xalqaro Sud samaradorlik doktrinasidan foydalangan.

Sir emaski, *uti possidetis iuris* prinsipi Sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlar uchun ham taalluqlidir. Chunki SSSR rasman tugatilib, uning o'rniqa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil etishni belgilagan 1991-yil 21-dekabrdagi Olmaota protokoliga muvofiq, sobiq ittifoqdoshlar har bir a'zo davlatning hududiy yaxlitligi va chegaralarining daxlsizligini tan olishgan va hurmat qilishga kelishib olishgan (*recognizing and respecting each other's territorial integrity and the inviolability of the existing borders*). Shunday ekan sobiq Sovet Ittifoqidan ajrab chiqqan davlatlar uchun ham *uti possidetis iuris* prinsipining ahamiyati juda ham katta. Faqat ushbu muammoning ijobiy tomonlarini korish bilangina cheklanmaslik darkor. Sababi xalqaro huquq bir paytning o'zida *uti possidetis iuris* prinsipi orqali hududlarning yaxlitligini yoki bo'linmasligini kafolatlasa-da, boshqa tomondan kamchilik millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipi (self-determination) masalasi ham borki, bu ikki prinsip hozirgi kunda nafaqat rivojlanayotgan dunyo mamlakatlari, balki G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika kabi dunyoning eng ilg'or davlatlarida ham jumboqli huquqiy masalalarni keltirib chiqarmoqda.

2. Samaradorlik (*effectivités*).

Benin va Niger o'rtasidagi ishda Lété oroliga egalik qilish masalasi bo'yicha yuqorida ko'riganidek, *uti possidetis iuris* prinsipi bilan muammo to'liq hal etilmay qolgan. Shunday paytlarda Sud samaradorlik (effectiveness) qoidasi yordami bilan qaror chiqarishga harakat qilgan. Samaradorlik qoidasi bo'yicha ma'lum bir hududni egallab turgan davlat yoki ma'muriyatning o'sha hududni tasarruf qilishga oid maqsadi bo'lishi talab etiladi. Oddiygina egalik qilish yetarli emas. Aslida mustamlakachilikdan ozod bo'lgan hududlarda *Uti possidetis iuris* prinsipi amal qilsa-da, uning yordamida ko'rib o'tilganidek, har doim ham huquqiy masalalar hal etilavermaydi. Buning sababi sifatida mustamlakachilikdan ozod bo'lish va undan keyingi qisqa davr mobaynida yangi vujudga kelgan davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy va o'zini-o'zi boshqarishga o'rganish holatlari barcha hudud bo'yicha samarali boshqaruvni amalga oshirish imkonini beravermaydi. Shunday paytlarda, ma'lum bir muddat ichida tortishuvli hudud ustidan kimning egaligi bo'lganligini aniqlash

masalasida *Uti possidetis iuris* prinsipi aniq javob bermaydi. Xalqaro Sud ham samaradorlik doirasini aynan shunday noaniqlik mavjud bo‘lgan vaqtarda *Uti possidetis iuris* prinsipiga yordamchi sifatida qo‘llagan. Sudning Benin va Niger davlatlari orasidagi nizo bo‘yicha chiqargan qarori shuning uchun ham katta ahamiyatga ega.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sizningcha, *Uti possidetis iuris* prinsipiga amal qilish lozimmi? Bu qoidaga amal qilishning ijobiylari va salbiy tomonlari haqida munozara yuriting.
2. *Uti possidetis iuris* prinsipiga amal qilmaslik qanday natijalarga olib kelishi mumkin deb hisoblaysiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. F.Spadi, The International Court of Justice Judgement in the Benin-Niger Border Dispute: The Interplay of Titles and ‘Effectivites’ under the *Uti possidetis iuris* Principle, 18 Leiden Journal of International Law p. 777 (2005).

VII. Xalqaro shartnomalar huquqi. Xalqaro shartnoma normalarini sharhlash: “Liviya va Chad o’rtasidagi hududiy mojaro”
Xalqaro Sud 1994-yil 3-fevral
ICJ. Territorial Dispute (Libyan Arab Jamahiriya/Chad)
(A.Umirdinov)

1) Nizoning yuzaga kelishi. Fransiya XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, o’z himoyasi ostida bo’lgan Chad va Aljirdan tashqari yerlarda ham protektoratini o’rnata boshladi. Xususan, Fransiya yeri sifatida G’arbiy Afrika va Fransuz Ekvatorial Afrikasi deb nomlanuvchi hududlarni tuzishga erishdi. Fransiya o’zi kabi Afrika mintaqasidagi ko’plab mamlakatlarda o’z protektoratini o’rnatgan Angliya bilan 1890-yildagi London deklaratsiyasini, 1898-yilda esa Parij konvensiyasini imzoladi va bu davlatlar protektoratliklari o’rnatilgan hududlarni o’zarotan oldilar. 1899-yildagi deklaratsiyada esa mazkur davlatlar o’z protektoratlari chegarasini shimoliy 15-parallel deb belgiladilar. Huddi shu tarzda, Fransiya 1900 va 1902-yillarda Italiya bilan o’z hududlari chegarasini Tripolitaniyagacha ekanligi borasidagi o’zaror rozilik xati almashinuvini amalga oshirdi. Italiya 1902-yilda Angliya bilan o’zaror xat almashinuvini amalga oshirishi natijasida chegaralarga nisbatan kafolatni qo’lga kiritish bilan birlashtirish, Usmonli turklar imperiyasi bilan urushda g’alaba qozonib Tripolitaniyada o’z hukumronligini o’tnatdi. Shuningdek, Angliya 1912-yilda Usmonli Turklar imperiyasiga qarshi tuzilgan va 1934-yildan boshlab Liviya deb nomlana boshlangan hududga nisbatan Italiyaning hokimiyati tan olindi.

Bundan tashqari, 1919-yilda Fransiya va Italiya o’zaror xat almashinuvini amalga oshirib, Toumoning g’arbida joylashgan Fransiya egallab turgan hududlar va Tripolitaniya o’rtasidagi chegaralarni belgilab oldilar. 1935-yilda esa Toumoning sharqida joylashgan Fransiya koloniyasini va Liviya o’rtasidagi chegaralarni belgilovchi shartnomani imzoladilar. Biroq ushbu shartnoma ratifikatsiya qilinmasdan qolib ketdi.

2) Nizoning kelib chiqishiga sabab bo’lgan omillar. Ikkinci jahon urushidan so’ng 1951-yilning 24-dekabrida BMTning 1949-yildagi 289-qaroriga asosan Liviya o’z mustaqilligini qo’lga kiritdi. 1955-yilda Fransiya bilan “Yaxshi qo’shnichilik va do’stlik shartnomasi”ni imzolab, Fransiya hududi bo’lgan Fransuz Ekvatorial Afrikasi bilan bo’lgan chegaralar to’g’risida kelishuvga erishdi. Mazkur shartnomani imzolash Fransiya uchun Angliya va Fransiya o’rtasida Toumo sharqidagi chegaralar kelishuvi hamda 1935-yildagi shartnomanining qo’llanilmasligini

Liviya tan oldirishni anglatar edi. Biroq ko‘p o‘tmay 1960-yil 11-avgustda Fransuz Ekvatorial Afrikasi tarkibida bo‘lgan Chad mustaqillikni qo‘lga kiritdi.

Liviya 1973-yilda Fransiya va Italiya shartnomasi (1935 yil) ga asoslanib, Chad chegaralariga yaqin bo‘lgan Auzo (Aouzou Strip) deb nomlanuvchi hududni bosib oladi. 1989-yilda Chad va Liviya o‘rtasida shartnoma tuzildi va ular agarda bir yil ichida nizoli vaziyat yuzasidan bir to‘xtamga kela olishmasa, mazkur nizoli masalani hal etish bo‘yicha Xalqaro Sudga murojaat qilishga kelishib oldilar (1989-yildagi shartnomaning 2-moddasi). Tomonlar natijada o‘larоq nizoli masala bo‘yicha bir to‘xtamga kela olmagach, 1990-yilning 31-avgustida Liviya Xalqaro Sudga bir tomonlama da’vo arizasi bilan murojaat qildi. Shu yilning 1-sentabrida Chad ham Xalqaro Sudga murojaat qildi. Xalqaro Sud ikki davlat o‘rtasida imzolangan, 1989-yildagi shartnomaga asoslanib, ishni korib chiqishni o‘z yurisdiksiyasiga oldi.


3) Nizolashuvchi tomonlarning da’volari. Liviya o‘sha vaqtgacha noma’lum bo‘lgan hududga bo‘lgan egalik huquqini belgilashni, ya’ni hududning tegishliligi to‘g‘risidagi masalani ko‘tardi. Fransiya bilan tuzilgan 1955-yildagi shartnoma hamda bir qancha xalqaro kelishuvlar ikki davlat o‘rtasidagi chegaralar masalasini butkul hal eta olmasligini ta’kidlab, bu hududda yashagan va hokimiyatga ega bo‘lgan tub aholi Senoussi diniy jamoasi hamda Usmonli turklar imperiyasi, Italiyadan qolgan vakolatlarning unga o‘tganligini asos qilib Auzoga nisbatan egalikni talab etdi. Aksincha, Chad esa, ikki davlat o‘rtasida allaqachon chegaralar belgilanganligi, ushbu ishda hal etilishi lozim bo‘lgan masala chegara chiziqlarini aniqlashtirish ekanligi va 1955-yilgi shartnomaga asoslanib uning huquqlari aniqlashtirilishini talab etdi.

4) Sudning xulosasi. Xalqaro Sud o‘z xulosasida, Chad va Liviya o‘rtasidagi chegaralar 1955-yilgi shartnoma bo‘yicha allaqachon belgilanganligi to‘g‘risidagi Chadning da’volarini qo‘llab-quvvatladи. Auzo hududi Chad tarkibiga kirishini belgiladi.

1) Shartnomani talqin qilish.

Nizolashuvchi ikki davlat Xalqaro Sud hal etishi lozim bo'lgan masala, 1955-yildagi shartnomaga borib taqalishini e'tirof etadilar. Shu sababdan ham, sud ushbu shartnoma davlatlar o'rtaisdagi chegarani belgilab berishi yoki bermasligini aniqlashtirish uchun shartnomaning 3-moddasi hamda shartnomaga qo'shimcha 1-son protokolni ko'rib chiqadi. Shartnoma 1969-yilgi "Shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasining 31-moddasidagi odad huquqiga ko'ra shartnoma matnidagi atamalarga berilgan oddiy ma'nodan, shartnomaning maqsadi va obyektidan kelib chiqib, vijdonan sharhanishi, ayniqsa, shartnoma moddalariga asoslangan holda talqin etilishi lozim. Shuningdek, qo'shimcha vositalar sifatida shartnomani tayyorlash va tuzish paytidagi holatlar ham hisobga olinishi mumkin.

14-rasm. Auzzo hududi xaritasi.



CAMEROON CENTRAL AFRICAN REPUBLIC

2) 1955-yilgi shartnomaning talqini. 1955-yildagi shartnoma-ning 3-moddasiga ko'ra, ahdlashuvchi mamlakatlar "Davlat chegarasi aniq belgilangan xalqaro hujjatlarga asoslanganligi va ularning natijasi ekanligini tan oladilar" deb belgilaydilar. Shartnomada tilga olingan "tan olmoq" so'zi davlatlarga huquqiy majburiyat yuklaydi va davlat chegarasini tan olish mazkur chegaragacha bo'lgan hududni qabul qilishni ham anglatib, kelajakda bu chegaralar borasida nizolashish huquqidan voz kechishini anglatadi.

Liviya 1955-yildagi shartnoma avvaldan mavjud bo'lgan ikki davlat o'rtaisdagi chegaralarning tan olinganligini anglatib, boshqa bir chegaralarni tasdiqlamagan deb da'vo qiladi. Shuningdek, Liviya 1-son qo'shimcha protokoldagi Angliya bilan 1899-yilda tuzilgan shartnoma qoidalari shimoliy 15-paralleldagi protektorat doirasininga belgilaydi va chegara ma'nosini anglatmaydi deb hisoblaydi. Biroq davlat chegaralari to'g'risidagi rozilik Liviyaning erk-irodasi bo'lib, o'sha vaqtida chegara bo'limgan hududni chegara sifatida tan olish imkonini beradi.

1955-yildagi shartnomaning 3-moddasida davlat chegaralari 1-son qo'shimcha protokolda keltirilgan xalqaro hujjatlarga asoslanishi belgilangan bo'lib, bu barcha chegaralar qo'shimcha protokolda keltirilgan xalqaro

hujjatlarga asoslanishini bildiradi. Bundan boshqacha tarzda talqin qilish shartnomaning asl matni va ma'nosiga zid bo'lishi bilan birgalikda qo'shimcha protokolda keltirilgan xalqaro hujjatlar haqidagi matnning ma'nosini butunlay yo'qqa chiqaradi. Yuqoridagi modda ikki davlat o'rtaсидаги барча chegaraviy masalalarni hal etishni ko'zlagan normadir.

1955-yildagi shartnoma davlat chegaralarini belgilab beruvchi shartnoma ekanligi haqidagi Sudning xulosasi shartnomani tuzishdagi hamda shartnomanini tayyorlash holatlari nuqtai nazaridan ham muvofiq xulosa ekanligini ko'rish mumkin.

3) Davlat chegaralari xavfsizligi tamoyili. 1955-yilgi shartnomaning amal qilish muddati yigirma yil qilib belgilanishiga qaramay, ushbu shartnomada kelishilgan aynan davlat chegarasi kabi muhim masala vaqtinchalik hal etilayotganligiga oid ko'rsatma mavjud emas. Ahdlashuvchi mamlakatlar shartnomani tugatish haqida kelishsalar ham davlat chegaralari o'zgarmay qolaveradi. Chunki chegaralar bo'yicha bir marta kelishuvga erishilsa, u doimiylik kasb etadi. Agarda bunday bo'lmasa, davlat chegaralarining daxlsizligi tamoyiliga katta putur yetishiga olib keladi.

Sud qaroriga sharh

1) Mazkur ishda Liviya hamda Chadni o'z protektoratiga olgan Fransiya o'rtaсидада 1955-yilda tuzilgan shartnomaning talqin qilinish masalasi nizoning asosini tashkil etdi. Bunda shartnoma bandlarini talqin qilishda o'sha vaqtida nafaqat olimlar orasida, balki Xalqaro Sudda ham shartnoma matniga asoslanib talqin qilish (grammatik sharplash usuli yoki so'zma-so'z sharplash usuli), shartnoma taraflarining xohish-irodasi ustunligi (taraflar xohishi bo'yicha sharplash usuli) yoki bo'lmasa, shartnomaning maqsadiga asoslanib uni talqin qilish (teleologik (maqsadli) sharplash usuli) masalasida juda ko'p fikrlar qarama-qarshiligi yuzaga keldi¹. 1969-yilgi Vena konvensiyasida, matnga asoslanib talqin qilish tamoyilini asosiy o'ringa qo'yuvchi shartnomalarni talqin qilishga doir xalqaro odat huquqi qoidalari kodekslashtirilgan bo'lsa-da, Xalqaro Sud ko'pchilikning fikriga ko'ra shartnomalarning aniq bo'lgan sharplash qoidalariiga asoslanishni afzal ko'rди. Shunga qaramay Vena konvensiyasi qabul qilinganidan 20 yil o'tib, 1989-yilda "Arbitraj qarori ishi"da Xalqaro

¹ Yuqoridagi kabi shartnomanini talqin qilishda qaysi usuldan foydalanish samaraliroq yoki ularning qay biri ustunligi to'g'risidagi fikrlar qarama-qarshiligini Janubiy-g'arbiy Afrikaning xalqaro statusi to'g'risidagi ishda hamda Namibiya ishida ham ko'rish mumkin.

Sud Vena konvensiyasining 31, 32-moddalarida belgilangan xalqaro shartnomalarni talqin qilish qoidalari bu xalqaro odat huquqi qoidalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yuqoridagi moddalar xalqaro odat huquqi qoidalari kodifikatsiya qilingan shakli ekanligini tan oldi. Mazkur biz ko'rib chiqayotgan ishda ham Xalqaro Sud 1989-yildagi pozitsiyada turdi. Keyinchalik Xalqaro Sudning 31-32 moddalar bo'yicha pozitsiyasi keng tarqalib bordi.

2) Xalqaro shartnomalarni sharhlash bo'yicha umumiyligi qoidalarni belgilovchi Vena konvensiyasining 31-moddasi: matnli sharhlash, tizimli sharhlash, tarixiy, shartnomaning obyekt va maqsadiga ko'ra sharhlash asoslarini belgilab beradi¹. Biz ko'rib chiqayotgan ishda ham Xalqaro Sud yuqoridagilarga asoslanib, 1955-yilgi shartnomaning 3-moddasini talqin etdi.

Shuningdek, Vena konvensiyasining 32-moddasida shartnomani imzolash vaqtidagi holatlar va shartnomani tayyorlash jarayonidagi shartnomalarni sharhlash bo'yicha qo'shimcha vosita sifatida qo'llash mumkinligi haqida so'z ketadi². Bundan tashqari, 32-moddadagi vositalar, 31-modda qoidalariiga asoslanib shartnoma talqin qilinganda ham shartnoma qoidalarining asl mazmunini aniqlashning iloji bo'limgan taqdirda ham qo'llaniladi. Ushbu ishda Xalqaro Sud nizoli vaziyatni hal qilishda, 31-modda qoidalardan tashqari shartnomani imzolash vaqtidagi

¹ 1969-yilgi Vena konvensiyasining rasmiy o'zbek tilidagi tarjimasi mavjud bo'limganligi sababli, ko'pchilik talabalarga tushunarliroq bo'lgan rus tilidagi konvensiya matnnini taqdim etishga qaror qilindi.

Статья 31 Общее правило толкования

1. Договор должен толковаться добросовестно в соответствии с обычным значением, которое следует придавать терминам договора в их контексте, а также в свете объекта и целей договора.

2. Для целей толкования договора контекст охватывает, кроме текста, включая преамбулу и приложения:

a) любое соглашение, относящееся к договору, которое было достигнуто между всеми участниками в связи с заключением договора;

b) любой документ, составленный одним или несколькими участниками в связи с заключением договора и принятый другими участниками в качестве документа, относящегося к договору.

3. Наряду с контекстом учитываются:

a) любое последующее соглашение между участниками относительно толкования договора или применения его положений;

b) последующая практика применения договора, которая устанавливает соглашение участников относительно его толкования;

c) любые соответствующие нормы международного права, применяемые в отношениях между участниками.

4. Специальное значение придается термину в том случае, если установлено, что участники имели такое намерение.

Статья 32 Дополнительные средства толкования

Возможно обращение к дополнительным средствам толкования, в том числе к подготовительным материалам и к обстоятельствам заключения договора, чтобы подтвердить значение, вытекающее из применения статьи 31, или определить значение, когда толкование в соответствии со статьей 31:

a) оставляет значение двусмысленным или неясным; или b) приводит к результатам, которые являются явно абсурдными или неразумными.

holatlar hamda shartnomani tuzishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonini ham hisobga oldi. Ushbu ishda yana bir qiziqarli holat mavjudki, sud 32-modda qoidalariiga asoslanganiga qaramay, Liviya tomonining shartnomasi imzolash vaqtidagi tashqi aloqalarni olib borishda Liviyaning yetarli darajadagi ko‘nikmaga ega bo‘limganligini vaj qilib keltirganida esa sud uning bu da’vosini aniqlashtirish bilangina chegaralanib, hisobga olinishi lozim bo‘lgan holat sifatida tan olmadi.

3) Mazkur ishda xalqaro shartnomani talqin qilishda, Xalqaro Sud Vena konvensiyasida yoritilmagan yana bir tamoyilga katta e’tibor qaratdi:

a) Ta’sirchanlik tamoyili. Ushbu tamoyil “biror-bir narsani tasdiqlash, uni tasdiqlamagan holatidan ko‘ra yaxshiroq” (*Ut res magis valeat quam*

15-rasm. Chad askarlari Toyota avtomobilida chegara himoyasiga



preat) degan qoidaga asoslangan bo‘lib, Muvaqqat Xalqaro Sud davridan sud qarorlarida qo‘llab-quvvatlab kelingan. Shuning uchun Xalqaro Sud 1955-yilgi shartnomaning 3-moddasini ikki davlat o‘rtasidagi davlat chegaralarini belgilagan deb hisoblab, 3-moddani o‘zgacha tarzda sharhlash moddaning asl mazmuni hamda yuqoridagi tamoyilga zid kelib qoladi degan to‘xtamga keldi.

b) Davlat chegaralarining daxlsizligi tamoyili. Mazkur tamoyilga ko‘ra davlat chegarasi bir marta aniq belgilangandan so‘ng, nihoyasiga yetgan va tugallangan deb topiladi¹. Albatta, chegaralarni belgilovchi shartnomalar tugatilgan taqdirda ham chegaralar o‘zgarmay qolaveradi. Davlat chegaralarining bunday huquqiy tabiatni xalqaro shartnomalar huquqi nuqtayi nazaridan davlat chegaralarini belgilovchi xalqaro shartnomalarning disposal xarakteri sifatida tushuntiriladi. Ushbu ishda 1955-yilgi xalqaro shartnomaning tugatilishi davlat chegaralariga umuman daxl qilmasligi belgilandi. Xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasida davlat chegaralari daxlsizligi tamoyili belgilanmagan bo‘lsa-da, 62-moddaning 2-band, 70-modda 1-bandining a qismi bo‘lmasa, “Davlatlarning huquqiy vorisligi to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasining 11-moddasi qoidalardan davlat chegaralarining daxlsizligi tamoyiliga aloqador normalarni topish mumkin.

¹ Preah Vihear ibodatxonasi ishi. 1962-yil ICIJ xisoboti, 34-35 betlar. Preah Vihear ibodatxonasi ishi bo‘yicha Mazkur kitobning 1-bobiga qarang.

4) Liviya va Chad ishidan keyin Xalqaro Sud deyarli barcha xalqaro shartnomalarni talqin qilishda, Vena konvensiyasini sharhlash qoidalariga asoslanib, nizolashayotgan davlatlar tomonidan shartnomalarni sharhlash bilan bog'liq bo'lган muammolarni hal qilishda qo'llanilgan talqin qilish usullaridan foydalanib kelindi. Ushbu sharhlash qoidalarining kodifikatsiyalanishi farqlanuvchi sharhlash usullari o'rtasidagi qaramaqarshiliklarni inobatga olganligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi Xalqaro Sud, Ad-hoc arbitrajlarini o'z ichiga oluvchi har bir xalqaro sudlov organlari va har bir davlatning ichki sndlari tomonidan sharhlash qoidalarining tatbiq etilishi, xalqaro sharhlash qoidalarini kodifikatsiyalashning natijasi sifatida baholash mumkin. Boshqa tomonidan sharhlash qoidalari sharhlovchining doimiy bir xil tarzdagi normalarni sharhlashini anglatmaydi. Shu sababli ham sharhlashda amal qilinishi lozim bo'lган tamoyillar va ularning o'zaro aloqadorligi borasida avvaldan bahslar mavjud. Shuningdek, mazkur ishdagi ta'sirchanlik hamda davlat chegaralari daxlsizligi tamoyillarining keltirilishidan Vena konvensiyasining sharhlash qoidalari va unda hisobga olinishi lozim bo'lган holatlар har doim ham shartnoma normalarini oydinlashtirishda asos bo'lmas ekan. Shu sababli Vena konvensiyasining sharhlash qoidalari Xalqaro Sud tomonidan tanqid ostiga olingan ishlар ham mavjud¹.

5) Ushbu ish bo'yicha sud qarori chiqqanidan so'ng nizolashayotgan davlatlarga sud qarorini ijro etish maqsadida BMTning kuzatuvchilari yuborildi va ular kelishuvga erishdilar. 1994-yil 4-may kuni Xavfsizlik Kengashining 915-sonli rezolyutsiyasi qabul qilinib, BMTning Auzou kuzatuv guruhi (UNASOG)ga yuborildi. Buning natijasida, Liviya may oyining 31-sanasida Auzo hududini Chadga qaytarib berdi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro shartnomalarni sharhlashning qanday turlarini bilasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi sndlari tomonidan chiqarilayotgan qarorlarda qonun normalari yetarli darajada talqin etilyapti, deb o'ylaysizmi?
3. Davlat chegaralari daxlsizligidan tashqari yana qanday xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillarini bilasiz?

¹ Masalan: Kasikili/Sedudu Island (Botswana/Namibia), Xalqaro Sud hisoboti 1999-yil, p. 11-18.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati

1. G.J.Naldi "Case concerning the Territorial Dispute (Libyan Arab Jamahiriya/Chad)", ICLQ, Vol. 44 (1995), p. 683.
2. Torres Bernardes Santiago, "Interpretation of Treaties by the International Court of Justice following the Adoption of the 1969 Vienna Convention on the Law of Treaties", in Liber Amicorum Professor Ignaz Seidl-Hohenveldern (Kluwer, 1998), p. 721.

**VIII. Xalqaro tashkilotlar huquqi. BMT xizmatini amalga oshirishda
ko‘rilgan zararlar uchun kompensatsiya to‘lash bo‘yicha nizo,
Xalqaro Sudning konsultativ xulosasi, 1949-yil**
*(Reparation for Injuries Suffered in the Service of the United Nations,
Advisory Opinion: ICJ Reports 1949, p.174)*

(A.Umirdinov)

1. Faktlar. 1948-yilda Yaqin sharqdagi Falastinda Isroilning mustaqil davlat sifatida e’lon qilinishi natijasida Birinchi Yaqin Sharq nizosi boshlandi. BMTning Yaqin Sharq mojarosi bo‘yicha mediatori sifatida jo‘natilgan graf Folk Bernadotte (Shvetsiya fuqarosi) va BMTning Falastindagi missiyasi a’zolari Quddusning yahudiylar yashovchi qismida o‘z vazifalarini amalga oshirish paytida qurban bo‘ladi. BMT Bosh kotibi, vafot etganlar va yaradorlar oilasi uchun kompensatsiya va dori-darmonlar xarajatlari to‘langanini aytsa-da, BMT Bosh Assambleyasida BMTning tashkilot sifatida Isroildan kompensatsiya talab qila olishi yoki olmasligi bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Shundan so‘ng quyidagi savollar bo‘yicha Xalqaro Sudning konsultativ xulosasini (Advisory Opinion) olish masalasi ko‘tarildi:

1.1. BMT xodimi o‘zining xizmat vazifasini bajarayotgan paytda ma’lum bir davlatning javobgarligini keltirib chiqaradigan darajada zararga uchragan bo‘lsa, BMT tashkilot sifatida javobgarlik yuklanadigan *de jure* yoki *de facto* hukumatga nisbatan: a) BMT ko‘rgan zarar haqida, b) zarar qurban ni bo‘lgan inson yoki o‘sha insonga aloqador shaxslar uchun kompensatsiya undirish to‘g‘risida xalqaro da’vo (*international claim*) qo‘zg‘atish layoqatiga (*capacity*) egami?

1.2. Agar yuqoridagi 1-holat yuzasidan b) bo‘yicha ijobiy javob beriladigan bo‘lsa, BMTning xatti-harakatini Quddusda zararga uchragan fuqarolarning davlatlarida mavjud bo‘lgan huquqlari (bu yerda Shvetsiya) bilan qanday qilib moslashtirish (*adjust*) lozim?

Xalqaro Sud a) bo‘yicha bir ovozdan, b) bo‘yicha 11 taga 4 ta qarshi ovozda ijobiy javob berdi. 2-savolga esa 10 taga 5 ta qarshi shaklida javob berib, BMT va unga a’zo davlat ushbu muammoni yaxshi niyat asosida hal etishi lozimligini ta’kidladi. Ushbu konsultativ xulosaga tayangan BMT Isroilga nisbatan kompensatsiya talab qilishi natijasida Isroil davlatidan rasman uzr so‘rab, kompensatsiyani to‘lab berdi.

2. Sudning konsultativ xulosasi mohiyati

2.1. "Xalqaro da'vo qo'zg'atish layoqati"ni umumiy o'rghanish.

Bu ishdagi muammo – da'vo qo'zg'atish layoqati masalasi bo'lganligi sababidan sud, avvalo, ushbu "layoqat" nimani anglatishini aniqlab, so'ngra umuman olganda tashkilotning xarakteri xalqaro da'vo qo'zg'atish layoqatiga egami yo'qmi degan masalani hal etish uchun ushbu tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Xalqaro da'voni qo'zg'atish layoqati deganda xalqaro da'voni qo'zg'atish uchun xalqaro huquq tomonidan tan olingan odatiy usullarga (norozilik bildirish, tekshirishning talab etilishi, muzokara yoki ishni ko'rib chiqish uchun arbitrajga murojaat qilish talabi kabi) murojaat etish tushuniladi. Biroq BMT Nizomida, BMTga a'zo davlatlarga nisbatan ushbu Nizomni hurmat qilishni talab etish huquqi tashkilotlarga ham berilganmi? Boshqacha aytganda, ushbu savol aslida 'tashkilotlarning xalqaro subyektliligi (*international personality*) mayjudmi?" muammosiga borib taqaladi. Sud esa "xalqaro subyektlilik" tushunchasini – "tashkilotlar xalqaro subyektlilikka egaligi tan olinadigan bo'lsa, unda tashkilotlar ham davlatlarga yuklatiladigan majburiyatlarni egallay oladigan qobiliyatiga ega tuzilma" sifatida talqin etiladi.

16-rasm. BMT agenti Graf Folke Bernadotting Quddusdag'i o'limini e'lon qilgan gazetadan.



Xalqaro Sud BMT Nizomining maqsadi, davlatlardan farqli bo'lgan tashkilotlarning tashkiliy shakli va huquqiy maqomi va yuqoridagilarni tasdiqlaydigan xalqaro shartnomalar tuzish amaliyotini tekshirib chiqqan holda o'z xulosasini quyidagicha bayon qiladi.

Sudning fikricha, juda keng xalqaro subyektlilik va xalqaro maydonda muomala layoqatini aniqlash anchagina murakkab masala. Biroq BMT o‘zining xalqaro maydondagi barcha vazifasini ijro etib kelgan. Shuningdek, amaliyot ko‘rilganda ham BMT o‘z vazifalarini haqiqatan ham yetarli darajada bajarib, shu bilan birgalikda xalqaro maydonda faqatgina ungagina taalluqli bo‘lgan huquqlarni qo‘lga kiritib kelgan. Agar unda xalqaro subyektlilik bo‘limganda edi, BMTga asos solgan davlatlarning xohishi amalga oshmagan bo‘lar edi. O‘scha a’zo davlatlar BMTga ma’lum bir vazifani va o‘scha vazifaga aloqador majburiyatni va mas’uliyatni yuklash orqali BMTning o‘z vazifasini munosib ravishda amalga oshirishi uchun zarur vakolatlar taqdim etilganligi tan olinishi lozim.

Shunday qilib, Sud “xalqaro tashkilotlar – xalqaro subyektdir” degan xulosaga keladi. Bundan anglashiladiki, “BMT xalqaro huquqning subyekti bo‘lib, xalqaro darajadagi huquq va majburiyatlarni qo‘lga kirit oladi, shuningdek xalqaro da’vo orqali ushbu huquqlarini talab qila oladigan huquq layoqatiga ega”dir.

1.1. Ushbu ishdagi xalqaro da’vo qo‘zg‘atish huquqi: indamasdan tan olingan vakolat (implied power) qoidasining tasdiqlanishi va tatbiq etilishi.

Keyingi ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan masala bu – xalqaro tashkilotning huquqlari tashkilotning o‘z vazifalarini bajarish uchun vakolatga ega bo‘lgan xodimi ko‘rgan zarar uchun, zarar yetkazgan davlatga nisbatan xalqaro da’vo qo‘zg‘atishni o‘z ichiga oladimi yoki yo‘qmi degan savoldir. Sudning fikricha, davlatlar xalqaro huquq tomonidan tan olingan huquq va majburiyatlarning hammasiga ega bo‘lib, tashkilotlarning moddiy huquq va majburiyatlari esa o‘scha tashkilotni tuzishga oid nizomda aniq qilib yoki nazarda tutilgan (*implied*) bo‘lsa, yoinki odatning yordami bilan rivojlantirilgan tashkilotning maqsadi va vazifasiga bog‘liq bo‘ladi.

a) masalasi bo‘yicha, tashkilotning xodimi bir vaqtning o‘zida zararga uchragan bo‘lsa, ushbu holat tashkilot uchragan zarar bo‘yicha kompensatsiya holatiga taalluqli bo‘lib, tashkilot bunday turdagи xalqaro da’volarni qo‘zg‘ata olish layoqatiga egaligiga shubha yo‘q.

b) masalasi esa Isroildagi xatti-harakat qurbaniga aylangan xodimning ko‘rgan zarariga oiddir. Sud bu nuqtada yangi holat bilan yuzma-yuz kelayotganligi sababli xalqaro huquq prinsiplari bilan talqin qilinadigan BMT Nizomining tegishli moddalarining tahlili talab etiladi. Nizom esa BMTga zarar ko‘rgan xodimlari orqali huquqlarga ega bo‘lgan insonlar

(qurban bo'lgan xodim qarindoshlari) uchun ushbu tashkilotga *aniq shaklda* zararni undirishga oid vakolatni taqdim etmagan. Lekin, nizomda aniq qilib aytilmagan bo'lsa-da, xalqaro huquq bo'yicha BMT majburiy shartlar asosida o'z vazifalarini ado etishi uchun shart bo'lgan vakolatlarga ega deb hisoblanishi kerak. Tashkilot maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda o'z xodimlarini turli xavfli ishlarga yuborib turadi. Tashkilotga yuklatilgan vazifaning o'ziga xosligi va uning xodimining hayoti masalasini inobatga olgan holda, ushbu xodimining funksional himoyasini amalga oshiruvchi tashkilotda shunday layoqatning BMT Nizomida mavjudligi aniqdir.

1.2. Da'vo qo'zg'atilgan davlatning BMTga a'zo bo'limganlik holati: obyektiv xalqaro huquqiy subyektlilik

O'ziga nisbatan da'vo qo'zg'atilgan davlat agar BMTga a'zo bo'limgan bo'lsa, shunday holatda ushbu davlat asosli ravishda xalqaro tashkilotning da'vo qo'zg'atish layoqati mavjud emasligiga e'tiroz bildira oladimi? Sud esa xalqaro hamjamiyatning aksariyat qismini tashkil etuvchi ko'p sondagi a'zo davlatlarning BMT uchun xalqaro da'vo qo'zg'atish layoqatini beribgina qolmay, obyektiv xalqaro shaxs (*objective international personality*)ga ega bo'lgan tashkilotni tashkil etgan deb ham hisoblaydi. Shu sababli, 1.a) masalasida bo'lgani kabi; Sud b) masalasi bo'yicha ham ijobiy javob berdi.

2. Qurban bo'lgan shaxsning davlati amalga oshiruvchi diplomatik himoya va qurban bo'lgan shaxsni yollagan xalqaro tashkilot o'rtaсидаги ushbu nizoga munosabat bo'yicha Sud quyidagicha xulosaga keldi. Davlatga tegishli diplomatik himoya va tashkilotga tegishli funksional himoya o'rtaсида tortishuv vujudga kelganda, ikkala tarafдан biriga o'zining da'vosini qaytarib olishni yuklovchi xalqaro qoida mavjud emas. Shunga qaramay ushbu ishdagi tegishli tomonlar yaxshi niyat va samimiyyat bilan ushbu ishni hal eta olishadi. Chunki a'zo davlatlar ham shu paytgacha bunday ishlarni xalqaro shartnomaga tuzish orqali hal etib kelishgan va bunday ishlarning soni talaygina. Shu bilan birga, agar zararga uchrangan xodim o'z davlati tomonidan zararga uchratilgan bo'lsa-da, ushbu zararni undirishda tashkilot xodimining fuqaroligiga emas, balki uning o'z xodimi ekanligi jihatidan harakat qiladi. Shu sababli ham xalqaro tashkilot tomonidan qo'zg'atiladigan zararni undirishga oid da'volar zararga uchrangan xodimning fuqaroligi masalasi bilan bog'liq emas.

3. Konsultativ xulosaga sharh

3.1. Xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquqdagi o'rni

Birlashgan Millatlar Tashkiloti deb yuritiladigan dunyodagi eng nufuzli xalqaro tashkilotning barpo etilishi yuzasidan hujjat bo'lmish BMT nizomida uning xalqaro huquq subyektligiga oid norma mavjud emas. Nizomning 104-moddasi va BMTning imtiyozlari va immunitetiga oid konvensiyasida esa ichki huquqdagi subyektligiga oid norma mavjud, xolos. Bunday holatni esa BMT tashkil etilayotgan paytda xalqaro huquqdagi yagona subyekt bu DAVLAT degan tushuncha juda ham keng yoyilgan bo'lgani, BMT Nizomini tuzish jarayonida BMTni davlatlardan ham kuchli (*super-state*) tashkilot sifatida tuzishga oid norozililar kuchli bo'lgani bilan izohlash mumkin. Shunga qaramay konsultativ xulosaning berilishi natijasida xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquqdagi o'rni bo'yicha ilmiy izlanishlar ham yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarilib, hozirda eng kamida BMT kabi umumjahon tashkilotlarning xalqaro huquq subyekti ekanligi va shu bo'yicha ularning xalqaro subyekt ekanligi bo'yicha nazarda tutilgan prinsip borligiga oid fikr xalqaro hamjamiyatda katta mavqega ega.

3.2. Xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq subyektliliginining ahamiyati.

Ichki (mahalliy) huquqdagi yuridik shaxslarga oid normalar qonun va qonunosti hujjalarda aniq qilib belgilanligiga qaramasdan xalqaro huquqda bunday aniqlik, afsuski, mavjud emas. Shunday holatdagi xalqaro huquqda subyektlilik masalasini qanday hal etish lozimligi, ushbu chigal huquqiy masalani hal etishda muhim boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Sud BMT Nizomida tashkilotga berilgan maqomni yaxshilab o'rganib chiqqan holda oxir-oqibat ijobiy xulosaga keldi. Bizningcha, ham ushbu xulosa o'rinli bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, Sud xalqaro huquqning subyekti (*subject of international law*) xalqaro huquq va majuburiyatlarga ega bo'lib, o'zi ega bo'lgan huquqlarga tayangan holda xalqaro da'vo qo'zg'ata oladi, degan izohdan boshqasini bermagan. Shu sababli Sudning qisqa tarzda bayon qilingan xulosasi, huquq subyektining ahamiyati va uning xalqaro shaxs (*international person*) bilan aloqadorligi masalalarini yetarlicha yoritmasdan tushunmovchiliklarga sabab bo'lib, keyinchalik tanqid qilingan. Misol uchun, xalqaro huquq bo'yicha ko'zga ko'ringan olimlardan Sands va Kleinlar, Sudning "xalqaro tashkilotlar shartnomasi tuzish layoqatiga ega, shuning uchun ularni subyekt sifatida tan olish lozim. Aynan ushbu subyektliligidan xalqaro da'volarni qo'zg'ata

olish vakolatini keltirib chiqqarganligini” sirkulatsion fikrlash (*circular reasoning*) deya tanqid ostiga olishadi¹. Chunki sirkulatsion fikrlash bir munozara asosini yana o‘ziga qaytarib olib keladigan mantiqiy jarayondir. Biroq Sud ushbu konsultativ xulosasida bunday fikrlamagan. Bundan tashqari, shu paytgacha taklif etilgan nazariyalar orasida BMTga a’zo davlatlardan mustaqil bo‘lgan tashkiliy shaklga ega xalqaro tashkilotning mavjudligi faktiga asoslangan holda uning xalqaro subyekt ekanligini tan olib, tashkilotning ta’sis hujjatida belgilangan vakolatlarning borligi yoki yo‘qligini inobatga olmagan holda, xalqaro tashkilotlarda ma’lum bir vakolatlarning mavjudligini (shartnomalar tuzish vakolati, hududiy yurisdiksiya, elchilik missiyalarini jo‘natish va qabul qilish, ko‘rilgan zararni undirish da’vosini qo‘zg‘atish kabi) da’vo qiladigan nazariyalar mavjudligini ham inkor etmaslik lozim. Ammo ularni ko‘pchilik qo‘llab-quvvatlamaydi.

Shu bilan birga, davlatlar emas, balki xalqaro tashkilot tomonidan biror bir shaxsga zarar berilsa, u masala qanday hal etiladi degan muammoli savol ham mavjud. Biroq Sud bu masala bo‘yicha konsultativ xulosada o‘z fikrini bayon etmagan.

3.3. Xalqaro tashkilotga a’zo bo‘lmagan davlat va xalqaro subyekt munosabati.

Odatda, xalqaro tashkilotlar davlatlar o‘rtasidagi shartnomalar asosida tashkil etiladi va shartnomalar uni tuzuvchisi bo‘lmagan uchinchi bir davlat uchun majburiyatlarni yuklay olmasligi Xalqaro shartnomalar huquqiga to‘g‘risidagi Vena konvensiyasining asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi². Shu sababli bunday vaziyatlarda uchinchi davlatning roziligini olish talab etiladi. Xalqaro Sudning huquqiy asosini ko‘rsatmagan holda xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq subyekti ekanligini tan olgan Konsultativ xulosasi esa shu jihatdan xalqaro huquqqa davlatlarning xohishi nuqtayi nazaridan yondashuvchilar uchun “oddiygina bir da’vo”dan boshqasi emas deya tanqid qilingan. Shunga qaramay, xalqaro hamjamiyatning muassasa doirasida ommalashuvi kuchayib borayotgan bugungi kunda, BMT yoki ma’lum bir masalalar bo‘yicha xalqaro tashkilotlarining xalqaro huquq subyekti ekanligini hech qaysi bir davlat inkor etmaydi. Shu ma’noda, umumjahon xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq subyekti ekanligi bo‘yicha obyektiv qarash bo‘yicha xalqaro odat huquqi vujudga keldi, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak.

¹ P.Sands, P.Klein, *Bowett’s Law of International Institutions*, 6th ed, 2009, p.476

² Vena Konvensiyasi, 34-modda. Статья 34 Общее правило, касающееся третьих государств Договор не создает обязательств или прав для третьего государства без его на то согласия.

Ammo ushbu xulosani ma'lum bir hududiy (regional) tashkilotlar bilan aloqasida manfaatlari mos tushmaydigan uchinchi davlatlar bo'yicha da'vo qilish anchagina qiyin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro tashkilotlarga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarlikka tortilishlarini yuqoridagi sud ishida ko'rib chiqdik. Sizningcha, davlatlarga yoki shaxslarga yetkazilgan zarar uchun xalqaro tashkilotlar ham javobgarlikka tortilishlari zarurmi?
2. BMT o'z qoshida bo'lgan Xalqaro Sudga da'vo bilan chiqishi va ish aynan Xalqaro Sud tomonidan ko'rib chiqilishi adolatlimi?
3. Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi masalasida qaysi sudlar yurisdiksiyasini belgilashi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Portmann, Legal Personality in Internaitonal Law, 2010.

**IX. Xalqaro-huquqiy javobgarlik. Amerika Qo'shma Shtatlarining
Tehrondagi diplomatik va konsullik vakillari bo'yicha**
Xalqaro Sud qarori 1980-yil 24-may
*(United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran, Judgement,
ICJ Reports 1980, p.3)*

(A.Umirdinov)

Nizoning vujudga kelishi. Xalqaro hamjamiyatda neft qazib oluvchi davlatlarning o'rni oshib borishi bilan birlgilikda, qora oltin deb nom olgan katta daromad manbaini ko'zlab, 1970-yillarda juda ham ko'plab davlatlar neft qazib oluvchi mamlakatlar bilan aloqalarni yaxshilashga urina

**17-rasm. Erondag'i Islom
revolyutsiyasidan.**



boshladilar. Xususan, Eron hamda AQSHning o'zaro aloqalari harbiy sohadan boshlanib, investitsiya, samolyotsozlik, va suv omborlarini qurish kabi sohalargacha yetib bordi. Biroq bu vaqtida ro'y bergan Erondag'i islomiy inqilob ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni boshqa tomonga o'zgarishiga olib keldi.

1979-yil yanvarida Eron shohi

Pahlaviy Misrga qochib ketgandan so'ng o'sha paytda Parijda istiqomat qilayotgan diniy harakat yo'lboshchisi imom Oyatulloh Humayniy o'sha yilning fevral oyida Eronga qaytadi. Shu yilning 14-fevralida Tehrondagi AQSH elchixonasiga bir guruh qurollangan harbiy guruuhlar hujum uyuştirishadi. Hujum uyuştirilgan paytda AQSH elchisi bilan qo'shib hisoblaganda 70 nafar elchixona xodimi ichki hududda bo'lib, ularning barchasi hibsga olindi. Ushbu vaziyatda Eron hukumati AQSH elchixonasini hujumdan asrab qololmaganini va tezkor choralar ko'ra olmaganini tan oldi. Shuningdek, voqeа sodir bo'lganidan so'ng AQSH hukumatidan uzr ham so'rab, boshqa bunday holatlarning takrorlanmasligi va yetkazilgan zarar qoplanishini bildirdi. Ammo bu vaqtga kelib Tabriz hamda Sherozdag'i AQSH konsulliklari ham hujumga uchradi.

1979-yilning 21-oktabrida taxtdan ag'darilgan Eron shohining AQSHga kirishiga ruxsat berilishi Eronda Amerikaga qarshi kayfiyatni yanada kuchaytirib yubordi. Bundan xavfsiragan AQSH elchixonasi qo'riqlash tizimi bo'yicha Eron hukumatidan yanada e'tiborli bo'lishini talab qildi va 1-noyabrda qarshi kayfiyatdagi harakatlarga nisbatan Eron hukumati tomonidan elchixona himoyasi borasida choralar ko'rildi. Biroq

4-noyabrda Tehrondagi Amerika elchixonasiga “Imom siyosatining musulmon izdosh tolibili” (Muslim Student Followers of the Imam’s Policy) guruhi tomonidan harbiy hujum uyuşdırıldı va elchixona xodimlari asirga olindi. Bu vaqtda AQSHning talab qilishiga qaramay, Eron hukumati yuz bergan voqeа bo‘yicha biror-bir chora ko‘rmadi. Bundan tashqari, Tabriz va Sherozdagи AQSH konsullik idoralari ham egallandi. Tehrondagi elchixona vakillarining qamoqqa olinishi va konsullik idoralarini egallanishi Eronning yuqori darajadagi amaldorlari tomonidan ham tan olinishini bildirdi. Bu davrda boshqa davlatlarning elchi va konsullari ham qo‘lga olingan bo‘lishiga qaramay, ular qo‘yib yuborilgan edi.

18-rasm. Tehrondagi AQSH elchixonasiga hujum.



BMT yuz bergan hodisani Xavfsizlik Kengashi majlisida ko‘rib chiqdi va qatnashchilar bir ovoz bilan elchixona xodimlari qo‘yib yuborilishi uchun ovoz berdilar. Xavfsizlik Kengashi bu holat bo‘yicha 4-dekabr kuni o‘zining 457-sonli rezolyutsiyasini qabul qildi. Shuningdek, 31-dekabr kuni 461-sonli rezolyutsiyani qabul qilib, Eron Rezolyutsiyaga bo‘ysunmagan taqdirda, keyingi yilning 7-yanvarida BMT Nizomining 39-moddasi hamda 41-moddasida belgilangan choralarни ko‘rilishini bildirdi. Tehronga tashrif buyurgan BMTning vakili 6-yanvar kuni Xavfsizlik Kengashiga bayonot bilan chiqib, 20-fevralda amaliy operatsiyani amalga oshiruvchi Kengashning tuzilishi haqida e’lon qildi. 1980-yil 13-yanvarda esa Xavfsizlik Kengashining ovoz berish yo‘li bilan Eronga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanilishi qabul qilindi.

AQSH hukumati ham vaziyatga jim qarab turmadi va Xalqaro Sudga da'vo bilan murojaat qilishdan avval, AQSHning ichki hududida Eronga nisbatan bir qancha va bir tomonlama chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Masalan, Erondan neftini import qilishni ta'qiqladi hamda uning mulk ayrboshlashini muzlatib qo'ydi.

Shundan so'ng Qo'shma Shtatlar hukumati 1979-yilning 29-noyabrida Eronga nisbatan Xalqaro Sudga da'vo arizasi bilan murojaat qildi. Eronning harakatlarining noqonuniyligini asoslash maqsadida quyidagi xalqaro huquqiy hujjatlarni keltirdi. Bular: Sharhnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi, Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiya, 1955-yilgi Eron-AQSH sharhnomasi va BMT Nizomi. Eron sud protsedurasida umuman qatnashmadidi. Shu bilan birgalikda, Xalqaro Sudning mazkur nizoni hal etish bo'yicha yurisdiksiyasi mavjud emas, degan mazmunidagi xat yuborish bilan kifoyalandi. Ushbu nizoni hal qiluvchi masalalariga kirishdan avval AQSH o'zining diplomatlarini asirda ushlab turishni bekor qilish va ularni qo'yib yuborilishi bo'yicha favqulodda choralar ko'rishni talab qildi. Bu haqda Xalqaro Sudning buyrug'i 1979-yil 15-dekabrda e'lon qilindi. Ammo Eron sudning buyrug'iga bo'ysunmadidi.

Sud muhokamasida BMT Bosh kotibi tomonidan maxsus kengash hech qanday natijaga erisha olmagani va muammo hal etilmagani tasdiqlandi va sud muhokamasi 1980-yil 17-martdan boshlandi. 1980-yil aprel oyida AQSH qo'shnulari tomonidan asirdagilarni ozod qilish bo'yicha olib borilgan operatsiya ham muvaffaqiyatsiz tugallandi. AQSH tomonidan BMTning Xavfsizlik Kengashiga taqdim etilgan hujjatda BMT Nizomining 51-moddasi hamda o'z-o'zini himoya qilish masalasi haqida gap ketadi. Bu xatdan asosiy maqsad AQSHning Eron tomonidan asirga olingan fuqarolarini ozod qilish, bo'lgan deb hisoblanadi. Sud muhokamasida, Eron qatnashmaganligi sababli sud Xalqaro Sud nizomining 53-moddasiga asoslanib, sirtdan qaror qabul qildi.

Xalqaro Sud Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi konvensiya, Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyalarini nizoni hal etish uchun tatbiq etishni belgilash bilan birgalikda, asirga olinganlar ichida ikki nafar elchixona xodimi bo'lman oddiy fuqarolar ham borligini hisobga olib, Xalqaro Sud 1955-yildagi AQSH-Eron ikki tomonlama sharhnomasiga binoan kelib chiqqan nizo yuzasidan o'z yurisdiksiyasini belgiladi. Sud diplomatik munosabatlar to'g'risidagi xalqaro normalar dunyo hamjamiyatida katta o'rin egallahshini alohida e'tiborga olish bilan

birgalikda, AQSH tomonidan o'zboshimchalik bilan amalga oshirilgan asirlarni qutqarish operatsiyasini xalqaro sudlov protsessini mensimaslik sifatida tanqid ostiga olindi. Biroq AQSH tomonidan amalga oshirilgan harakatlar mazkur sud qaroriga ta'sir etmasligini ta'kidlab, quyidagicha qarorga keldi:

a) Eron AQSH bilan o'zaro aloqlarda ular o'rtasida tuzilgan shartnomada hamda uzoq yillar davom etib kelgan xalqaro odat huquqi an'analarida belgilangan majburiyatlarini buzdi va buzishda davom etib kelmoqda;

b) Bu majburiyatlarning buzilishi xalqaro huquqda belgilangan Eronning AQSHga nisbatan bo'lган davlat javobgarligi (state responsibility)ni yuzaga keltiradi;

c) Eron hukumati 1979-yilning 4-noyabridagi holat hamda undan keyin davom etib kelayotgan vaziyatni o'z iziga tushirish uchun zudlik bilan barcha chora-tadbirlarni ko'rishi zarur;

d) AQSHning diplomatilari va tashqi aloqalar bo'yicha boshqa xodimlari Eronga ushlab turilmasligi lozim;

e) Eron hukumatiga 1979-yilning 4-noyabridan boshlab davom etib kelayotgan holatlар natijasida AQSHga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya to'lashi lozim;

f) Nizolashayotgan davlatlar o'zaro kelishuvga erishmasalar, yetkazilgan zararning shakli va qiymati yuzasidan ushbu sud qaror qabul qilish kuchini o'zida saqlab qoladi.

Xalqaro Sud yuqorida ko'rsatilgan mazmundagi qarorini 1980-yilning 24-mayida chiqardi. Biroq Eron bu qarorni ham ijro qilmadi.

Sud qaroridan qisqartma

Sud yuzaga kelgan nizoni ikki xil nuqtayi nazardan ko'rmoqda. Birinchisi, yuzaga kelgan vaziyatning Eronga qanchalik taalluqli ekanligi bo'lsa, ikkinchisi, Eron o'z zimmasiga olgan majburiyatlar va yuzaga kelgan vaziyatning Eronga taalluqlilik masalasining o'zaro aloqadorligidir. Ushbu masalalarni aniqlashtirish uchun sud yuzaga kelgan nizoni ikki bosqichga ajratib ko'rib chiqadi.

Avvalo, 1-bosqichda harbiy guruhlarning AQSH elchixonasiga hujum uyushtirgan paytida Eronning agentliklari yoki himoya qilish funksiyasini bajaruvchi organlari rasmiy maqomga ega bo'lmaganliklari va ular Eron tasarrufida bo'lmaganliklari ta'kidlanadi. Yana, agarda o'sha guruhlar Eron hukumati bilan til biriktirib, Eron manfaatlari yo'lida hukumat

topshiriqlarini bajarganda, Eron o‘z-o‘zidan aybdor bo‘lar va amalga oshirilgan harakatlar Eronga taalluqli bo‘lar edi. Biroq, bu boradagi dalillar Eronni ayblastir uchun yetarli emas. Shunga qaramasdan elchixonan va konsulliklarga uyushtirilgan hujumlarda Eronning aloqasi bo‘lmasa-da, bu uni xalqaro huquqiy majburiyatlaridan ozod eta olmaydi. Bu yerda Eronning xalqaro huquqdagi majburiyati deganda 1961-yilgi hamda 1963-yilgi Vena konvensiyalarida belgilangan majburiyatlar nazarda tutilmoxda. Ushbu konvensiyalarning har bir diplomatik va konsullik munosabatlarni tartibga solgan bo‘lib, elchixonan va diplomatik missiyalarning daxlsizlik qoidasini belgilagan holda, ularni qabul qilib oluvchi mezbon davlatga ma’lum bir majburiyatlarni yuklaydi. Ushbu majburiyatlar esa xalqaro odat huquqi normalari sifatida ham umume’tirof etgan qoidalar hisoblanadi. Eronning AQSH elchixonalarini himoya qilmaslik kabi harakatsizligi esa ushbu normalarni ochiqdan ochiq qo‘pol tarzda buzilishi hisoblanadi. Shu bilan birga, ikki Amerika fuqarosining asirga olinishi va ularning yetarli darajada himoya qilinmaganligi ham ikki davlat o‘rtasida tuzilgan 1955-yildagi shartnomaning 2-moddasi 4-bandiga xilof hisoblanadi.

Shunday qilib, 2-qismda Sud voqealar jarayoni boshlangan bir paytda Humayniy tomonidan xususiy harbiy guruhlarga qora tanli shaxslar hamda ayollarni qo‘yib yuborishni buyurgani, shuningdek AQSHning Eron qo‘ygan shartlarga bo‘ysummagunicha, qolgan xodimlar qo‘yib yuborilmasligi haqidagi ma’lumotlarni aniqladi. Humayniy hamda boshqa davlat idoralari tomonidan yuz bergen holatning tasdiqlanishi, harbiy guruh tomonidan amalga oshirilgan harakatlar, xususan, elchixonaning egallanishi, shaxslarning hibsga olinishini Eronning harakatlari sifatida baholanishiga olib keladi. Bu esa yuqorida harbiy guruhlarni Eronning xalqaro huquq doirasida javobgarligi mavjud bo‘lgan agentlik sifatida talqin etish imkoniyatini beradi. Ushbu nuqtayi nazardan amalga oshirilgan harakatlar Eronning elchilarini himoya qilish borasidagi majburiyatları bilan birgalikda, davlat organlari tomonidan hurmat qilinishi lozim bo‘lgan konvensiya shartlarining buzilishi hamdir.

Sud qaroriga sharh

1) Xalqaro noqonuniy harakatlar xalqaro javobgarlikni yuzaga keltirish omillari

BMTning Xalqaro huquq komissiyasi (International Law Comission) tomonidan 2001-yilda tuzilgan “Davlatlarning javobgarligi to‘g‘risida”gi qoidalari (ushbu qoidalar hali konvensiya sifatida qabul qilinmagan)

muhim manba sifatida xalqaro odat huquqi qoidalariiga asoslangan holda, davlatlarning javobgarlik masalalarini kodifikatsiyalashtirgan. Biz ko'rib chiqayotgan nizoda ham, sud yuqoridagi qoidalarni o'z ichiga olgan xalqaro odat huquqi normalariga tayangan. Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarda xalqaro huquq qoidalarini buzish natijasida davlat javobgarligining belgilanishi uchun ikki omilning mavjud

**19-rasm. Erondag'i AQSHga nishbatan
dushmanlik kayfiyatini aks ettiruvchi
surat.**



bo'lishi talab etiladi. Bular: xalqaro huquqiy majburiyatlarga zid harakatlarni amalga oshirish hamda bu harakatlar davlatga tegishli ekanlidigidir (qidalar, 2-modda). Mazkur ishda ham sud yuqoridagi ikki omilga e'tibor qaratmoqda. Odatda, davlatga tegishli harakatlar deb uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud organlari

tomonidan amalga oshirilgan harakatlar tushuniladi. Shuningdek, boshqaruv vakolatini o'zida jamlovchi subyektning harakatlarini ham yuqoridagilar qatoriga kiritish mumkin (qidalar, 4-10 moddalar). Bulardan boshqa subyektlar tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning davlat harakatlari sifatida tan olinishi esa murakkab masala hisoblanadi.

**2) Shaxslarning harakatlariga bog'liq bo'lgan davlat harakatlari
yoki harakatsizligi natijasida xalqaro javobgarlikning yuzaga kelishi.**

Xalqaro Sud 1979-yil 4-noyabrda yuz bergen harbiy guruhlarning harakatlarini individual harakat sifatida baholadi. Bu harakatlarni to'xtatish yoki oldini olish bo'yicha xalqaro huquqiy majburiyatlar esa Eronga tegishli deb topildi. Mazkur holatda majburiyatning buzilishi sifatida elchixonanining himoyasini ta'minlash lozim bo'lган. Eron hukumati esa bunday harakatni amalga oshirmagani nazarda tutilmoqda. Bunday harakat (yoki harakatsizlik)ning subyekti sifatida xalqaro huquqiy majburiyatlarni oluvchi davlat ijro organlari hisoblanadi.

3) Individual shaxslarning harakatlari va ularning davlatga tegishliliği.

Mazkur ish amalga oshirilgan harakatning davlatga tegishliliği to'g'risida, xususan, individual shaxslar harakatlarining davlatga tegishli bo'lishi mumkinligini tan olgan qaror bo'ldi. Albatta, ushbu ishdan tashqari yana bir nechta ishlarda ham yakka shaxslarning harakatlarining davlatga tegishliliği masalasi ko'rib chiqilgan (AQSH-Nikaragua nizosi va Genotsid to'g'risidagi konvensiyaning qo'llanilishi bo'yicha ish) bo'lishiga qaramay, ularda

shaxslarning harakatlari davlatga taalluqli deb topilmagan. Ushbu ishda esa sud elchixonaning egallanishidan boshlab, elchixona xodimlarining asirga olinganligini tan olish va undan keyingi voqealar rivojini hisobga olib, bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar Eronga tegishliligini belgilashi alohida e'tiborga molikdir. Bu esa xalqaro huquqqa zid bo'lgan harakatlar nafaqat davlat organlari balki, individual shaxslar tomonidan amalga oshirilganda ham davlat xalqaro huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkinligini anglatadi. Mazkur ishda yana bir o'zgacha holat mavjudki, bu asosan Humayniy shaxsi bilan bog'liq. Avvaliga Eron barcha zararni qoplashga tayyorligini bildirgan bo'lsa-da, Humayniy hokimiyat tepasiga kelishi bilan u zararni qoplashdan va asirlarni qo'yib yuborishdan to'liq bosh torta boshladи. Bundan tashqari, sud AQSH elchixonasi hamda konsulliklarning egallanishi va xodimlarining ushlab turilishi boshqa davlat elchixonasi hamda konsullik xodimlarining ushlab turilishidan farq qilgani, boshqacha so'z bilan aytganda, AQSHdan tashqari davlatlarning elchixona hamda konsullik xodimlari tezda qo'yib yuborilganini harbiy guruhlar Eron hukumatining buyruqlariga bo'ysunayotgani anglatishini va ularning harakatlarini Eronning harakatlari sifatida baholash mumkinligini bildirdi. Albatta, bunday harakatlар xalqaro huquq qoidalarining keskin ravishda buzilishini anglatadi. Bunga misol qilib, Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi konvensyaning 22-moddasi 2-bandida belgilangan davlat o'z hududidagi elchixona va konsulliklarni himoya qilish majburiyati buzilganligi hamda shu konvensyaning 22-moddasi 1-bandida belgilangan elchixona va konsullik idoralariga o'sha davlatning ruxsatsiz kirmaslik majburiyati buzilganligini keltirishimiz mumkin. Bu yerda diplomatik munosabatlar to'g'risidagi konvensyaning yuqorida ko'rsatilgan moddalari bevosita Eron tomonidan buzilmagan bo'lsa-da, uni buzgan yakka shaxslarning harakatlari Eronning harakatlari sifatida baholanayotgani sababli Eron tomonidan buzilgan deb hisoblanmoqda. Ushbu vaziyatda yana bir holatga e'tibor qaratishimiz zarurki, harbiy guruhlarning harakatlari Eronning harakatlari sifatida baholansa-da, bu harbiy guruh yoki individual shaxslarning huquqiy maqomiga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi.

4) Yakka shaxslarning harakatlarini davlatga tegishliliги шартлари.

Ushbu ishni tahlil qilgan holda, Xalqaro huquq komissiyasining Davlat javobgarligi to'g'risida ishlab chiqqan qoidalarining 11-moddasida "Davlat ma'lum bir harakatlarni o'zining harakatlari sifatida tan olsa yoki qabul qilsa (acknowledge and adopt), aynan shu holatlardagina, harakatlar xalqaro huquqning subyekti bo'lgan o'sha davlatning harakatlari bo'ladi" deb belgilanadi. Bu yerda nafaqat davlat tomonidan tan olish balki, o'sha

harakatlarni o‘z harakatlari sifatida qabul qilish ham nazarda tutilmoqda. Bu qoida hozirgacha kodifikatsiyalash hamda Xalqaro huquq komissiyasining avvalgi loyihalarida aniq bir ifodalanmagan qoida sifatida baholanadi. Shu sababli ham bu qoidani o‘z ichiga olgan yakka shaxslarning harakatlari bo‘yicha davlatning xalqaro javobgarligi kengayib ketishi qanday ahamiyatga egaligi hozirgi kundagi muammolardan biridir.

Biz ko‘rib chiqqan ish bo‘yicha sud qarori e’lon qilingandan keyin, 1980-yil iyul oyida Shoh Pahlaviy vafot etdi. Jazoir tomonidan ikki davlat o‘rtasida hakamlik amalga oshirilib, 1981-yilning yanvar oyida barcha asirlar ozod qilindi. Bu paytdagi kelishuvga ko‘ra, may oyida Xalqaro Sud ko‘rgan ishlar ro‘yxatidan mazkur ish olib tashlandi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. So‘nggi yillarda qaysi davlatlarda fuqarolar boshqa mamlakatlar elchixonalariga hujum uyushtirdi?
2. Individual shaxslarning harakatlarini davlat harakati sifatida talqin qilishi qanday ijobjiy va salbiy jihatlarni o‘zida jamlaydi?
3. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy mamlakat elchilari va diplomatlari qanday himoya qilinadi?

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. J.Crawford, The International Law Comission’s Articles on State Responsibility, pp. 121-123 (2002).

**X. Xalqaro gumanitar huquq. Kuch ishlatish va jamoaviy o‘zini-o‘zi
himoya qilish yuzasidan Nikaragua va AQSH o‘rtasidagi nizo,
1986 yil, BMT Xalqaro Sudi qarori**

*(Case Concerning Military and Paramilitary Activities in and against
Nicaragua (Nicaragua v. United States of America), Judgment (Merits),
ICJ Reports 1986, p.14).*

(A.Umirdinov)

Faktlar xulosasi. 1979-yil iyul oyida Markaziy Amerikadagi Nikaragua davlatida Sandinista Milliy Ozodlik Fronti tomonidan o‘scha paytdagi Somosa diktatorlik hukumati ag‘darib tashlanadi. Hokimiyat tepasiga kelgan Sandinista ozodlik hukumatining qo‘sni davlatlardi hukumatlarga qarshi harakatlariga qurol-yarog‘ bilan yordam berishidan cho‘chigan AQSHning Reygan hukumati Nikaragua davlatiga qarshi kurashayotgan ichki gerilla kuchlari(idora)ga qurol bilan yordam berishni boshlaydi. Nikaragua hukumatining fikricha, AQSHning to‘liq nazoratida bo‘lgan idoraga yordam berishi oqibatida ushbu kichik davlat juda katta moddiy va insoniy talafotlar berishga majbur bo‘ladi. Bundan tashqari, AQSH tomonidan yollanilgan jangchilar orqali Nikaragua portlarini minalashtirib, port, neft-gaz terminallari va dengiz kuchlariga hujumlar uyuşhtiriladi. AQSH esa bularning hammasini o‘z-o‘zini himoyalash (self-defence) uchun ishlatganligini asos qilib ko‘rsatadi.

20-rasm. AQSH va Nikaragua o‘rtasidagi ixtilof.



Nikaraguuning da’vosi. 1984-yil 4-aprel kuni Nikaragua yuqoridagi harakatlarni qoralab, BMT Xavfsizlik Kengashiga rezolyutsiya qabul qilishni so‘rasa-da, AQSHning vetosi bilan qabul qilinmagach, shu yilning

sentabr oyida ikki davlatning ham Xalqaro Sud yurisdiksiyasi qabul qilishga oid roziligi asosida yuqoridagi nizoni Xalqaro Sudga topshirib, AQSHning xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlari (kuch ishlatish, suverenitetga zarar yetkazish, ichki ishlarga aralashish kabi) va ularning tezlik bilan to'xtatilishi, va nihoyat, Nikaraguaga qarshi kompensatsiya to'lash majburiyatি borligiga qaror qilishini so'rab murojaat qiladi.

Xalqaro Sud yurisdiksiyasi va AQSHning ishtirok etmasligi.

Nikaraguuning Xalqaro Sudga murojaatiga qarshi AQSH sudning ushbu nizo bo'yicha yurisdiksiyasi mavjud emasligini da'vo qilsa-da, sud o'zining 1984-yil noyabr oyidagi qarorida AQSHning barcha dalillarini rad etib, o'z yurisdiksiyasi mavjudligiga qaror qiladi. Bundan qoniqmagan AQSH hukumati Nikaragua bilan tuzilgan 1956-yildagi o'zaro do'stlikka oid bitimni tugatib, Xalqaro Sud yurisdiksiyaga rozilagini ham qaytarib oladi va sud protsessida ham ishtirok etmaydi. Biroq sud Nottebom qoidasi asosida jarayonni davom ettirib, quyidagicha xulosaga keladi.

Birinchidan, AQSH xatti-harakatini jamoaviy o'z-o'zini mudofaa qilish huquqi nuqtayi nazaridan asoslantirib bo'lmaydi. Ikkinchidan, AQSH hukumati Nikaraguaga qarshi kurashayotgan isyonchi kuchlarini tayyorlash, qurol bilan ta'minlash, va moliyalash orqali xalqaro odat huquqi (*customary international law*)dagi davlat ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiiga zid harakat qilgan. Uchinchidan, AQSH Nikaragua hududlariga hujum uyushtirishi va isyonchi kuchlariga yordami bilan kuch ishlatishi xalqaro odat huquqidagi kuch ishlatmaslik prinsipini buzadi. To'rtinchidan, esa AQSH xalqaro odat huquqi normalini buzganligi sababli kelib chiqqan zararlar bo'yicha Nikaraguaga kompensatsiya to'lash majburiyatini oladi.

Sud qaroridan

1. Faktlarning aniqlanishi.

1.1. Amerikaning xatti-harakatlari.

Nikaraguuning portlariga minalarning joylashtirilishi AQSH Prezidenti ruxsati bilan amalga oshirilgan bo'lib, AQSH hukumati tomonidan yollanilgan shaxslar tomonidan AQSH ma'murlarining nazorati va harbiy yordami bilan amalga oshirilgan. Neft quvurining portlatilishi, va dengiz kuchlari bazasiga uyushtirilgan hujum, neft omboriga qilingan hujum ham AQSH amaldorlari tomonidan rejalashtirilgan, buyruq berilgan, nazorat qilingan va amalga oshirilgan operatsiyalar bo'lib, AQSH tomonidan yollangan shaxslar ijro etgan ishlar bo'lgani uchun AQSHga

tegishli hisoblanadi. Nikaraguuning havo hududiga kirib uchib o'tishlarning bir qismi ham AQSHga tegishli hisoblanadi. Gerilla kuchlari hisoblangan idora tomonidan uyuştirilgan harakatlarni esa AQSH qo'shinlari amalga oshirishga qiyoslab bo'lmaydi. Buning sababi, AQSHning turli xildagi yordami to'xtagandan keyin ham idora tomonidan Nikaraguaga qarshi harakatlarning to'xtamaganligidan ko'rish mumkin. Shu sababli aksilhukumat kuchlari bo'lgan idoraning AQSHga mutlaq bogliqligi (complete dependence) haqiqatdan yiroq. Albatta, AQSHning idorani qo'llab-quvvatlash darajasiga qaraladigan bo'lsa, idoraga nisbatan AQSHning moliyaviy va harbiy (o'qitish, tayyorlash, rejalash kabi) yordami haqiqatan ham ko'rsatilgan bo'lsa-da, idora harakatlarini AQSHga to'laligicha nisbat berib bo'lmaydi. Buning uchun esa qoida o'laroq, kuch ishlatish jarayonidagi barcha harbiy va yarim harbiy harakatlarning ustidan amaldagi nazoratning AQSH tomonidan qo'lda tutib turilganligi isbot etilishi lozim. Shu bilan birga, AQSH "isyonchi harakatlarining ruhiy strategiyasi" qo'llanmasini aksilhukumat kuchlariga ham taqdim etgan.

1.2. Nikaraguuning xatti-harakati.

1979-yil iyul oyidan 1981-yil boshigacha Nikaragua hududi orqali El-Salvador davlatidagi aksilhukumat kuchlari uchun doimiy ravishda quroq yetkazib berish holatlari kuzatilsa-da, ushbu holatlar bo'yicha Nikaraguada javobgarlik borligi to'g'risida etarlicha dalil mavjud emas.

2 Qo'llaniladigan huquq.

AQSH tomoni BMT Nizomi odad huquqi (customary law) qoidalari o'z ichiga to'liq yutib yuborgan deb da'vo qilsa-da, BMT Nizomi va odad huquqi bir xil deya hisoblash noto'g'ri bo'lib, odad huquqi alohida tarzda mavjuddir. Garchi ularning tarkibi o'xhash bo'lsa-da, ikkisi ham alohida-alohida tatbiq etiladi. Shuningdek, ko'ptomonlama bitimlarda davlatlar ma'lum bir normalarning o'zlariga nisbatan tatbiq etilmasligiga oid qo'shimcha shartni (*treaty reservations*) nazarda tutishlari mumkin, biroq o'shanday holatlarda ham odad huquqi tatbiq etiladi. AQSH tomoniga ko'ra ikki davlat munosabatlari shu davlatlar o'rtasida tuzilgan bitim bilan tartibga solinishiga qaramasdan, agar ushbu nizoga odad huquqi normalari tatbiq etilsa unda boshqacha o'lcham (*standard*)da sud qilinilishi mumkinligini da'vo qilsa ham, BMT Nizomi odad huquqi normalaridan katta farqi yo'q bo'lib, ikkisi ham bir xil fundamental qoidalardan kelib chiqqanligini aytish joiz.

2.1 Kuch ishlatish.

Ikki davlat ham BMT Nizomidagi kuch ishlatmaslik qoidasi odat huquqidagi xuddi shunday qoida bilan bir xil ekanligi bo'yicha fikr birdamligiga ega. Ushbu normani yuridik majburiyatga ega odat huquqi sifatida tan olish davlatlarning 1970-yilda tuzilgan Davlatlar o'ttasidagi do'stona aloqalar bo'yicha xalqaro huquq qoidalariga oid BMT Bosh Assambleyasi deklaratsiyasiga nisbatan qarashlaridan kelib chiqadi. Shuningdek, "O'ta og'ir shakldagi kuch ishlatish" bilan "uncha og'ir bo'limgan shaklda kuch ishlatish" masalasini o'zaro ajratish lozim bo'lib, 1970-yilgi deklaratsiyada keyingi turdag'i kuch ishlatish tilga olingan.

2.2 O'zini himoya qilish.

BMT Nizomining 51-modddasi va 1970-yilgi deklaratsiyaga ko'ra, davlatlarning yakka tarzda va jamoaviy tarzda o'z-o'zini mudofaaa qilishlari odat huquqiga tayanadi. O'zini mudofaaa qilishning sharti sifatidagi kuch ishlatishga rasmiy armiya tomonidan uyushtirilgan hujumdan tashqari unga teng keladigan harakatni qurolli guruhlarni jo'natish orqali amalga oshirish ham kiradi. Qurolli yoki logistik yordam ko'rsatish orqali isyonchilarga yordam berish qurolli hujum emas. Buning o'rniga u boshqa davlatlarning ichki yoki tashqi ishlariga tahdid yoki kuch ishlatish yoki aralashish sifatida qaralishi mumkin. Odat huquqiga ko'ra qurolli hujumga uchraganlik to'g'risidagi deklaratsiya va qurban bo'lgan davlatning yordam so'rab qilgan murojaati jamoaviy o'z-o'zini mudofaaa qilishning shartlaridandir.

2.3 Ichki ishlarga aralashmaslik.

Davlatning ichki ishlariga aralashmaslik odat huquqiga aylangan bo'lib, har bir suveren davlatning tengligi asoslaridan hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda davlatning erkin tanloviqa qarshi majburlovchi choralarining ko'rilishi noqonuniy aralashuv bo'ladi. Shu paytgacha ham aksilhukumat kuchlariga nisbatan o'zga davlatlarning aralashuvi ishlari ko'p kuzatilgan bo'lsa-da, shu sababli ham o'zga davlatlarning ichki ishiga aralashish huquqiga egalik kelib chiqmaydi. Qurolli hujum darajasida bo'lmasa ham, kuch ishlatish orqali ichki ishlarga aralashishga qarshi shunday kuch ishlatish qurbaniga aylangan davlatning yana kuch ishlatish bilan javob bera oladimi, masalasi ushbu ishning yechimi uchun zarur emas. Hozirgi xalqaro huquq bo'yicha qurolli hujum bo'limgan xatti-harakat uchun jamoaviy tarzdagi qurolli javob berish huquqi mavjud emas.

3. Qo'llaniladigan huquq tomonidan faktlarning baholanishi.

Birinchidan, AQSHning Nikaragua portlarini minalashtirishi va o'sha davlatning portlari, neft-gaz omborlari va dengiz kuchlari bazasiga hujumi kuch ishlatishning taqiqlanishi prinsipiiga zid keladi. Idoraning qurol bilan ta'minlanishi va tayyorgarlikdan o'tkazilishi kuch ishlatish va kuch ishlatish bilan tahdid qilishga teng kelsa ham, moliyalashtirish masalasi ichki ishlarga aralashish bo'lgani bilan kuch ishlatish hisoblanmaydi. Ikkinchidan, AQSH harakatlari jamoaviy o'zini himoya huquqi (*right of collective self-defense*) bilan asoslasa bo'ladimi savoli bo'yicha, El Salvador, Gonduras, Kosta Rika davlatlarining hech biri Nikaraguadagi Sandinistlar harakati tufayli qurolli hujumga uchraganligi to'g'risidagi deklaratsiya e'lon qilinishi yoki yordam so'rab murojaat qilishlar kuzatilmagan. Shu sababli jamoaviy o'zini himoya qilish huquqidan foydalanish shartlari to'liq bajarilmagan. Uchinchidan, AQSHning idoraga moliyaviy yordami, ularni tayyorgarlikdan o'tkazishi, qurol bilan ta'minlashi ichki ishlarga aralashmaslik prinsipiiga ochiqdan ochiq zid keladi. Qurolli hujumga etib bormagan kuch ishlatish bo'yicha esa kuch ishlatishni o'z ichiga olgan jamoaviy o'zini mudofaaa qilish chorasini qo'llab bo'lmaydi. Shunday holatlarda, zararga uchragan davlat uchun muvozanatni saqlagan holatdagi chora-tadbirlar ko'rish mumkin bo'lsa ham, kuch ishlatgan davlatga nisbatan uchinchi bir davlat tomonidan huddi shunday kuch ishlatish chorasingning ko'riliishi xalqaro huquq qoidalariiga mos kelmaydi. To'rtinchidan, idora tomonidan yetkazilgan gumanitar zararlarning tegishliligi AQSHga mansub bo'lmasa ham AQSH tomonidan aksilhukumat kuchlariga ruhiy strategiya qo'llanmasining berilishi gumanitar huquqqa zid harakatlarni qo'llab-quvvatlashdan tiyilish majburiyatiga xilof harakat hisoblanadi.

Sud qaroriga sharh

1. Odat huquqidagi kuch ishlatmaslik prinsipi va o'zini mudofaaa qilish huquqi.

Kuch ishlatish masalasi aralashgan nizoni BMT Xalqaro Sudiga havola etish Nikaragua qarshi AQSH ishigacha kam kuzatilgan holat edi. Ushbu ish kuch ishlatish masalasi bo'yicha xalqaro huquqdagi turli qoidalarning tarkibini aniqlashtirish bo'yicha yetakchi ish (leading case) bo'lib, bundan keyingi Xalqaro Sud qarorlari va konsultativ xulosalari ham ushbu ishda berilgan qarorlarni qo'llab quvvatlab kelmoqda. E'tiboringizdagagi nizoda AQSH tomonidan tuzilgan ko'p tomonlama bitimda istisno masalasi bo'lganligi uchun BMT Nizomi kabi ko'p tomonlama bitimga asoslanib, ushbu nizoni hal etishning iloji bo'lindi.

Shu sababli ham sud xalqaro odat huquqiga asoslangan holda masalani ko'rib chiqishga majbur bo'ldi. Shunga qaramasdan, sudning xalqaro odat huquqidagi qoidalari borligini tasdiqlab, ularning davlatlar tomonidan yurudik majburiyat olib keladigan qoida sifatida talqin etish uchun 1970-yilgi BMT Bosh Assambleyasi deklaratsiyasi kabi hujjalarga havola keltirishga majbur bo'lgani keyinchalik tanqidga uchragan. Boshqa tomondan esa davlatlar amaliyoti bo'yicha, qoidalardan farqli harakatlarni oddiyigina "noqonuniy" deya hukm chiqargan. Ushbu sud ishigachaga BMT Nizomidagi o'zini mudofaa etish va xalqaro odat huquqidagi o'zini mudofaa etishning o'zaro aloqasi bo'yicha ilmiy bahslar davom etib kelgan bo'lsa-da, sud odat huquqidagi o'zini mudofaa qilishning sharti sifatida "qurolli hujum"ning mavjudligini bayon qildi. Bundan tashqari, o'ta yaqinlashib qolgan qurolli hujum uchun o'zini mudofaa qilish huquqidan foydalana olish bo'yicha ko'rilgan ushbu ishning savoli doirasiga kirmaydi deya, javob berishdan qochib, uni kelajakda yechilishi kerak bo'lgan masala sifatida qoldiradi.

2. Qurolli hujum va uning darajasiga chiqmaydigan kuch ishlatish

Sud o'z qarorida kuch ishlatishni o'ta og'ir shakldagi kuch ishlatish (qurolli hujum) bilan uncha og'ir bo'lmasan kuch ishlatish (qurolli hujum darajasiga chiqmaydigan kuch ishlatish) masalasini o'zaro ajratib, o'zini mudofaaa qilish huquqi faqatgina kuch ishlatishning o'ta ogir shakli paytidagina ruxsat berilishini bayon qiladi. Boshqa tomondan, uncha ogir bo'lmasan kuch ishlatish – qurolli hujum emasligi uchun o'zini mudofaaa qilish huquqidan foydalanim bo'lmasa-da, noqonuniy tarzda davlatning ichki ishiga aralashish bo'lgani uchun zararga uchragan davlat mutanosib qarshi choralar (*proportionate counter-measures*) ko'rishi mumkin deb qaror chiqardi. 1970-yilgi BMT deklaratsiyasining kuch ishlatish orqali qasos olmaslikka oid normasini e'tiborga oladigan bo'lsak, avvalgi nazariyaning asosligiga shubha paydo bo'ladi. Shu bilan birga, kuch ishlatish (*use of force*) doktrinasi bo'yicha Sud 1970-yilgi BMT deklaratsiyasiga asoslangan holda, davlatning o'zi kuch ishlatmaslik yo'llari bilan, ya'ni aksilhukumat isyonchi kuchlarni tayyorlash va ularni qurol bilan ta'minlash orqali qilgan harakatlari ham kuch ishlatishga to'g'ri kelishini bayon etadi. Bunday holatlarda isyonchi kuchlarga moliyaviy yordam kuch ishlatishga to'g'ri kelmasa-da, ichki ishlarga aralashish hisoblanishini aniqlash bilan birgalikda uning qanday asoslarda shunday qarorga kelganligi aniq bo'lmay, ishontiruvchi dalillar taqdim etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

3. Nodavlat subyekti harakatining davlatga tegishliligi.

AQSH qo'llab-quvvatlagan idorasining gumanitar huquqiga zid harakatlariga nisbatan AQSH javobgarligini keltirib chiqaradimi? Yuqorida ko'rilmaganidek taraflar bu masalani ham tortishishgan. Bu masala yuzasidan sud nodavlat subyektning har bir harakatining tegishliligi masalasi uchun "samarali nazorat" (effective control) o'lchamini bayon qilib, ushbu o'lchamga muvofiq idoraning harakatlarini AQSHga nisbat bermaydi. Sobiq Yugoslaviya Xalqaro Jinoyat Sudi (ICTY) 1999-yilgi Tadij ishi bo'yicha chiqargan qarorida "umumiy nazorat" (overall control) nomli boshqacha o'lchamni o'rtaga tashlagan bo'lsa-da, BMT Xalqaro Sudi 2007-yildagi Genotsid Konvensiyasining tatbiq etilish bo'yicha nizoda Tadij ishidagi ICTY chiqargan qarorni tanqid qilgan.

4. Nodavlat subyekt va o'zini mudofaa qilish huquqi.

BMT Xalqaro Sudi 2004-yilgi Falastindagi devor nizosi bo'yicha bergen konsultativ xulosasida BMT Nizomi 51-moddasining bir davlatning ikkinchi davlatga qurolli hujumi vaqtidagi o'zini mudofaa qilish huquqi borligini tan olsa-da, Angliyalik sudya Higgins o'zining shaxsiy fikrida davlatning qurolli hujum masalasi bo'yicha cheklov BMT Nizomi 51-moddasi emas, balki Nikaragua nizosi bo'yicha chiqarigan qarordan kelib chiqqan deya tanqid qilgan. Shunga qaramay BMT Xalqaro Sudi 2005-yildagi Kongo va Uganda o'rtasidagi ishda Nikaragua nizosi bo'yicha chiqarilgan qarorni yoqlab, isyonchi ADF guruhining xatti-harakatini Kongoga nisbat bermay, Ugandaning Kongoga nisbatan o'zini mudofaaa qilish huquqining qo'llanilishiga oid da'veni rad etgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sizningcha, AQSH va Nikaragua o'rtasidagi ish keyinchalik xalqaro huquqda qanday ahamiyat kasb etgan?
2. Nodavlat subyektlarning harakatlari davlat harakatlari sifatida talqin qilingan qanday nizolardan xabardorsiz? Ulardagi talqin bilan mazkur ishdagi talqinning qanday farqi bor?
3. Xalqaro odad huquqidagi kuch ishlatmaslik tamoyili hamda davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlar mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Harold G. Maier (ed), 'Appraisals of the ICJ's Decision: Nicaragua v. United States (Merits)', AJIL, Vol.81 (1987), pp.77-183.

**XI. Xalqaro iqtisodiy huquqi. Investitsiya qabul qiluvchi mezon
davlatning majburiyatları – Saluka ishi, Ad hoc arbitraj sudi
2006-yil 17-mart**

(Saluka investments vs Czech Republic 17.03.2006).

(A.Xakimov)

1. Nizoning yuzaga kelishi. Chexiya mamlakati 1989-yilda o‘zining eski tuzumi bo‘lmish kommunizmdan voz kechib, bozor iqtisodiyoti tuzumiga qadam qo‘ydi. Biroq bu orada u o‘zi bilan bir davlatga birlashgan Slovakiya davlatidan ajralib chiqdi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi bilan xususiylashtirish ishlari ham boshlab yuborildi. Xususiylashtirish obyektlari orasida mamlakatning to‘rtta yirik banking ham aksiyalari mavjud edi. Mazkur to‘rtta bankning orasida aksiyalari tezda sotilib ketgan Investment and Postal Bank (IPB) banki bo‘ldi.

1998-yilda Nomura Yevropa (Nomura xolding aksiyadorlik kompaniyasining Angliyadagi filiali, bundan keyin matnda Nomura deyiladi.) Chexiya hukumati bilan o‘tkazilgan muzokaralardan so‘ng IPB banking 46% aksiyalarini qo‘lga kiritdi. Nomura IPB bankidan sotib olingan aksiyalar va qimmatli qog‘ozlarni o‘z egaligida saqlab turish

uchun Gollandiyada o‘zi tashkil etgan va mazkur ishdagi da‘vogar hisoblanmish Saluka firmasining hisobiga o‘tkazib qo‘ydi.

Bu vaqtida Chexiya mamlakati-ning bank olamida bankdan kredit olgan shaxslarning uni qaytara olmay qolishi muammosi vujudga keldi va ahvol og‘irlashdi. Bu yuqorida yirik to‘rtta bankka ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Shu sababli hukumat IPB bankidan tashqari qolgan uchta bankka ko‘mak bera boshladи. Nomura tomonidan ko‘mak berilishi talab qilinishiga qaramasdan, IPB banki allaqachon xususiylashtirilgani sababi keltirilib, hukumat tomonidan hech qanday yordam ko‘rsatilmadi. Buning natijasida IPB bankiga bo‘lgan ishonch pasaya boshladи va omonatchilar o‘z omonatlarini bankdan qaytarib ola boshladilar. Shundan so‘ng 2006-yilda Chexiya Markaziy banki omonatchilarning o‘z omonatlarini ommaviy tarzda qaytarib olishlari hamda bank tizimidagi xavfsizlikni sabab qilib, IPBning boshqaruvini hukumat tasarrufiga oldi va mazkur bankning aksiyalari savdosini to‘xtatib qo‘ydi.



21-rasm. Chexiya.



Bundan tashqari, boshqaruv hukumat tasartufida bo'lgan paytda Saluka firmasiga ham IPB aksiyalari oldi-sotdisini amalga oshirishni taqiqlovchi qaror chiqarildi. Shuningdek, Nomuraning Chexiya poytaxti Pragadagi ofisida tintuv amalga oshirildi. Shundan so'ng, IPB Chexiyadagi yana bir katta bank bo'l mish CSOBga qo'shib berildi. Boshqaruv hukumat tasartufidan chiqqanidan so'ng Nomura va Saluka IPBga tegishli barcha aksiyalarni CSOB tasarrufiga o'tkazishi bo'yicha hukumat tomonidan topshiriq berildi.

2. Arbitraj kelishuvi. 1991-yilda Chexiya Saluka joylashgan va ro'yxatdan o'tgan davlat Gollandiya bilan Ikki tomonlama investitsion shartnoma (Bundan keyin matnda (Bilateral investment treaty) BIT deyiladi) imzolaydi. Ushbu BITning 8-moddasida shartnomani imzolovchi ikki mamlakat, bir tomon investori va ikkinchi tomon o'rtaSIDA investitsion nizo yuzaga kelganda, UNCITRAL arbitraj qoidalariga asoslanuvchi arbitrajda ish ko'rlishiga kelishib olgan edilar.

3. Arbitraj protsessi va tomonlarning da'volari.

Chexiya tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlardan norozi bo'lgan Saluka firmasi Chexiya ustidan UNCITRAL qoidalariga asosan ishlarni ko'ruchchi arbitraj sudiga shikoyat bilan chiqdi. Mazkur ish bo'yicha Saluka tashkil etilgan mamlakat Gollandiya davlati hamda Chexiya o'rtaSIDA tuzilgan ikki tomonlama investitsion shartnoma (BIT)ning 8-moddasiga muvofiq "Shartnoma taraflari bir tomon va ikkinchi tomonning investorini o'rtaSIDA investitsion nizo chiqqanda nizoni UNCITRALning arbitraj qoidalariga amal qiluvchi arbitrajda ko'rishga va'da beradilar" deb belgilangan edi. 2001-yil 18-iyulda Saluka o'z da'vo arizasida quyidagilarni ko'rsatgan holda Chexiyani UNCITRALning arbitraj qoidalariga amal qiluvchi arbitrajga berdi. Da'vogar arizasida:

1. Chexiya hukumati BITning 3-moddasida belgilangan "Adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezoni" (Fair and equitable treatment, FET)ni buzganligini;
2. Chexiya hukumati BITning 5-moddasida belgilangan "Tortib olish va kompensatsiya to'lash" qoidalarini buzganligini;
3. Nizo Gollandiya hamda Chexiya o'rtaSIDA tuzilgan ikki tomonlama investitsion shartnoma (BIT)ning 8-moddasiga muvofiq UNCITRAL qoidalariga amal qiluvchi arbitrajda ko'rib chiqilishi lozimligini ta'kidladi.

Javobgar bo‘lmish Chexiya hukumati o‘z arizasida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:

1. Chexiya hukumati tomonidan BITning 3-moddasida belgilangan “Adolatli va xolis munosabatda bo‘lish mezoni” (Fair and equitable treatment, FET) qoidasi umuman buzilmaganligini;
2. Tortib olish ommaviy manfaatni o‘ylab amalga oshirilganligi, shu sababli u qonuniyligi va kompensatsiya to‘lanmasligini;
3. Mazkur nizoda Gollandiya hamda Chexiya o‘rtasida tuzilgan ikki tomonlama investitsion shartnoma (BIT)ning 8-moddasida belgilab qo‘yilgan shartnoma taraflaridan birining investor mavjud emasligi, nizo ham investitsiya nizosi emasligi, shu sababdan nizo bo‘yicha mazkur UNCITRAL qoidalariga amal qiluvchi arbitraj yurisdiksiyaga ega emasligini ta’kidladi.

Arbitraj sudi esa Chexiyaning Arbitraj sudi yurisdiksiyaga ega emasligi haqidagi da’vosini rad etgan holda u tomonidan BITning 3-moddasi buzilganligini quyidagicha asosladi.

Tortib olish (deprivation). Mazkur ishda qo‘llanilayotgan BITning 5-moddasida investitsion mulk tortib olinganda, unga kompensatsiya to‘lash lozimligi belgilab qo‘yilgan. Biroq ushbu modda xalqaro odat huquqidagi “ommaviy tartibni saqlash maqsadida investitsion mulk tortib olinganda, bunday tortib olish noqonuniy deb topilmaydi” degan qoidaga bo‘ysundirilgan edi. Shuningdek, arbitraj sudi “davlat tartibotni umumiy amalga oshiruvchi tashkilot sifatida, ommanning farovonligini yanada yaxshilash maqsadida, hech qanday diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymagan holda tartib o‘rnatsa, xorijiy kompaniyaga kompensatsiya to‘lash majburiyatini olmaydi” degan xalqaro huquq qoidasiga alohida e’tibor qaratdi. Sud mazkur ishda yuqorida keltirilgan qoidalarga asoslangan holda vaziyatni talqin qilish lozim deb topadi. Albatta, bunday vaziyatlarda qanday chora-tadbirlar kompensatsiya to‘lash majburiyatini yuzaga keltirmaydigan chora-tadbirlar ekanligi aniq yoritib berilmaganligi sababli investitsion nizolarni hal etishda, ularning tabiatini va vaziyatiga baho bergan holda sud tomonidan kompensatsiya to‘lash yoki to‘lamaslik chorasi deb topilishi mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz zarur. Ushbu nizoda Arbitraj sudi Chexiya tomonidan IPB bankining davlat boshqaruviiga olinishi chorasi “davlat tomonidan ommaviy faravonlikni ko‘zlagan holda amalga oshirilgan chora” sifatida baholadi va xalqaro odat huquqi bo‘yicha kompensatsiya to‘lash majburiyati yuklanmasligini ta’kidladi. Bu esa Chexiya tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar BITning 5-moddasidagi tortib olishga to‘g‘ri kelmasligini anglatar edi.

Adolatli va xolis munosabatda bo'lish. Mazkur ishda qo'llanilayotgan BITning 3-moddasi 1-qismida mezbon mamlakatning investor mulkiga nisbatan adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyati mavjud bo'lib, u xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezoni bilan bir xil yoki farqlanishini aniqlash talab etildi. Sud, mazkur modda xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezoni bilan bir xil emasligini ta'kidladi. Mazkur BITning 3-moddasida belgilangan adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezoni haqida sud shunday deydi: ushbu belgilangan mezon xorijiy investitsiyaning kelajagi bilan bирgalikda shartnomaga taraflari bo'lgan ikki mamlakat o'rtaSIDAGI iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishni ham maqsad qilganligi bois, chet el investorini haddan ortiq himoya bilan ta'minlashni ham biroz tanqid ostiga oldi. Ya'ni sud, chet el investorini keragidan ortiq darajada himoya qilish, shartnomaga taraflari bo'lgan davlatlar o'rtaSIDAGI iqtisodiy hamkorlikka putur yetkazishi mumkinligini ham yoddan chiqarmaslik lozimligini ta'kidlab, bunday vaziyatning yuzaga kelmasligi uchun muhokama etilayotgan moddani, tarozining ikki pallasini ham barobar qo'yib, sharhlash lozim deydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyati, mezbon mamlakat tomonidan ommaviy manfaatni himoya qilish uchun qabul qilinadigan chora-tadbirlarni unga tegishli bo'lgan huquq ekanligini rad etmagan holda, chet el investorining o'zi kiritgan investitsiyadan kutgan foydasiga putur yetkazmay, unga adolatli munosabatda bo'lish orqali xorijiy investoring kapitalini himoya bilan ta'minlashni ham talab etadi. Mazkur ishda esa Chexiya hech qanday asosli sabablarsiz IPB bankiga nisbatan qolgan uchta yirik bankdan farq qiluvchi choralarни qo'lladi va bu bilan u da'vogarning investitsiyasidan kutganlariga putur yetkazdi. Demak, bu harakati bilan u adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyatini bajarmadi deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, Chexiya IPB, Saluka, Nomura tomonidan yuborilgan takliflarni ham adolat va oshkorali kabi umum tan olingan yo'llar bilan ko'rib chiqmadi, shuningdek IPB, Saluka, Nomura bilan tegishli va mos keladigan usullarni qo'llagan holda muzokaralar olib borishdan bosh tortdi. U bu harakatlari bilan ham da'vogarning umidlariga putur yetkazdi hamda adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyatini buzdi.

Asossiz aralashishning taqiqlanishi. Mazkur ishda qo'llanilayotgan BITning 3-moddasi 1-qismi asossiz va kamsituvchi choralarни qo'llagan holda shartnomaga taraflari bo'lgan mamlakatlarning investorlari tomonidan ularning investitsiyalari boshqaruviga zarar yetkazmaslikni shartnomaga taraflari bo'lgan davlatlardan talab etadi. Biroq Chexiya adolatli va xolis

munosabatda bo'lish majburiyatini buzish bilan investor faoliyatiga asossiz aralashmaslik majburiyatini ham buzmoqda. Bundan tashqari, IPB banking boshqaruvi yomonlashganligi haqidagi xabarlarni tarqatish bilan asossiz aralashmaslik majburiyatiga zid harakat qilganini aytib o'tishimiz lozim.

Yetarli darajada himoya va kafolatlar bilan ta'minlanish. Mazkur ishda qo'llanilgan BITning 3-modda 2-qismi bo'yicha sud quyidagilarni aytib o'tadi. Mazkur moddaning 2-qismida shartnoma taraflaridan ularning investorlari investitsiyasiga nisbatan yetarli darajadagi himoya va kafolatlar taqdim etilishi talab etilgan. Bu esa investitsiya kirib kelayotgan mezbon mamlakatdan himoya obyekti hisoblanmish investitsiyaga nisbatan tegishli chora-tadbirlarni qo'llagan holda uning mulklerini saqlab qolish majburiyatini yuklaydi. Mazkur nizoda IPBning aksiyalar savdosini to'xtatib qo'yilishi hamda politsiya tomonidan tintuvni amalga oshirilishi qonuniy bo'lib, ikki harakat ham yetarli darajada himoya va kafolatlar bilan ta'minlash majburiyatini buzmoqda deb hisoblash uchun hech qanday asoslar mavjud emas.

Sud qaroriga sharh

Mazkur ish yapon kompaniyasi birinchi marta investitsion arbitrajga murojaat qilgan ish sifatida ham ahamiyatlidir.

Adolatli va xolis munosabatda bo'lish (Fair and Equitable Treatment) majburiyati. BIT hamda Mintaqaviy savdo kelishuvlarining (Bundan keyingi matnda (Regional Trade Agreement) RTA) investitsiya bilan bog'liq normalari, investitsiyani qabul qiluvchi shartnoma ishtirokchisi bo'lgan davlat va xorijiy investor investitsion mulkka qanday munosabatda bo'lishi lozimligi haqida bir qancha majburiyatlarni belgilab beradi. Ushbu majburiyatlardan adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyati biz ko'rib chiqayotgan ishda nizoning asosiy masalasi hisoblanadi. Mazkur majburiyat ko'plab BIT hamda RTAlarda o'z aksini topishiga qaramay BIT va RTAlardagi adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezonini hamda xalqaro odat huquqidagi chet elliiklar bilan bog'liq bo'lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qo'llaniladigan minimum standartlar mezonini o'rtaqidagi aloqadorlik ko'p hollarda muammoli masala sifatida qaraladi.

Ushbu ishda qarshi da'vo bilan chiqayotgan taraf BITda belgilangan adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezonini xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezonidan umuman farq qilmasligini ta'kidlaydi.

Biroq arbitraj ushbu BIT xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezoni haqida aniq belgilamaganligi sababli BITda belgilangan himoya qiluvchi mezonnini xalqaro odat huquqidagi minimum standartlardan farq qiluvchi o'ziga xos mezon sifatida talqin qiladi. Bundan tashqari, arbitraj sudiadolatli va xolis munosabatda bo'lish mezoni xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezondan ko'ra ko'proq himoya talab qilishi mumkin bo'lgan mezon ekanligini ta'kidlaydi.

Boshqa tarafdan ushbu ishda qo'llanilayotgan BITdan farqli ravishda xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezoni o'z normalarida aniq ifodalab, u bilan mos keluvchi adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyatini yuklovchi BIT va RTA lar ham mavjuddir. Misol sifatida, mintaqaviy shartnomaga bo'lmish NAFTAni keltirishimiz mumkin. Unda shartnomasi ishtirokchisi bo'lidan davlatga boshqa ishtirokchi mamlakat investoriga nisbatan xalqaro huquqqa asoslangan holda munosabatda bo'lish majburiyati yuklanadi. Albatta, NAFTAda belgilangan adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezoni to'g'risida ham u xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezoni bilan mos keluvchi va undan farq qilmaydigan mezoni yoki undan farq qiluvchi va undan ko'ra ko'proq himoyani talab etuvchi mezon ekanligi borasida bir qancha tortishuvlar bo'lidan. Shunda NAFTAning Erkin savdo bo'yicha komissiyasi NAFTAdagi mezon xalqaro odat huquqidagi minimum standartlar mezondan ko'ra ko'proq himoya talab etadigan mezon emas degan qarorini e'lon qildi va bu masalaga ma'lum bir darajada nuqta qo'ydi.

Adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyati haqida so'z ketar ekan, ushbu majburiyat amalda qay darajadagi himoyani talab etishi to'g'risidagi bahs ham mavjud. Biz ko'rib chiqayotgan nizoni hal etgan arbitraj sudi ham boshqa arbitraj sudlari kabi "mantiqiy sababga asoslanmagan va adolatsiz, diskriminatsiya qiluvchi chora-tadbirlarni qo'llash orqali xorijiy investor oldinga qo'yan maqsad va manfaatlariga putur yetkazish adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezoni buzishdir" deb hisobladi. Shu bilan birgalikda, arbitraj sudi yana bir masalaga e'tiborini qaratdi. Uning xulosasiga ko'ra mazkur nizoni hal etishda qo'llanilayotgan BITning umumiyligi maqsadlaridan kelib chiqib, xorijiy investor manfaatlarinigina hisobga olib unga haddan ortiq himoya taqdim etishdan tiyilish hamda adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyatini buzganlik holatini tahlil qilishda mezbon mamlakat manfaatlarini ham hisobga olish adolatdan bo'ladi. Albatta, ko'plab BITlar mazkur nizoda qo'llanilayotgan BIT kabi keng doiradagi maqsadlarni o'zida mujassam etganligi bois, mazkur arbitraj sudining xulosalarini pretsedent sifatida

kelgusi ishlarda ham qo'llash mumkin. Ammo yana bir narsani unutmaslik lozimki, har bir BITda adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyatining mazmuni uning amalda qanday holatlarda tatbiq etilishi bilan ham farqlanadi.

Mezbon mamlakatning boshqa majburiyatları. Investitsiyaga nisbatan taqdim etiladigan huquqiy himoya mezonlaridan bo'lgan adolatli va xolis munosabatda bo'lish majburiyatidan tashqari xalal berishni to'xtatish majburiyati hamda yetarli darajada himoya va kafolatlar taqdim etish majburiyati ham mavjud bo'lib, bularning ma'nosini to'laqonli oshib berish, hali hamon muammo bo'lib kelmoqda. Asosli sabablarsiz va kamsituvchi choralar qo'llagan holda halal berish va uni to'xtatish majburiyati haqida arbitraj sudi shunday fikr yuritadi. Bu majburiyat mazmun jihatidan adolatli va xolis munosabatda bo'lish mezonidan ko'p ham farq qilmaydi, biroq u noto'g'ri qo'llangan chora-tadbirlarning amalda yetkazadigan ta'siriga katta e'tibor qaratuvchi vosita ekanligini bildiradi. Shuningdek, mazkur arbitraj sudi, yetarli darajada himoya va kafolatlar taqdim etish majburiyati haqida, u majburiy kuch orqali, o'zgalarning noqonuniy aralashuvidan investitsiyaning moddiy tarkibiy qismini huquqiy himoya qilishni talab etuvchi majburiyatdir degan fikrni taqdim etadi. Albatta, arbitraj sudining yuqoridaq majburiyatlar borasida taqdim etgan xulosalari pretsedent sifatida foydalanish uchun yetarli bo'lsa-da, avval ta'kidlaganimizdek, BITlardagi normalar va belgilangan majburiyatlar bir-biridan mazmun jihatidan farq qiladi. Shu sababli ham ularni tahlil qilishga alohida yondashuv bilan qarash zarur.

Biz ushbu ish bo'yicha izohlarni taqdim etishda yana bir holatga e'tiborimizni qaratishimiz zarur deb topdik. Ushbu ishda arbitraj sudi Chexiya tomonidan qo'llangan chora-tadbirlarni tortib olish sifatida tan olmadi va Chexiya hech qanday kompensatsiya to'lamasligi haqida qaror chiqardi. Shuningdek, arbitraj sudi BITdagagi "tortib olish" iborasining ma'nosи ekspropriatsiyaga to'g'ri kelishi va ularni farqlash shart emasligini ta'kidladi.

Protsessning yakuni. Arbitraj sudi, Chexiya Nomuraga to'lashi lozim bo'lgan kompensatsiya to'g'risida keyingi ikkinchi bosqichda qaror chiqarishini aytganiga qaramay 2006-yil 30-noyabrda Nomura va Chexiya o'rtaida yarashuv bitimi tuzildi va protsess o'z yakuniga yetdi. 2008-yil 10-iyunda Nomura Chexiya tomonidan kompaniyaga 2.800.000.000 chek kronasi to'langanligini rasmiy ravishda e'lon qildi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Hozirgi kunda O‘zbekistonda xorijiy investorlarni himoya qilish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. O‘zbekiston ishtirokchisi bo‘lgan qanday BIT va MITlarni bilasiz?
3. O‘zbekiston ishtirokchisi bo‘lgan BIT hamda MITlarni toping va ularda “adolatli va xolis munosabatda bo‘lish majburiyati” mavjud yoki mavjud emasligiga e’tibor qarating.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Georgiyev. G.S., “The Award in Saluka Investments vs Czech Republic”, in Alvarez. G.A & Reisman. W.M. (eds), The Reasons Requirement in International Investment Arbitration (2008), p. 149.

XII. Xalqaro investitsiya huquqi. Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejimning mohiyati – Avgustin Maffezini ishi.

2000-yil 25-yanvar

(*Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain*

(ICSID Case No. ARB/97/7. 25.01.2000))

(A.Xakimov)

Nizoning vujudga kelishi. 1989-yilda argentinalik investor Mr. Maffezini 70% hissaga ega bo‘lgan holda Ispaniya bilan hamkorlikda Ispaniya hududida kimyoviy mahsulotlar (EAMSA) ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Kompaniyaning qolgan 30% kapitali Ispaniya moliyaviy tashkiloti bo‘lmish SODIGAga tegishli edi. Shu vaqtidan boshlab ular birgalikda kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishda hamkorlik qila boshladi. 1992-yil kimyoviy zavod qurilishi va EAMSAning boshqa operatsiyalarini kompaniyaning moliyaviy inqirozi tufayli to‘xtatib qo‘yiladi¹. 1997-yilning 18-iyulida Maffezini yuqoridagi inqirozga SODIGA tomonidan olib borilgan noto‘g‘ri operatsiyalar sabab bo‘lganligini hamda SODIGAning amalga oshirgan harakatlari aslida Ispaniyaga tegishli ekanligini aytib, Argentina va Ispaniya o‘rtasidagi BIT qoidalari buzilgan deb Investitsion nizolarlarni hal etish markazi (ICSID²)ga da’vo bilan murojaat qildi.

Maffezini Argentina va Ispaniya o‘rtasidagi BITning 10-moddasiga asosan ICSIDga da’vo bilan chiqdi. Ushbu modda, shartnoma taraflari bo‘lgan davlatlardan birining investorini va ikkinchi shartnoma tarafi bo‘lgan davlat o‘rtasida nizo yuzaga kelgan paytda, nizo Xalqaro Arbitraj (ICSID yoki UNCITRAL)da ko‘rib chiqilishini belgililar edi. Biroq, xalqaro arbitrajga murojaat etishdan avvalgi shart sifatida, nizo bo‘yicha mezbon mamlakat sudida ish ko‘rib chiqilishi keltirilib, 18 oy ichida mezbon mamlakat sudi nizoga oid yakuniy qarorni chiqarmagan hollardagina investor xalqaro arbitraj sudiga murojaat qilishi mumkinligi qat’iy qoida

23-rasm. Ispaniya.



¹ *Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain* (ICSID Case No. ARB/97/7) para-3.

² ICSID – Investitsion nizolarini hal qilish markazi. 1966-yil Jahon Banki huzurida xalqaro investitsion nizolarlarni hal etish maqsadida tashkil etilgan. Bosh qarorgohi Vashingtonda joylashgan.

sifatida o'rnatilgan edi. Maffezini esa mezbon mamlakatning sudida ish ko'rilmasdan avval ICSIDga da'vo arizasi bilan chiqqanligi bois Ispaniya ICSIDning mazkur ishga nisbatan yurisdiksiyasi mavjud emas degan qarshi da'vo bilan chiqadi. Ispaniyaning bunday da'vosiga nisbatan Maffezini quyidagilarni keltirib o'tadi: avvalo, ko'rib chiqilayotgan ishda qo'llanilishi lozim bo'lган asosiy hujjat ikki davlat o'rtasidagi BITning 4-moddasi 2-qismi "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim"ni belgilab beradi. Ispaniya tomonidan uchinchi davlat bilan imzolangan, ya'ni, Ispaniya – Chili o'rtasidagi ikkitomonlama investitsion shartnomaning arbitraj kelishuvi to'g'risidagi moddasiga asoslangan holda nizoni ICSID ko'rib chiqish vakolatiga ega ekanligini va ish uning yurisdiksiyasiga topshirilishi lozimligini talab qildi. Demak, Ispaniya va Chili o'rtasidagi shartnomaning arbitraj kelishuviga ko'ra, investor to'g'ridan to'g'ri ICSIDga nizo bo'yicha da'vo bilan chiqishi belgilangan edi. Maffezini esa, aynan mana shu qoida uchinchi davlat investoriga undan ko'ra ko'proq imkoniyat yaratib berayotganligini vaj qildi. Shu sababli ham, Ispaniya va Argentina o'rtasida tuzilgan ikkitomonlama investitsion shartnomaning "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" to'g'risidagi moddasiga tayanib, Maffezini ham ichki sndlarga da'vo qilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri ICSIDga chiqishi mumkinligini aytadi. Biroq Ispaniya Maffezininining ushbu da'vosiga qarshi Ispaniya va Argentina o'rtasidagi BITning "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" to'g'risidagi moddasi faqatgina moddiy norma bo'lib, u arbitraj kelishuvi kabi protsessual munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmasligini keltiradi.

Ammo Xalqaro arbitraj ushbu nizo bo'yicha o'zining yurisdiksiyaga ega ekanligini belgiladi.

Sud qarorining ahamiyatga molik bandlari

1) "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim"ning yashiringanlik doirasi.

Aynan ushbu qoidaga o'xshash bo'lган tamoyillar (*ejusdem general principles*) nuqtayi nazaridan, "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasi tatbiq etiladigan masalalar asosiy shartnomada belgilanib, ushbu masalalar boshqa bir uchinchi mamlakat bilan tuzilgan shartnomalarda nisbatan qulayroq qilib belgilangan bo'lsa, bunday qulayroq qoidalar asosiy shartnomadan foyda ko'rishi mumkin bo'lган tarafga nisbatan ham tatbiq etiladi. Juda ham ko'plab ikki tomonlama investitsion shartnomalarda "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasi nizoni hal etishda qo'llaniladigan qoida sifatida aniq qilib belgilab qo'yadi. Boshqa

tomondan, shartnomadan kelib chiqadigan har qanday huquq yoki shartnomadan kelib chiqadigan har qanday munosabatga mazkur qoida tatbiq etilishini belgilab qo'yuvchi BITlar ham mavjud. Mazkur ishda qo'llanilayotgan Ispaniya–Argentina BITi ham aynan shunday shartnomalardan hisoblanadi.

Nizoni hal qilish uchun tatbiq etilayotgan BITda “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi belgilanmagan yoki qanday holatda qo’llanilishi belgilanmagan bo‘lsa-da, hozirgi kunning nizolarni hal etish tizimi bu muammoning yechimini allaqachon topib bo‘lgan. Bugungi kunda bu turdagи nizolarni hal etuvchi sudlar investorning huquqlarini kuchli himoya etishga asosiy e’tiborni qaratadi va “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi investor davlati va mezbon mamlakat o‘rtasida tuzilgan BITda belgilanmagan bo‘lmasa ham, boshqa bir uchinchi mamlakat va mezbon mamlakat o‘rtasida tuzilgan BITda investorga nisbatan qulayroq rejim o‘rnatilgan bo‘lsa, aynan o‘sha BIT qoidalarini tatbiq etishi mumkin bo‘ladi (p 41-56).

2) “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasining chegarasi.

Biroq, “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim”ning funksiyalari ommaviy tartib nuqtayi nazaridan (public policy consideration) bir qancha darajada chekланади. Birinchidan, agarda davlat o‘z ichki sud tizimidan

24-rasm. ICSIDda sud jarayoni.



foydalanishni nizoni hal etishda yordam sifatida taqdim etayotgan va bu arbitrajga murojaat qilishning bir sharti sifatida qo‘yilayotgan bo‘lsa, boshqa bir uchinchi davlat bilan tuzilgan BITni asos qilib bu qoidani aylanib o‘tish mumkin emas. Ikkinchidan, davlat sudida nizoni hal etish yoki arbitrajda nizoni hal etish masalasini shartnoma tuzuvchi davlatlar

tanlaydilar va bu nizoni hal etish mexanizmi bo‘yicha yakuniy kelishuvga erishilganini anglatadi. Uchinchidan, nizoning asosi bo‘lgan BITda nizoni hal etuvchi arbitraj sifatida ICSID yoki boshqa bir arbitraj tanlangan bo‘lsa, “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasiga tayanib, boshqa arbitrajda ishni ko‘rib chiqish bo‘yicha da‘vo qilish mumkin emas. To‘rtinchidan, shartnoma tarafi protsessual qoidalarni o‘zida jamlagan va yuqori darajada tashkillashtirilgan arbitraj tizimi (masalan, NAFTA) bo‘yicha kelishuvga erishgan bo‘lsa, bu shartnoma tarafining aniq xohish-irodasini namoyon etadi va bunday holatda ham “Eng ko‘p qulaylik

tug‘diruvchi rejim” qoidasiga tayanib, nizoni hal etuvchi arbitraj o‘zgartirilishi mumkin emas. Albatta, mazkur holatlarda “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” vositasida qo‘lga kiritiladigan huquq va foydani o‘z manfaatini ko‘zlab shartnomaning maqsadiga zarar yetkazuvchi treaty shopping¹dan farqlash zarur (p 62-63).

Xulosa

Argentina–Ispaniya BITida belgilangan “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasini nizoni hal qiluvchi qoida sifatida talqin qilish mumkin. Shu sababli investor Chili–Ispaniya BITi unga nisbatan qulayroq rejim tug‘dirayotganligini vaj qilib, Ispaniya ichki sudlariga murojaat qilmasdan, bevosita xalqaro arbitrajga da’vo bilan chiqishi mumkin. Argentina–Ispaniya BITida belgilangan avvalo ichki sudlarda ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha shartli qoidasi, ushbu shartli qoidaning kontekstidan ham, uning loyihasidan ham va boshqa huquqiy kelishuvlar yoki davlatning keyingi harakatlaridan ham ommaviy tartib bilan bog‘liqlikni o‘zida aks ettirmaydi. Shu boisdan, ICSID mazkur ishni o‘z yurisdiksiyasiga oladi (para 64).

Sud qaroriga sharh

1) Ishga doir qo‘srimcha faktlar. Avgustin Maffezini Argentina – Ispaniya o‘rtasidagi ikkitomonlama investitsion shartnomasining (BITning) buzilishi bo‘yicha Ispaniyaning ustidan ICSID Xalqaro arbitrajiga murojaat qilar ekan, uni shunday asoslaydi: SODIGA o‘z harakatlari orqali Ispaniya qirolligiga bo‘lgan ishonchini oqlash maqasadida mazkur loyihaning sarf-xarajatlari haqida noto‘g‘ri ma’lumot bergenlikda aybladi. Narxlar aslida baholanganidan ko‘ra yuqori darajada bo‘lganligini ma’lum bo‘ldi².

Shuningdek, Maffezini ko‘rsatib o‘tdiki, 1991-yilning oxirida Maffazinining shaxsiy bank hisobidan 30 mln ispan pesetasi EAMSAga vaqtincha qarz sifatida SODIGAning EAMSAdagi vakili buyrug‘i bilan noqonuniy o‘tkazib berilgan. Shunda tribunal ruxsatsiz amalga oshirilgan bank pul o‘tkazmasidan tashqari deyarli barcha da’voni chetga surib qo‘ydi³.

¹ Treaty shopping – bu tomonlardan birining o‘z foydasi yo‘lida ikki o‘rtada imzolangan shartnomadan qochib, o‘z manfaati uchun qulay bo‘lgan boshqa bir shartnoma kelib chiqqan nizoga nisbatan qo‘llanilishini ko‘zlab harakatlanishi.

² *Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain* (ICSID Case No. ARB/97/7) para-16.

³ <http://isdsblog.com> *Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain* (ICSID Case No. ARB/97/7) case summary. (Ma’lumot ko‘rildigan vaqt: 13.02.2018).

Arbitrajda ko'rsatilishicha, oxirgi vaziyat aslida Ispaniyaga yaxshi ayon edi. Bitimni saqlab qolish, da'vogarga adolatli munosabatda bo'lish uchun Ispaniya "BITdagi Ispaniyaning majburiyatlarini"ni qat'iy belgilab qo'ygan. Mazkur bitim bekor qilinishining badali sifatida Sud Ispaniyaga Maffezinining bankdagi ko'rsatilgan pulini va kapitalidagi ulushni to'lashni buyuradi. Mazkur holat Sud bergen izohning juda ham qisqaligi va kompetsatsiya to'loving rad etib bo'lmaydigan miqdoriga ko'ra hech qanday muhim ahamiyatli emas edi. Faqat investitsiyadagi ulush miqdori e'tiborni tortadi, chunki sud investor da'vogarning kapitalidagi ulushi qiyamatidan turli ko'rsatkichda foydalangan¹.

Mazkur ishda da'vogarning da'vosidagi qo'shimcha dalillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Davogar Mr Maffezini, ICSID arbitrajida Argentina – Ispaniya BIT bitimi yuzasidan Ispaniyaga qarshi da'vo bilan chiqdi. Investorning fikriga ko'ra: ular boshlagan loyiha Ispaniya hukumatidan olingan subsidiya va EAMSA hamda SODIGAdan olingan qarz evaziga 1992-yilgacha tugatilishi kerak edi. Lekin, biroz boshqacha holat reallikda yuz berdi. Ya'ni

1) EAMSA Ispaniyadan yer sotib oldi va kimoyoviy zavod qurishni boshladidi. Biroq loyihaning xarajatlari o'sib borayotgani, EAMSAning moliyaviy qiyinchiliklari tufayli 1992-yil martida Maffezini zavod qurilishini to'xtatish va EAMSA ishchilarini tarqatib yuborishga buyruq berdi;

2) 1991-yil noyabrda Maffezinining shaxsiy bank hisobraqaminidan 30 mln pesetasi Maffezinining umumiyligi vakolat doirasida faoliyat yuritayotgan SODIGAning EAMSAdagagi vakilining buyrug'iga asoson bajarilganligi aniqlandi².

Shuningdek, mazkur ishni yana tahlil qiladigan bo'lsak, Maffezini 1997-yilda arbitraj e'tiborini SODIGAning to'lab bo'lmaydigan qarzlarini masalasini hal qilishga qaratganiga guvoh bo'lamiz. Bunda u quyidagi da'volar bilan chiqadi:

1. SODIGA ijtimoy tashkilot maqomiga egaligi sababli uning barcha harakatlari, jumladan noqonuniy pul o'tkazmalari ham Ispaniya hukumatiga ma'lum bo'lgan;

2. Loyiha SODIGAning noto'g'ri maslahati oqibatida muvafaqqiyatsizlikka ucharagani va unga ketadigan xarajatlar aslida baholanganidan ko'ra yuqori bo'lganligini vaj qilib ko'rsatadi;

¹ [http://isdsblog.com/Emilio%20Augustin%20Maffezini%20v.%20The%20Kingdom%20of%20Spain%20\(ICSID%20Case%20No.%20ARB/97/7\)%20case%20summary.%20\(Ma'lumot%20ko'rilmagan%20vaqt%2013.02.2018\)](http://isdsblog.com/Emilio%20Augustin%20Maffezini%20v.%20The%20Kingdom%20of%20Spain%20(ICSID%20Case%20No.%20ARB/97/7)%20case%20summary.%20(Ma'lumot%20ko'rilmagan%20vaqt%2013.02.2018))

² *Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain* (ICSID Case No. ARB/97/7) case summary. S. Ripinsky with K. Williams, Damages in International Investment Law (BIICL, 2008)

3. SODIGAning atrof-muhitga ta'sirini o'rganish bo'yicha tashkilotning xulosalari natijasida kelib chiqadigan qo'shimcha soliq va xarajatlar uchun ham javobgar bo'lishi kerakligini va SODIGA xulosa natijasi chiqishidan avval investitsiya kiritishiga bosim o'tkazganini ma'lum qiladi;

4. Maffezini 30 mln ispan pesetasini qarz sifatida EAMSAga o'tkazishga qarshi edi va bu noqonuniy deb topildi¹.

Mazkur ishda yana bir muhim jihat shundan iborat ediki, ushbu vaziyatda SODIGA barcha pullarni to'lashga majbur bo'lib, Maffezini esa bu da'vo qilingan zararni qoplashni xohlamas edi.

Ishni ko'rib chiqish jarayonida Sud hisobraqamdan 30 mln o'tkazilganidan tashqari barcha da'veni rad etadi. Chunki, mazkur pul o'tkazmasini Maffezini tasdiqlamaganligi ayon bo'ldi. SODIGAning EAMSAdag'i vakili funksiyalari Ispaniya hukumatiga avvaldan ma'lum bo'lgan edi. Bu esa aslida bila turib investorning mulkiga daxl qilish edi. Shu sababli ham Sud mazkur holatni BITning Ispaniya tomonidan buzilishi deb baholadi va ishni Maffezinining foydasiga hal etdi².

2) "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasining mazmuni.

"Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" deganda, davlat biror-bir davlat yoki uning fuqarolariga, tovarlariga nisbatan uchinchi bir davlat yoki uning fuqarolari, tovarlariga nisbatan taqdim etadigan qulayliklardan kam bo'lmagan qulayliklar taqdim etishi tushuniladi. "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidalari azaldan dengiz savdolari to'g'risidagi konvensiyalarda mavjud bo'lgan va ular davlatlarga boshqa davlatlar va ularning fuqarolariga "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim"ni taqdim etish majburiyatini yuklagan. "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasi davlatlarga aniq belgilangan standartlar asosida qulayliklar taqdim etuvchi majburiyat hisoblanmish "adolatli va xolis munosabatda bo'lish" qoidasidan farq qiladi. Chunki bunda uchinchi mamlakatga taqdim etiladigan qulaylikka qarab shartnoma sheriklaridan bo'lgan davlatga nisbatan taqdim etiladigan qulayliklarning darajasi ham o'zgaradi. Masalan, A davlati B davlati bilan ikkitomonlama investitsion shartnoma imzolab, uning investorlariga ma'lum bir qulayliklarni taqdim etadi. Keyinroq, A davlati C davlati bilan ham huddi shunday ikkitomonlama investitsion shartnoma imzolaydi va uning investorlariga ham bir qancha

¹ Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain (ICSID Case No. ARB/97/7) case summary. S Ripinsky with K Williams, Damages in International Investment Law (BIICL, 2008) page-2.

² italaw.com/documents/Maffezini-Award. Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain (ICSID Case No. ARB/97/7) para 94-100.

qulayliklar taqdim etadi. Agarda, A davlatning C davlatga va uning fuqarolariga nisbatan taqdim etgan qulayliklari B davlatga hamda uning fuqarolariga taqdim etgan qulayliklaridan ko‘proq deb topilsa, A davlat hamda uning fuqarolariga ham huddi shunday qulayliklarni yaratib berishi lozim. Demak, bunday vaziyatda A davlat hamda C davlat investori o‘rtasida nizo chiqqan taqdirda, A va C davlat o‘rtasidagi shartnoma asosiy shartnoma sifatida nizoni hal etish uchun tatbiq etiladigan bo‘lsa (basic treaty), A va B davlat o‘rtasidagi shartnoma esa uchinchi taraf shartnomasi (third-party treaty) sifatida nizoga tatbiq etiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, bir davlatga va uning fuqarolariga taqdim etilgan “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim”, boshqa bir davlat va uning fuqarolariga taqdim etilgan “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” dan ham qulayroq bo‘lsa, aynan qulayroq rejim nizoni hal etishda qo‘llaniladi va bu shartnoma qoidalarini yanada takomillashib borishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, ma’lum bir davlat tomonidan bu rejimga amal qilinishi ko‘plab xorijiy mamlakatlar investorlariga nisbatan tenglikni saqlashga yordam beradi hamda o‘zaro savdo, investitsion munosabatlarda mustaqillik va raqobatni ta‘minlab beradi.

3) Nizoni hal qilishga qaratilgan qoidalar va “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim”.

1) Mazkur ishda asosiy muammo bo‘layotgan masala “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasiga asosan qulaylik yaratib berish chegarasini aniqlash hisoblanadi. Investitsion shartnomada o‘rnatilgan “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi investorning iqtisodiy faoliyatining amaliy jabhalarida unga qulayliklar yaratishini ko‘zda tutuvchi konsession shartnoma mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, investor davlatlar o‘rtasida tuzilgan BITlarni qo‘llash mumkin bo‘lgan protseduraga duch kelmaguncha ushbu qoidani nizoni hal etish uchun qo‘llash mumkinligini aniq bilmagan deb aytishimiz mumkin.

Ushbu ish bo‘yicha qabul qilingan qaroring 1-qismiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi investorga nisbatan faqatgina protsessual jabhalarda tatbiq etilishi ta‘kidlangan. Demak, qarorda, avvalo, “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasining qo‘llanilish doirasiga aloqador bo‘lgan bir turdagи tamoyilga tayanilgan. Bu yerda bir turdagи tamoyil deganda, asosiy shartnomaning “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasiga aloqador bo‘lgan holatlar va ular bilan bir xil kategoriyaga kiruvchi holatlarni o‘z ichiga oluvchi “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” ning obyekti bo‘lgan tamoyil nazarda tutilmoqda. Shunday qilib, ushbu ishda, asosiy shartnoma

hisoblangan Argentina – Ispaniya BITida belgilangan “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi nizoni hal etish protsesiga aloqador deb aniq belgilanmagan bo‘lsada, shartnomadan kelib chiqadigan barcha munosabatlarga tatbiq etiladi hamda investor foydalana oladigan nizoni hal etish protsesi investorni himoya qilish bilan uzviy bog‘langanligi sababli “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi nizoni hal etish protsesini ham qamrab oladi deb topilgan.

Ushbu ish bo‘yicha chiqarilgan qarorning 2-qismida “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim”ning tayyorlanish bosqichiga e’tibor qaratildi. Biz ko‘rib chiqayotgan rejim ommaviy chora-tadbirlarni qo‘llash bilan bog‘liq holatlarda cheklansa-da, ushbu holatda Ispaniya boshqa davlatlar bilan tuzilgan BITlarida arbitrajga murojaat qilishdan avval ichki sndlardan o‘tish lozimligi to‘g‘risidagi qoidani belgilanmagan bo‘lib, bu ichki sndlardan o‘tish shartining ommaviy chora-tadbirlar va manfaat bilan aloqada emasligini anglatishi belgilandi. Demak, mazkur vaziyatda “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi ommaviy chora-tadbirlar va manfaat bilan bog‘liq bo‘lmay, hech qanday cheklanishlarga duch kelmas ekan.

2) Ushbu ish bo‘yicha chiqarilgan qaror, “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasining qo‘llanilish doirasi nizoni hal qilish protsesiga ham taalluqli ekanligini tan olinganligini anglatar edi. Shu sababli ham keyinchalik Siemens (ICSID Case No. ARB/02/8) ishida asosiy shartnomada belgilangan “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi uchinchi taraf shartnomasiga asoslangan holatda asosiy shartnomada belgilangan ichki sndlardan o‘tish sharti bekor qilinishi mumkinligi to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi. Biroq Salini (ICSID Case No. ARB/02/13) ishida ichki sndlarga murojaat qilish shartidan tashqari arbitraj kelishuvlari ham mavjudligi va bunday arbitraj kelishuvlari mayjud bo‘lgan paytda asosiy shartnomadagi “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasiga tayanib investorga qulayroq bo‘lgan uchinchi davlat shartnomasidagi arbitraj kelishuvi qoidalari tatbiq etilmasligi rad etilgan. Shunday qilib, sud amaliyoti ichki sndlarga murojaat qilish shartini “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasi vositasida inkor qilish mumkinligini tan olish bilan birgalikda, bu shartdan tashqari shartnomalarda belgilanadigan arbitraj kelishuvlarini “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim” qoidasiga asosan inkor qilib bo‘lmasligini ko‘rsatib berdi.

Shunga qaramasdan RosInvest ishida (SCC Case No. Arb V079/2005) asosiy shartnomada arbitraj bo‘yicha belgilangan qoidalarni cheklagan holda, Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim qoidasiga tayanib, investor uchun qulayroq rejimni taqdim etadigan nizoni hal qilish protsesini uchinchi taraf shartnomasini tatbiq etish mumkinligini tan oldi. Bu bilan sud yuqoridagi kabi

arbitraj kelishuvi hamda ichki sudsardan o'tish shartini bir-biridan farqlamadi. Shuningdek, ushbu ish bo'yicha chiqarilgan qaror kabi Bercschader ishida (SCC Case No. 080/2004) ham asosiy shartnomada belgilangan "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasini barcha holatlarda qo'llash mumkinligini ta'kidlash bilan birgalikda, nizoni hal etishda tatbiq etiladigan uchinchi taraf shartnomasi qoidalariga asoslanish tan olinmadi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur ishda ko'rib chiqilayotgan asosiy muammo bo'yicha sud amaliyotida ham yakdil qarash mavjud emas. Qo'shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki. Salini hamda Berschader ishlarida asosiy shartnomasi imzolanayotgan paytdagi shartnomaga taraflari bo'lgan davlatlarning xohish-irodalari asosiy o'ringa qo'yilgan bo'lsa, RosInvestda "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasini muhimroq o'ringa qo'yuvchi talqinni ko'rshimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, talqin qilish jarayonida ham yagona qarash mavjud emas ekan.

Xalqaro investitsiya huquqining alohida shakllantirilishi

Shunday qilib, "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasining qo'llanilish doirasi investitsion shartnomalarga qarab farq qilganligi bois ularni talqin qilishda yakdillik mavjud emas. Bunday holat investorlar tomonidan ham mezbon mamlakatlar tomonidan ham oldindan bashorat qilish yoki taxmin qilish imkoniyatini yo'qqa chiqarayotganligi tanqid qilib kelinmoqda. Ammo har bir BITda "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasining qo'llanilish doirasining farqlanishi va ularni alohidalaشتirish, BIT va MITlarni o'zining asosiy obyekti sifatida ko'ruchchi Xalqaro investitsiya huquqining zaruriy belgisi sifatida ham ko'rilishi mumkin.

Yana bir holatga e'tibor qaratishimiz lozimki, rejim qoidasi bilan bir xil kategoriyaga kiruvchi modda ham, uning so'zlar ketma-ketligi, konteksti, yaratilish tarixiga qarab bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, investitsion shartnomalarni talqin qiluvchi arbitraj sudsari ham har bir ish uchun alohida ad hoc sudsari tashkil etib yagona talqin etish tizimini yo'lda qo'yuvchi tashkilot emas. Xalqaro investitsiya huquqi bunday o'zgacha xususiyatlarga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, "Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim" qoidasining qo'llanilish doirasi ham turli darajada ekanligini anglab olish qiyin emas. Bundan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, rejim qoidasi bo'yicha yagona ta'rif berish murakkab va u moddaning tuzilishi, konteksti hamda yaratilish tarixiga qarab turlicha ta'riflanishi mumkin.

Kompensatsiya to‘lovi. Endi esa mazkur ishda investorning mulk huquqi buzilganligi davlatga qanchaga tushganligini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, sud kompensatsiyaning asosiy qiymati sifatida 30 mln ispan pesetasini to‘lanadigan badal puli deb belgilaydi.

Shuningdek, sud ishni ko‘rishda va davlatga belgilanadigan jarimani aniqlashda investitsiyadagi ulush borasida ham o‘zining xulosalarini chiqaradi. Sud Maffezinining investitsiyadagi ulushini qaytarib berilishini 1992-yil 4-fevraldan deb belgiladi. Arbitraj ulushlarni hisoblab chiqib mazkur muddatgacha Maffezinining depozit hisobiga yillik investitsiya to‘lovi foizlari mos ravishda tushirilgan deb topdi. Ulushning qiymati esa ESP 27, 641, 265 mlnga baholandi. Shuningdek, arbitraj belgilangan muddatdan o‘tib ketgani uchun to‘lanadigan qo‘srimcha foizlarni maksimal 60 kun ichida bajarilishi lozim deb topdi va (har bir kechiktirilgan) kuniga esa 6% etib belgiladi¹.

Mazkur ishni tahlil qilgan holda aytishimiz mumkinki, agarda mamlakat investorning mulkiga doir ishlarda ehtiyojkorlikka amal qilmasa, kattagina kompensatsiya to‘lashiga to‘g‘ri kelar ekan. Bundan tashqari, ushbu ishda ko‘rishimiz mumkinki, pul o‘tkazish aslida xususiy huquqqa taalluqli masala bo‘lishiga qaramay investor o‘z mulk huquqining buzilishini diskriminatsiyaga bog‘lab ICSIDga chiqmoqda.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qaysi davlatlar bilan ikkitomonlama investitsion shartnomalar tuzilgan?
2. O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy investorlar o‘rtasida yuz bergan qanday nizolarni bilasiz?
3. Sizningcha, “Eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim”i bo‘yicha yagona tushuncha va ta’rif ishlab chiqilishi kerakmi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Guido Santiago Tawil “Most favoured nation clauses and jurisdictional clauses in investment treaty arbitration” in International investment law for the 21st century: Essays in Honour of Christoph Schreuer (Christina Binder et al. eds. 2009), pp. 9–41.
2. Stephan W. Schill, “Most favoured nation clauses as a Basis of Jurisdiction in investment treaty arbitration: Arbitral jurisprudence at a crossroads” in Journal of World Investment & Trade Vol. 10 (2009), pp. 189 – 225.

¹ italaw.com/documents/Maffezini-Award. *Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain* (ICSID Case No. ARB/97/7) para 95.

XIII. Xalqaro jinoyat huquqi va inson huquqlari. Jinoyat sodir etgan shaxslarning topshirilishi va o'lim jazosiga oid Sooring ishi
(Soering Case, Judgement, ECHR, Series A, No.161, p.1)
(A.Umirdinov)

Faktlar xulosasi. Germaniya fuqarosi bo'lgan 18 yoshli Yens Sooring (Jens Soering) 1985-yil mart oyida Amerika Qo'shma Shtatlari (bundan keyin AQSH)ning Virjiniya shtatida ishqiy aloqalari bo'lgan qizning otonasini o'ldirib, qochib ketayotib Angliyada 1986-yil aprel oyida firibgarlik gumoni bilan qo'lga olinadi. Tekshirish davomida AQSHdagi qotillik yuzasidan gumonlanuvchi ekanligi ham aniqlanadi. Shundan so'ng Virjiniya shtati sudi Sooringga nisbatan qotillik jinoyati uchun ish qo'zg'atganligi sababli AQSH va Angliya o'rtasidagi ekstradiksiya qilishga oid bitimga muvofiq kerakli protseduralar boshlanadi. Angliya o'lim jazosini bekor qilgani uchun AQSHdagi o'z elchixonasi orqali ayblanuvchiga o'lim jazosini bermaslikka oid diplomatik kafolatni talab qiladi. AQSH prokuraturasi esa Angliya tomonining talabini sudyaga yetkazishga va'da bersa ham, ayblanuvchiga nisbatan o'lim jazosini so'ramoqchi ekanligini ma'lum qiladi. Shundan keyin Yens Sooringning asl mamlakati hisoblangan Germaniya tomonidan ham ayblanuvchini o'zlariga topshirish talabi yetkazilsa-da, Angliya birinchi bo'lib ekstraditsiya talabini qo'ygan AQSHga Sooringni jo'natish jarayonlarini davom ettiradi. Bundan norozi bo'lgan Sooring agar AQSHga ekstraditsiya qilinadigan bo'lsa, o'lim jazosi mavjud bo'lgan Virjiniya sudida o'zining sud qilinishini kutish muddati, undan keyin o'lim jazosining qo'llanilishini kutish muddati kabi holatlar bilan yuzma-yuz kelishini vaj ko'rsatib, bunday holatlar Yevropa inson huquqlari konvensiyasi(bundan keyin, Konvensiya)ning 3-moddasidagi qynoqqa solinish yoki g'ayriinsoniy muomala ko'rishga teng bo'lganligi uchun Konvensiyaga zid deya Yevropa Inson Huquqlari Komissiyasiga (bundan keyin, Komissiya) murojaat qiladi.



Komissiya esa Sooringning AQSHga ekstraditsiyasi Konvensianing 13-moddasi (samarali himoyani olish huquqi) ga xilof bo'lsada, 3-(qiynoqqa solinish va g'ayriinsoniy muomalaning taqiqlanishi) va 6-moddalariga (adolatli sud qilinish huquqi) xilof emasligi to'g'risidagi fikrini e'lon qiladi. Shundan so'ng ushbu ish bo'yicha Yevropa inson huquqlari Sudiga murojaat qilinadi.

Sud qaroridan

1. Jinoyatchining ekstraditsiyasi bo'yicha Konvensianing 3-moddasining tatbiq etilishi.

Ushbu ishdagi eng munozarali huquqiy nuqta – bu ekstraditsiya qilishni talab etayotgan davlat (bu ishda, AQSH)dagи huquqiy oqibat yoki u yerdagi jinoiy javobgarlik natijasida ekstraditatsiya qiladigan davlat (bu ishda Angliya)ning yurisdiksiyaside tashqarida inson huquqlari buzilishi yuzaga kelishi ehtimoli bo'lsa, Konvensianing 3-moddasiga ko'ra ekstraditsiya taqiqlanadimi yoki yo'qmi degan savoldir¹. Konvensiya

¹ Konvensiya 3-moddasi quyidagicha belgilaydi:

Статья 3 Запрещение пыток

Никто не должен подвергаться ни пыткам, ни бесчеловечному или унижающему достоинство обращению или наказанию.

o'zining 1-moddasiga ko'ra, unga a'zo davlatlarga o'zlarining hudadlaridagi, ya'ni yurisdiksiyalari ostidagi insonlarga Konvensiya belgilovchi huquq va erkinliklarni ta'minlashni talab etadi.

Konvensiya esa jismoniy shaxsni himoya qiluvchi ushbu xalqaro hujjatni uning obyekti va maqsadiga muvofiq beriladigan himoya samarali va amaliy bo'lishini inobatga olgan holda sharh qilinishi lozim. Sudning latent tarzdagi Konvensiya buzilishining bor yoki yo'qligi yuzasidan qaror qabul qilishi noodatiy holdir. Biroq agar Konvensiyaga a'zo davlatning ekstraditsiya talabi bajo keltirishi uni talab qilgan davlatda ayblanuvchining qiynoqqa solinishi, g'ayriinsoniy muomala ko'rishi yoki o'lim jazosiga hukm etilishi bo'yicha ishonarli dalillar mavjud bo'lgan holatlarda Konvensiya a'zosи bo'lgan davlatning xatti-harakatini olgan majburiyatlar bo'yicha muammoli vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin. Bunda ekstraditsiyani amalga oshirib ayblanuvchini Konvensiya taqiqlagan qiynoqlarga solinishiga sabab bo'lgan a'zo davlat (Angliya) bo'yicha Konvensiya to'g'ridan to'g'ri javobgarlikni keltirib chiqaradi.

2. Sooring ishidagi alohida holatlar bo'yicha 3-moddaning tatbiq etilishi muammosi

Bu masalada agar murojaat qiluvchi – Sooring Virjiniya shtati sudida o'lim jazosiga hukm qilinishi ehtimoli tasdiqlanadigan bo'lsagina, ushbu Sud ishning holati bo'yicha o'lim jazosining qo'llanilishini kutish holati 3-moddaga zid keladigan muomala ekanligini ko'rib chiqishi lozim.

O'lim jazosiga tortilishi ehtimoli borligi yoki yo'qligi haqida fikr yuritish paytida AQSH prokuraturasi xatti-harakatidan turli tuman holatlar ayon bo'ladi. Ayblanuvchining Virjiniya shtati sudi tomonidan aybdor deb topilishi holati bo'yicha Angliya allaqachon diplomatik kanallarni ishga solib, AQSH prokuraturasi orqali tegishli sudyadan o'lim jazosiga hukm qilmaslikni iltimos qilgan. Prokuratura esa ushbu iltimos "sudyaga yetkazish"ga oid va'da bergen. Biroq ushbu va'da orqali o'lim jazosi berilishining to'liq oldi olinganicha yo'q. Chunki, AQSH prokuraturasi o'ziga berilgan vakolatlardan foydalangan holda, dalillarni tekshirib o'lim jazosini talab qilmoqda. Bunday holatda ishni tekshirayotgan davlat organi, ya'ni prokuraturaning qaysarlik bilan o'z pozitsiyasini qo'riqlashi shuni ko'rsatadiki, ayblanuvchi Virjiniya shtati sudida o'limga hukm qilinib, "o'limni kutish holati"ga to'g'ri kelmaydi degan qaror qabul qilish uchun asoslar mavjud emas.

3. “O’lim jazosining qo’llanilishini kutish holati” va 3-modda taqiqlovchi g‘ayriinsoniy (g‘ayriinsoniy, insoniylikka xi洛of) muomala

3.1 Umumiyl tahlil

Shafqatsiz xatti-harakatlar Konvensiyaning 3-moddasiga zid kelganligi uchun aybdorga yetkazilishi lozim bo‘lgan azob eng oz darajada bo‘lishi lozim. Azobning eng oz darajasini esa muomala yoki jazoning xarakteri, holati, ijob usuli va yoinki jazolanuvchining jinsi, yoshi va sog‘liq holatidan kelib chiqib belgilash kerak. Bu yerda badanga yetkaziladigan og‘riqnigina emas, balki jinoiy jazo ijob etilgunga qadar uzoq muddat kutiladigan bo‘lsa, o‘limga hukm etilgan insonni qiyaydigan kutish kabi ruhiy azobni ham e’tiborga olish kerak¹. O‘lim jazosi – jazo sifatida 3-moddadagi qiyonoqning taqiqlanishi masalasi doirasiga kirishi yoki kirmasligi Konvensiyaning sharhlash qoidalariga muvofiq aniqlanishi zarur. Aslida o‘lim jazosi Konvensiya bo‘yicha ruxsat etilgan bo‘lib, uning 3-moddasi oly jazoni taqiqlamagan. Biroq o‘lim jazosiga doir hukm 3-modda bo‘yicha umuman muammo tug‘dirmaydi deb bo‘lmaydi. Misol uchun, o‘lim jazosining berilishi, ijob usuli, jazo e’lon qilingan aybdorning shaxsiy holati, jinoyat va jazo o‘rtasidagi muvozanat, jazo ijrosini kutish davridagi ushlab turilishi holati kabilar bunday jazoni olgan shaxsga nisbatan Konvensiyaning 3-moddasi ta‘minlagan huquqlardan mahrum etilishiga olib kelishi mumkin. Virjiniya shtatidagi sud jarayonlari tugaganidan keyingi holatlar aybdor uchun qay darajada foydali va manfaatli bo‘lsa ham, jazoning tatbiq etilishini uzoq muddat kutish paytidagi doimiy ruhiy azob va o‘lim sharpasi bilan olishish kabi ruhiy holatlarga chidash talab etiladi.

3.2 Sooring ishidagi alohida holatlar va haqiqiy xavfning mavjudligi

Bunday holatda o‘lim jazosining ijob etilishi uchun uzoq muddat kutish va uning orasida doimiy ruhiy azob, shuningdek Sooringning shaxsiy holati, ayniqsa, yoshi va ruhiy holatini e’tiborga olinsa, uni AQSHga topshirish 3-moddada o‘rnatilgan jazo darajasini oshib o‘tuvchi munosabatga yo‘liqishining haqiqiy ehtimolini tug‘diradi. Ushbu ishdagi jinoyatchining ekstraditsiyasining asosli maqsadiga boshqa usullar orqali erishish mumkinmi, yo‘qmi masalasi ham ko‘rib chiqiladi. Shu sababli ham murojaat qiluvchini AQSHga ekstraditatsiya qilish qarori agar ijob etilsa, Konvensiyaning 3-moddasiga zid keladi.

¹ Virjiniya shtatida 1995-yilgacha o‘limga hukm qilinganlar elektr toki bilan o‘ldirilgan. Faqat 1995-yildan boshlabgina o‘ldiradigan ukoj qilish usuli joriy etilgan. Hozirda esa hukm qilinganlar ushbu ikki usuldan birini tanlash huquqiga ega. Ammo, 1989-yilda suhbu ish korilayotgan paytda faqat elektr bilangina o‘lim jazosi ijob etilgan. Sud ham shubhasiz bunga e’tibor qaratgan.

1) Xalqaro huquqda ekstraditsiya

Jinoyatchilarning ekstraditsiyasi, odatda, xalqaro shartnomalar bo'yicha yoki agar shunday shartnomaga mavjud bo'lmasa, xalqaro aloqalardagi o'zaro xalqaro hurmat (*international comity*) qoidasi bo'yicha talab qilgan davlatga jinoyatchining talab etilgan davlat tomonidan topshirilishi deganidir va bunday amaliyot uzoq tarixga ega. Albatta, shartnomaga mavjud bo'lmasa holatda talab etilsa-da, ushbu talabga javob berish yoki bermaslik jinoyatchi turgan davlatning xohishiga bog'liq bo'ladi. Bunday ishlarda davlatlar o'zarolik (*reciprocity*) prinsipi bo'yicha jinoyatchi (yoki ayblanuvchi)ni ikkinchi tomonga ekstraditsiya qiladi. Bundan tashqari, ekstraditsiya qilish taqiqlangan holatlar ham mavjud bolib, siyosiy jinoyatlar uchun qochib kelganlarni ushlab topshirmaslik qoidasi xalqaro huquqning umumiyligi prinsipi sifatida e'tirof etilgan (misol uchun, ASQH – Yaponiya o'rtaqidagi ekstraditsiya qilishga oid bitimning 4-moddasi). Qo'shimcha ravishda, ekstraditsiya qilinayotgan shaxs sodir etgan jinoyat ikkala davlatda ham jinoyat sifatida ko'riliishi, topshirilishi talab etilayotgan jinoyat yuzasidangina javobgarlikka tortilishi, topshirilishini talab etayotgan davlatning sud organlari tomonidan ko'rib chiqilishi natijasida topshirish yoki topshirmaslik bo'yicha qaror chiqariladi.

Kontinental huquq tizimidagi ko'pgina davlatlarda esa o'z fuqarosini topshirmaslik qoidasiga amal qilinadi. Havo kemalarini noqonuniy egallashga oid konvensiya (7-modda) va Qiynoqqa solinishning taqiqlanishiga oid konvensiya (5-modda 2-qism)da, jinoyatchilarning topshirilishi, agar topshirilmasa, o'z mamlakatida javobgarlikka tortilishi prinsipi (*aut dedere aut judicare – yo topshir yoki sud qil*) ko'zda tutilgan.

Ushbu ish yuzasidan chiqarilgan qarorning ahamiyati shundan iboratki, ayblanuvchiga o'lim jazosi berilishi muqarrar holatlarda o'lim jazosining tatbiq etilishini kutish holatiga tushib, qiynoq, g'ayriinsoniy muomalani taqiqlovchi Yevropa inson huquqlari Konvensiyasining 3-moddasiiga zid kelishiga qaror qilishidadir. Ushbu qaror sababidan ekstraditsiya qilmaslik sabablarining kengayishi uchun mantiqiy asos yuzaga keldi. 1990-yildagi BMTning ekstraditsiyaga oid Namunaviy bitimida jinoyatchini topshirishni talab etayotgan davlatda o'lim jazosi tatbiq etiladigan bo'lsa, talab qilinayotgan davlat ushbu talabni rad etishi mumkinligi o'rnatilgan (4-modda). 2003-yilda AQSH va Yevropa Ittifoqi o'rtaSIDA tuzilgan shu nomdagagi shartnomaning 13-moddasi ham yuqoridaagi kabi qoidani

o'rnatgan. O'zbekiston ham bir necha davlatlar bilan shunday shartnomalarni imzolagan. Shuningdek, bunday shartnoma 2018-yil may oyida Turkiya va O'zbekiston o'rtaida ham imzolangan bo'lib, u 2018-yil 2-iyul kuni ratifikatsiya qilingan va uning moddalarida ham shunday normalar ko'zda tutilgan.

2) Ekstraditsiya qilinishini talab qilayotgan davlatda inson huquqlarining buzilishi holati taxmin qilinadigan holatlarda ekstraditsiyaning ta'qiqlanishi.

Konvensiyaning 3-moddasida ko'zda tutilgan qyinoqqa tutilish yoki g'ayriinsoniy muomala ko'rish holatlarda ekstraditsiya qilmaslik qoidasi nafaqat jinoyatchilar yoki ayblanuvchilar uchun, balki chet elliklarning majburiy tashqariga chiqarish paytida ham amalga oshiriladi. Bunda agar mamlakatdan chiqarilayotgan shaxs jo'natilayotgan davlatda inson huquqlarining poymol etilishiga duch keladigan holatlarga ham tatbiq etiladi. Amaliyotda ham Yevropa inson huquqlari Sudi shu ishdan keyin majburan orqaga qaytarilayotgan inson jo'natilayotgan mamlakatda qyinoqlarga uchrashi ehtimoli bo'lqa, uning qaytarilishini taqiqlashga doir qoidani rivojlantirib kelmoqda. Misol uchun Sud, inson huquqlarining himoyalanish holati o'ta yomon bo'lqa vaziyatda (Ahmed v. Austria, 1997), sikh separatistining vatanida qyinoqqa uchrashi va g'ayriinsoniy muomala qilinishi ehtimoli bo'lqa holatda (Chahal v. the United Kingdom, 1997), OITS kasalligiga chalingan xastaning tibbiy muolaja darajasi past bo'lqa o'z mamlakatiga jo'natish (D v. the United Kingdom, 1997) masalasi ham Konvensiyaning 3-moddasiga zid kelishi ta'kidlab o'tilgan.

3) BMT Qiyoqlarning taqiqlanishiga oid Konvensiyaning 3-moddasi bilan bog'liq majburiyat

BMTning yuqoridagi Konvensiyasi 3-moddasi ham qyinoqqa solinishi ehtimoli bo'lqa davlatga ekstraditsiya qilish, chiqarib yuborish yoki qaytarib berish kabi holatlarni taqiqlagan. BMTning ushbu muhim xalqaro hujjatga a'zo bo'lib kirgan yurtimizning ham xalqaro huquq normalariga qat'iy rioya etishi va shunga ko'ra ichki huquq tizimimizning rivojlantirilishi dunyo hamjamiyati tomonidan inson huquqlari toptalmaydigan davlat sifatida tan olinishiga olib keladi. Misol uchun, BMTning ushbu Konvensiyasiga a'zo bo'lqa Yaponiya davlati "Mamlakatga kirib-chiqish va qochoqlik statusini berish"ga oid qonuning 53-moddasi 3-bandи 2-qismida majburan qaytarib yuborish bo'yicha yuboriladigan shaxs boradigan joyida qyinoqqa uchrashi va g'ayriinsoniy muomala ko'rishi ehtimoli bo'lqa davlatni istisno qilgan.

4) Terrorist bo‘lgan ayblanuvchining ekstraditsiyasi masalasi

Sooring ishida jinoyat sodir etilgan paytdagi ayblanuvchining yoshi, fuqaroligi va ruhiy holati kabi alohida holatlar ham e’tiborga olingan bo‘lsa-da, shunday alohida holatlar yo‘q bo‘lgan vaziyatda ham, qyinoqqa uchrashi xavfi bo‘lgan paytda o’sha shaxsni qaytarib bermaslik majburiyati bor yoki yo‘qligi masalasi mavjud. Ayniqsa, terroristik harakatlar ko‘payib borayotgan shu yillarda davlatning xavfsizligi nomi ostida terrorchilik harakati bo‘yicha ayblanayotgan shaxsni qyinoqqa tutish xavfi mavjud bo‘lgan davlatga topshirish mumkinmi? Ushbu masala yuzasidan, misol uchun, qochoqlar bo‘yicha konvensiya garchi zulm ko‘rishi mumkin bo‘lgan davlatga fuqaroni qaytarmaslik borasidagi norma belgilagan bo‘lsa-da, Konvensianing 33-modda 2-bandida o’sha davlatning tinchligi uchun xavfliligi yoki o‘ta og‘ir jinoyat bo‘yicha aybdor ekanligini isbotlovchi sud hukmi chiqarilgan bo‘lib (topshirishni talab etayotgan), davlat aholisi uchun xavfli bo‘lgan holatlarda topshirmslikka oid bo‘lgan qoidani istisno tarzda tatbiq etmaslik mumkin. Boshqacha aytganda, mamlakat tinchligi va ommaviy tartibni saqlash sababidan inson huquqlari bo‘yicha ijobjiy holatda bolmagan davlatlarga ham ekstraditsiya qilish ehtimoli borligi ayon bo‘ladi.

Keyingi yillarda davlat xavfsizligini bahona qilgan holda chet el fuqarolarini davlatdan tashqariga haydash yoki o‘z davlatiga qaytarish holatlari “terrorga qarshi kurash” shiori ostida o‘tayotgani sir emas. Lekin, Yevropa inson huquqlari Sudi *Saadi v. Italy* ishida (2008-yil, 28-fevral kunidagi qaror bilan) Yevropa inson huquqlari Konvensiyasining 3-moddasida berilgan himoya doirasasi qochoqlar bo‘yicha konvensiya ta’minlaydigan himoya doirasidan ham kengligini, shuningdek qyinoqqa solinish, g‘ayriinsoniy muomala qilishning taqylanishi esa mutlaq huquqlar ekanligini talqin qilgan holda, terrorizm bo‘yicha gumonlangan shaxsni Tunisga surgun qilib qaytarishni Konvensianing 3-moddasiga zid deb topdi.

Boshqa tomondan esa AQSH huquq tizimida “tekshirmslik qoidasi” mavjud bo‘lib, jinoyatchilarining topshirilishi, qaytarib yuborilishi yoki ko‘chirilishi natijasida narigi davlatda ularga nisbatan qyinoq yoki g‘ayriinsoniy munosabatda bo‘lish masalasini ko‘rib chiqmaydi. Qo‘sishimcha tarzda Kanada Oliy Sudi *Suresh v. Canada* (2002-yil) ishida shaxsning o‘z vataniga majburiy qaytarilishi o’sha yerda uning qyinoqqa utilish holatlari yuz beradigan bo‘lsa ham, bunday qaytarish alohida holatlarda asosli chora bo‘lish ehtimoli mavjud degan qaror chiqarib, ushbu muammoni yanada olovlanitirdi. Shunday qilib, Yevropa inson

huquqlari Sudi kabi kishilarning ekstraditsiyasi yoki majburan qaytarilishi natijasida qyynoqlarga tutilish holatlari mavjudligi uchun bunday choralarning ko‘rilmasligiga oid qarorlar chiqarib kelishgan bo‘lsa, boshqa tomonidan AQSH kabi terrorizm bilan yuzma-yuz kurashayotgan davlatlarda davlat xavfsizligi uchun bunday cheklowlarni tatbiq etmaslik holatlari ham yo‘q emas.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Hozirgi kunga kelib, nima uchun ko‘plab mamlakatlarda, o‘lim jazosi bekor qilinmoqda? Buning sabablari nimada, deb o‘ylaysiz?
2. O‘zbekistondan qochishga ulgurgan va O‘zbekistonga qaytarilsa, o‘limga duchor bo‘lishi mumkinligi haqida chet el sudlariga da’vo qilayotgan o‘zbekistonlik jinoyatchilar O‘zbekistonga qaytariladi deb o‘ylaysizmi va bunga misollar keltira olasizmi?
3. O‘zbekiston Respublikasi jinoyatchilarni ushlab berish va ularni topshirish bilan bog‘liq qanday xalqaro konvensiya va shartnomalar ishtirokchisi hisoblanadi.
4. Xalqaro Sud amaliyotida shaxslarni ushlab berish va ekstraditsiya qilish bilan bog‘liq qanday sud ishlaridan xabardorsiz va ular qanday yakun topgan?

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lillich, Richard B. (January 1991). “The Soering Case”. *The American Journal of International Law*. 85 (1): 128–149.

**XIV. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli
subyekti sifatida. O‘zbekiston va Oxus Gold ishi 2015-yil 17-dekabr
(Oxus Gold Plc v The Republic of Uzbekistan, UNCITRAL 2010 Rules
17 December, 2015).**

(A.Umirdinov)

1. Nizoning yuzaga kelishi

Oxus Gold 2000-yilda Angliyada tashkil etigan mas’uliyati cheklangan xususiy korxona bo‘lib, Markaziy Osiyoda yer osti madanlarini izlash, qazib olish va qayta ishslash bilan shug‘ullanadi. Ushbu korxonaning Oxus Resources Corporation (bundan keyin ORC deya qisqartiriladi), Oxus Mining Limited, Marakand Minerals Limited va Khandiza Services Limited, Amantaytau Golfields AO (bundan keyin AGF deya qisqartiriladi) kabi sho‘ba korxonalari bo‘lgan.

26-rasm. Oxus Gold tovar belgisi.



Oxus Gold, O‘zbekistondagi faoliyatini 1997-yilda boshlagan. Uning konchilik sohasidagi ishlari o‘zining ikki sho‘ba korxonasi, ORC va Maraqand orqali amalga oshirilgan. Oxus Gold O‘zbekistonning ikki hududida o‘zining tadbirdorlik ishlarini olib borgan: ular AGF va Xondiza loyihalari bo‘lgan. Ushbu nizo aynan yuqoridaq ikki loyiha ustida kelib chiqqan.

Xondiza loyihasi O‘zbekistonning janubi-sharqiy qismida joylashgan Xondiza hududidagi foydali qazilmalarni kovlab olish bo‘yicha ishlab chiqilgan (Rasmga qarang). Ushbu kon, klassik volkanogenik sulfid koni bo‘lib, katta miqdorda mis, qo‘rg‘oshin, oltin, kumush va ruh konlarini o‘z ichiga oladi. Xondiza koni Sovet Ittifoqi davrida 1970-yillarda topilgan. Biroq undan keyin u o‘zlashtirilmay tashlab qo‘yilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ushbu konlarni xorijiy sarmoya orqali o‘zlashtirishni maqsad qiladi va 1996-yilda ORC bilan ushbu konlarni o‘zlashtirish bo‘yicha shartnoma imzolaydi. Ushbu shartnomaga muvofiq, O‘zbekiston tomoni investorga Sovet Ittifoqi paytidan boshlab shu kungacha to‘plangan Xondizadagi konlarga oid barcha ma’lumotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib beradi.

AGF loyihasi esa Amantaytau oltin konlarining AGF tomonidan o‘zlashtirish va boshqarilishiga oid loyiha bo‘lgan. Ushbu oltin konlari dunyodagi eng yirik oltin zaxiralardan biri va O‘zbekistondagi eng yirik


oltin qazib olish makonlaridan biri bo'lib, Tyanshan tog'ining Qizilqum sahrosidagi 192 kilometrga cho'zilgan qismi hisoblanadi (Rasmga qarang). Ushbu konlar Amantaytau Sentralni, Amantaytau Severni, Uzunbuluoq, Visokovoltni konlarini o'z ichiga oladi. Yuqorida tilga olingen konlarni o'zlashtirish uchun 1993-yilda AGF qo'shma korxonasi tuzilib, 1994-yildagi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan xorijiy investorga konlarni o'zlashtirish, soliq va buxgalteriya ishlari yuzasidan huquqlar va imtiyozlar taqdim etiladi.

Biroq har ikki loyiha bo'yicha ham keyinchalik nizo yuzaga keladi. Avvalambor, Xondiza loyihasi bo'yicha taraflar loyihani o'rganish shartnomasi (Primary Exploration Agreement)ni tuzishadi va ushbu shartnomada uch bosqichda Xondiza loyihasini ijobjiy amalga oshirishni ko'zda tutuvchi shartnomada deya e'tirof etiladi. Birinchi bosqich, dastlabki texnik-iqtisodiy o'rganish (Preliminary Feasibility Study) bo'lib, taraflar unda konlarda, haqiqatan ham, yetarlicha ma'danlar borligini topishlari lozim bo'lган. Ushbu birinchi bosqich, ikki tarafning ham qayd etishicha, muvaffaqiyatli amalga oshgan. Ikkinci bosqich esa yuqoridagi texnik-iqtisodiy o'rganish ijobjiy yakunlansa, 50/50 ulushga asoslangan holda taraflar qo'shma korxona bo'yicha shartnomada tuzib, chet eldan Xondiza loyihasini moliyalashtirishni ko'zlagan. Uchinchi bosqich esa konlarni o'zlashtirishdan iborat edi. Biroq 2 va 3-bosqichda, belgilangan ishlarni amalga oshirish davomida taraflarda turlicha qarashlar paydo bo'ladi. Garchi investor hali biror marta ishlatilmagan O'zbekiston Respublikasining Konsessiya to'grisidagi qonun (1995-yil) asosida konsessiya shartnomasi tuzishni taklif etsa-da, uning yetarli darajadagi ishslash mexanizmi yaratilmaganligi sababli uzoq muzokaralardan so'ng taraflar qo'shma korxona bitimi modeliga o'tishadi. Buning asosiy sababi esa da'vogarning konsessiya to'lovi bo'yicha O'zbekiston tomoniga kamroq haq to'lash bo'yicha bildirgan taklifidir. Tabiiy ravishda hukumat bunga ko'nmaydi. Aynan shu muammo yana qo'shma korxona bo'yicha shartnomada ham ko'tariladi. O'zbekistonning konchilik ishiga aloqador hukumat idoralarining qayta-qayta noroziliklariga qaramay angliyalik investor qo'shma korxona bo'yicha shartnomadagi o'z ulushini kamaytirishni istamaydi. Bu esa, oxir-oqibat Xondiza loyihasi o'zlashtirish uchun Olmaliq tog'-kon kombinatiga berilishiga sabab bo'ladi.

Amantaytau Goldfields loyihasini esa angliyalik investorlar bilan O'zbekiston tarafining anchagina muvaffaqiyatli amalga oshgan birgalikdagi ishi sifatida baholasa bo'ladi. Taraflar 2004-yil boshidan boshlab Navoiy viloyatida oltin qazib olishni boshlashadi va 2006-yilgacha katta miqdorda oltin chet elga eksport ham qilinadi. Biroq 2006-yil 1-may kuni Vazirlar Mahkamasi qarori bilan o'sha paytdagi

chet el investitsiyalari uchun soliq imtiyozlari bekor qilinadi. AGF uchun esa qo'shimcha auditorlik tekshiruvi o'tkazilib, go'yoki unda 225 million AQSH dollariga teng soliq, bojxona va chet el valyutasi ayriboshlashga doir qonunbuzarliklar aniqlanadi. Bundan tashqari, AGF bir necha bor o'zining konchilik sohasidagi litsenziyalarini yangilashga oid qiyinchiliklarga duch keladi, buning ustiga 2009-yilda yana bir bor soliq qonunchiligi o'zgaradi. Taraflar o'rtasidagi muammo yuqoridagilar bilan tugamaydi. Investor ham dividentlarni taqsimlash shartnomasiga muvofiq Moliya vazirligiga nisbatan o'zining 11 million AQSh dollariga yaqin to'lov shartnomasini bajarmaydi. Shundan so'ng investorga nisbatan sud jarayoni boshlanib, 2011-yildan boshlab AGFning chet ellik boshqaruvchilari O'zbekistonni tark etishadi, boshqa muhim lavozimda ishlidaydigan mahalliy mutaxassislarning ba'zilari esa qamoqqa olinadi. 2012-yilga kelib esa korxonaga nisbatan tashqi boshqaruvchi tayinlanadi. Natijada, Oxus O'zbekiston Respublikasiga nisbatan UNCITRAL qoidalariga muvofiq 2011-yilda Parijda ish qo'zgatadi.

27-rasm. O'zbekistondan Xitoya cho'zilgan Tyanshan oltin kamari.



O'zbekiston tomonidan Vazirlar mahkamasi, Moliya vazirligi kabi davlat organlari javobgar sifatida ishga aloqador davlat korxonalari sifatida esa Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati va Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatlari tilga olingan. O'zbekistonni *White & Case* xalqaro advokatlik byurosining advokatlar jamoasi himoya qilgan.

2. Nizolashuvchi tomonlarning da'volari.

Xorijiy investorning da'volari. Xorijiy investorning da'vosiga ko'ra, birinchidan, uning Navoiy viloyatidagi Amantaytau Goldfields qo'shma korxonasi va Surxondaryo viloyatidagi Kondiza konlaridagi investitsiyalari O'zbekiston hukumati tomonidan noqonuniy ekspropriatsiya qilingan. Ikkinchidan, O'zbekiston tomoni Buyuk Britaniya va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama investitsiyalarni himoyalashga doir bitimni¹ buzgan, ya'ni

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi hukumati o'rtaida sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi Bitim, London, 1993 yil 24-Noyabr.

investorgaadolatli va xolis munosabatda bo‘lmasdan, investorni yetarlicha himoya bilan ta’minlamagan. Shu sababli investor O‘zbekiston hukumatidan o‘ziga yetkazilgan jami bo‘lib 1 milliard 250 million AQSH dollarini kompensatsiya sifatida to‘lashni talab etadi.

O‘zbekistonning da‘volari. Javobgar esa bularning barchasini rad etadi. Javobgar arbitraj hakamlaridan da‘vogarning da‘volarini to‘la hajmda rad etishni va davogarga nisbatan javobgarning qarshi da‘vosini qanoatlantirishni so‘raydi. O‘zbekiston tarafi, shuningdek da‘vogarning da‘volariga qarshi o‘z himoyasi bilan bog‘liq barcha xarajatlarning qoplab berilishini ham so‘raydi.

3. Arbitraj qarori

2012-yil avgust oyidagi ish bo‘yicha yurisdiksiya masalasiga oid birinchi qarorda arbitraj hakamlari ushbu ishda o‘zlarining yurisdiksiyasi mavjud ekanligini takidlashgan va ish ko‘rishni davom ettirishgan. Ammo yurisdiksiyaga doir qaror uchinchi shaxslar uchun e‘lon qilinmagan. Uch yil o‘tib esa UNCITRAL qoidalari bo‘yicha tashkil qilingan xalqaro arbitraj Oxus Gold kompaniyasining O‘zbekistonga qarshi qo‘zg‘atgan ishi yuzasidan 2015-yil 17-dekabr kuni o‘zining uzil-kesil qarorini e‘lon qildi. Oxus tomonidan qanoatlantirilishi so‘ralgan da‘volarning faqatgina bir qismigina qanoatlantirilgan. Hakamlar investorning deyarli barcha da‘volarini rad etgan bo‘lsa-da, AGFga taqdim etilgan soliq imtiyozlarining O‘zbekiston tomonidan muddatidan avval tugatilishi Buyuk Britaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi investitsiya bitimiga zid kelishini ta‘kidlab, javobgarning da‘vogarga nisbatan 10.3 million AQSH dollarni yetkazilgan zaramni qoplash uchun berishi bo‘yicha qaror qildi¹.

4. Arbitraj qaroridan

4.1. Xondiza loyihasi bo‘yicha Oxus Gold da‘vosi

Shartnomani muzokara qilish huquqi ekspropriatsiyaning obyekti hisoblanadimi?

Da‘vogarning birinchi da‘vosi Xondiza loyihasiga oid bo‘lib, unga ko‘ra investorda konsessiya shartnomasiga asoslangan holda ushbu Xondiza loyihasini amalga oshirish huquqi mavjud bo‘lgan. Biroq O‘zbekiston tomoni, avvalo, Oxus ulushini 50%ga tushirgan holda, investorni 50/50 shaklda davlat korxonasi bilan qo‘shma korxona qurishga, keyinchalik esa Xondiza loyihasi bo‘yicha konlarni o‘zlashtirish va qazib olish huquqini investordan olib, davlat korxonasiga topshirgan. Natijada davlat xorijiy investorda mavjud bo‘lgan huquqni tortib olgan.

¹ Arbitrajning ingliz tilida chiqarilgan qarorining 397 betdan iborat to‘liq matni bilan quyidagi internet adresida tanishish mumkin: https://www.italaw.com/sites/default/files/case-documents/italaw7238_2.pdf

Hakamlar o'z tahlilini, avvalambor, Xondiza loyihasiga nisbatan Oxusda mavjud bo'lgan huquqning xususiyatlarini aniqlashdan boshladi. Hakamlar Oxusning fikriga qo'shilмаган holda Oxusning O'zbekiston tomoni bilan tuzgan shartnomalari (misol uchun, 1996-yildagi foydali konlarni topish shartnomasi va undan keyin chiqarilgan hukumat qarorlari) Oxusga mutlaq huquqlar (unconditional rights)ni taqdirm etmagan. Balki o'sha shartnoma va hukumat qarorlari O'zbekiston tomoni bilan rasmiy ravishdagi yakuniy shartnoma imzolash muddatigacha bo'lgan muzokaralar o'tkazilishini nazarda tutgan.

Shuningdek, konlarni qidirib topish shartnomasining o'zgartirilishi tegishli davlat korxonasining boshqa tomon bilan qo'shma korxona tuzish huquqidan mahrum etmaydi. Oxusning huquqlari esa mutlaq huquqlar bo'limgan. Qo'shimcha ravishda keltirib o'tish mumkinki, Oxus ushbu muammo hal etilishi jarayonida qo'shma korxona tuzish yoki konsessiya shartnomasiga kirish bo'yicha bir necha bor o'z fikrini o'zgartirgan.

Xulosa qilib aytganda, javobgar Xondiza loyihasini konsessiya shartnomasi (concession agreement) orqali rivojlantirish bo'yicha davogarga mutloq huquq (exclusive right)ni kafolatlamagan. Balki da'vogar faqat Xondiza konini O'zbekiston tomoni bilan birgalikda, o'zaro maqbul sharoitda, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan kelishgan holda 50/50 qo'shma korxona tashkil etish uchun rasmiy, eksklyuziv va yaxshi niyatli muzokaralar o'tkazish huquqiga ega bo'lgan xolos. Shuning uchun ham Oxusning o'sha paytdagi huquqlari ekspropritatsiyaning obyekti hisoblanadigan huquqlar bo'limgan (was not a property right that was susceptible of expropriation).

4.1.2. Muzokaralarning ijobiy natijalari bo'yicha "asosli umid".

Investor ushbu muzokaralar olib borilishi va ularning salbiy natijalari adolatli va xolis munosabatda bo'lish rejimi (fair and equitable treatment)ni buzganligini ta'kidladi. Buning huquqiy asosi sifatida Britaniya va O'zbekiston o'rtaida tuzilgan ikki tomonlama investitsion shartnomaning 2-moddasi 2-qismidagi adolatli va xolis munosabatda bo'lish rejimining buzilganligini keltirdi¹. Shu paytgacha turli arbitraj qarorlarida ushbu

¹ Britaniya va O'zbekiston ortasida tuzilgan investitsiya bitimining 2-modda 2-qismida shunday deyilgan: "Har bir Ahdashuvchi Tomondan fuqarolar yoki shirkatlarning sarmoyalariga ikkinchi Ahdashuvchi Tomon hududida adolat va teng huquqlilik munosabati va to'liq himoya va xavfsizlik ta'minlanadi. Ahdashuvchi Tomondan hech biri hech qachon o'z hududida ikkinchi Ahdashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlari sarmoyalarini boshqarish, ta'minlash, foydalananish, daromad olish yoki unumli surʼat qilishga nisbatan asossiz yohud kamtsituvchi tadbirlarni qo'llamaydi. Har bir Ahdashuvchi Tomon ikkinchi Ahdashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlari sarmoyalariga nisbatan qabul qilinishi muunkin bo'lgan har qanday majburiyatni bajaradi".

Mualliflar sharxi: garchi Britaniya va O'zbekiston o'rtaida investitsiya bitimida yugoridagidek, "adolatli va xolis munosabatda bo'lish so'zi ingliz tilidagi "fair and equitable agreement"ga ekvivalent tarzida ishlatalsa ham yurtimizning keyingi yillardagi boshqa davlatlar bilan tuzgan huddi shunday bitimlarda "adolatli va teng huquqli rejim" iborasi ishlatalmoqda.

rejimning mohiyati bo'yicha bir-qancha talqinlar mavjud bo'lib, ularda, investorlarning o'zлari investitsiya kiritgan davlatdagi hukumatlar yoki tegishli organlar tomonidan chiqarilgan qarorlar yoki berilgan va'dalarga nisbatan asosli umidlari (legitimate expectation) ham yuqoridagi rejimning tarkibiy qismiga kiradi degan qarashi mavjud. Oxusning uzoq muddat davom etgan muzokaralarga nisbatan asosli umidi mavjud bo'lib, ohir-oyib O'zbekiston tomonining ushbu muzokalarini muvaffaqiyatsiz tugatishi – Oxusning mulkiy huquqlari yo'qotilishiga olib keldi.

O'zbekiston tomoni esa muzokalarining muvaffaqiyatsiz tugashida Oxusning o'z aybi borligini ta'kidlaydi. Chunki investorning nomantiqiy takliflari va hukumat tomonidan iltimos qilingan muammoli masalalarni bartaraf etishdan bosh tortganligi yakuniy bitimning ikki tomon o'rtaida muvaffaqiyatlari tarzda tuzilishiga asosiy to'siq bo'ldi.

3. Should any such state entitled to appear before the Court have failed to receive the special communication referred to in paragraph 2 of this Article, such state may express a desire to submit a written statement or to be heard; and the Court will decide.

4. States and organizations having presented written or oral statements or both shall be permitted to comment on the statements made by other states or organizations in the form, to the extent, and within the time-limits which the Court, or, should it not be sitting, the President, shall decide in each particular case. Accordingly, the Registrar shall in due time communicate any such written statements to states and organizations having submitted similar statements.

Article 67

The Court shall deliver its advisory opinions in open court, notice having been given to the Secretary-General and to the representatives of Members of the United Nations, of other states and of international organizations immediately concerned.

Article 68

In the exercise of its advisory functions the Court shall further be guided by the provisions of the present Statute which apply in contentious cases to the extent to which it recognizes them to be applicable.

CHAPTER V. AMENDMENT

Article 69

Amendments to the present Statute shall be effected by the same procedure as is provided by the Charter of the United Nations for amendments to that Charter, subject however to any provisions which the General Assembly upon recommendation of the Security Council may adopt concerning the participation of states which are parties to the present Statute but are not Members of the United Nations.

Article 70

The Court shall have power to propose such amendments to the present Statute as it may deem necessary, through written communications to the Secretary-General, for consideration in conformity with the provisions of Article 69.

O'zbekiston Respublikasining ba'zi xalqaro shartnomalari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI BILAN BUYUK BRITANIYA VA SHIMOLIY IRLANDIYA BIRLASHGAN QIROLLIGI HUKUMATI O'RTASIDA

BITIM

SARMOYALARINI O'ZARO RAG'BATLANTIRISH VA HIMoya QILISH TO'G'RISIDA

1993-yil 24-noyabr, London

(1993-yil 24-noyabrdan kuchga kirgan)

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Buyuk Britaniya va Shimoliy
Irlandiya Birlashgan Qirolligi Hukumati

bir Davlat fuqarolarining va shirkatlarining ikkinchi Davlat hududida
katta sarmoyalari uchun qulay shart-sharoit yaratishini istab,

xalqaro kyelishuvga muvofiq bunday sarmoyalarni o'zaro
rag'batlantirish va himoya qilish shaxsiy tadbirkorlik tashabbusini
rag'batlantirishga va har ikki mamlakatning gullab-yashnashiga
ko'maklashishini tan olib,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda Tavsiflar

Ushbu Bitim maqsadlari uchun:

a) «Sarmoyalar» atamasi mulkning barcha xillarini, shu jumladan
istisno bo'limgan:

(I) ko'chirib bo'ladigan va ko'chmas mulk, uning barcha huquqlari
bilan ya'ni ipoteka singari qarz uchun mulkni ushlab turish yoki garov
huquqi;

(II) aksionerlik shirkatlarning aksiyalari, kapitali, obligatsiyalari yoki
shirkatlarda ishtirok qilishning har qanday boshqa shakllari;

(III) pullik talab yoki moliyaviy qiymatga ega har qanday faoliyatga
kontrakt doirasidagi talab;

(IV) intellektual mulk huquqi, «gudvil», texnologik jarayonlar va
«nou-xau»;

(V) qonunga muvofiq yoki kontraktga asosan berilgan ishli
konsessiyalar, jumladan tabiiy boyliklarni izlab topish, ishlov berish, qazib
olish va ulardan foydalanish konsessiyalarini qo'shgan holda;

Sarmoyalanayotgan mulk shaklining o'zgartirilishi, uning sarmoya
xususiyatini o'zgartirmaydi va «sarmoya» atamasi ushbu Bitim kuchga
kirishidan oldin ham, undan keyin ham, amalga oshirilgan barcha
sarmoyalarni qamrab oladi.

b) «daromadlar» atamasi sarmoyadan olingen pul miqdorini anglatadi, ammo istisno tariqasida emas, xususan foyda, foizlar sarmoyadan olingen daromadlar, gonorarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni anglatadi;

v) «fuqarolar» atamasi quyidagilarni anglatadi:

(I) O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan: O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi maqomini olgan jismoniy shaxslar;

(II) Birlashgan Qirollikka nisbatan: Birlashgan Qirollikda amaldagi qonunchilikka ko‘ra Birlashgan Qirollik fuqarosi maqomini olgan jismoniy shaxslar;

g) «shirkat» atamasi quyidagilarni anglatadi:

(I) O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan: O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va investitsiyani amalga oshirish huquqi bo‘lgan, yuridik shaxslar, jumladan firmalar, korporatsiyalar, tijoriy uyushmalar va amaldagi qonunchilik asosida tasdiqlangan yoki tuzilgan boshqa tashkilotlar;

(II) Birlashgan Qirollikka nisbatan: Birlashgan Qirollikning har qanday qismida yoki 12-moddaning nizomlariga muvofiq, ushbu Bitim ta’siri o‘tadigan Birlashgan Qirollikning har qanday hududida amaldagi qonunlarga binoan tuzilgan korporatsiyalar, firmalar va uyushmalar;

d) «hudud» atamasi quyidagilarni anglatadi:

(I) O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan: Xalqaro huquqqa asoslanib, o‘z suveren yoki yurisdiksiyasidagi huquqlarini amalga oshirishi mumkin bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi hududi.

(II) Birlashgan Qirollikka nisbatan: Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiyani, shu hisobda Birlashgan Qirollikning hududiy suvlari va ostidagi yerlar, u ilgari yoki kyelegusida Birlashgan Qirollikning milliy qonunchiligi bilan belgilangan hududi sifatida hamda xalqaro qonunga muvofiq dengiz lojasи yoki zaminiga va tabiiy zaxiralariга va 12-moddaning ko‘rsatmasiga muvofiq ushbu Bitim ta’sir qiladigan har qanday hududga nisbatan o‘zining suveren huquqlarini yuritadi.

2-modda

Sarmoyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o‘z hududida ikkinchi bir Ahdlashuvchi Tomonga fuqarolar va shirkatlarga sarmoya joylashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi, rag‘batlantiradi va qonun bergen o‘zining huquqlariga muvofiq bunday kapital qo‘yilmalarga yo‘l beradi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomondan fuqarolar yoki shirkatlarning sarmoyalalariga ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon hududida adolat va teng huquqlilik munosabati va to'liq himoya va xavfsizlik ta'minlanadi. Ahdlashuvchi Tomondan hech biri hech qachon o'z hududida ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlari sarmoyalalarini boshqarish, ta'minlash, foydalanish, daromad olish yoki unumli sarf qilishga nisbatan asossiz yoxud kamsituvchi tadbirlarni qo'llamaydi. Har bir Ahdlashuvchi Tomon ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlari sarmoyalalariga nisbatan qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday majburiyatni bajaradi.

3-modda

Milliy tartibot va mumkin qadar qulaylik byerish tartibotining qoidalari

1. Ahdlashuvchi Tomonlardan hyech biri o'z hududida ikkinchi Ahdlashuvchi Tomonning fuqarolari yoki shirkatlarining sarmoyalari va daromadlariga o'zining fuqarolari yoki shirkatlari sarmoyalalariga yoxud daromadlariga nisbatan, har qanday uchinchi mamlakat fuqarolari yoki shirkatlarining sarmoyalari va daromadlariga byerilgan eng qulay sharoitli tartibotdan kam bo'limgan tartibot taqdim etmaydi.

2. Ahdlashuvchi Tomonlardan hech biri ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlari sarmoyalalarini boshqarish, ta'minlash, foydalanish, daromad olish yoki unumli sarf qilishga nisbatan o'zining fuqarolari yoki shirkatlari yoxud har qanday uchinchi mamlakat fuqarolari yoki shirkatlari uchun yaratilgan qulay sharoitli tartibotdan kam bo'limganini taqdim etmaydi.

3. Bu hisobda ikkilanishning oldini olish uchun yuqorida 1 va 2-bandlarda bayon etilgan tartibot ushbu Bitimning 1 – 11-moddasigacha tatbiq etilishi tasdiqlanadi.

4-modda

Zarar o'rnnini to'ldirish

1. Bir Ahdlashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlarining sarmoyalari boshqa Ahdlashuvchi Tomonning hududida joylashganda, ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon hududida sodir bulayotgan urush yoxud boshqa qurolli to'qnashuv, inqilob, favqulodda vaziyat, qo'zg'olon, g'alayon va to'polon oqibatida sarmoyalalar zararlansa, u ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon tarafidan restitutsiya, kompensatsiya o'rnnini to'ldirish yoki boshqa to'lovlar bilan eng qulay tartibotda qoplansada, u

ushbu Ahdlashuvchi Tomonning o‘z fuqarolari yoki shirkatlariga yoxud har qanday uchinchi mamlakat fuqarolari yoki shirkatlariga taqdim etilayotgan tartibotdan kam bo‘lmaydi. Bunday to‘lovlar erkin o‘tkaziladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandi mazmunini o‘zgartirmasdan Ahdlashuvchi Tomonlardan birining fuqarolari va shirkatlari 1-bandda sanab o‘tilgan har qanday vaziyatda ikkinchi Ahdlashuvchi Tomonning hududida quyidagicha zarar ko‘rsalar:

a) ularga tegishli mulkni boshqa Tomon kuchlari yoki hokimiyat tomonidan musodara qilinganda, yoki

b) ularga tegishli mulk boshqa Tomon kuchlari yoki hokimiyati tomonidan vayron etilsa, hamda bu hol bosqinchilik harakatini ko‘zlab yoki vaziyat taqozosi bilan sodir etilmagan bo‘lsa, unda ular restitutsiya qilinadi, yoxud shunga aynan o‘xhashi bilan o‘rnini to‘ldiriladi. So‘nggi to‘lovlar erkin o‘tkaziladi.

5-modda

Majburiy tarzda tortib olish

1. Har qanday Ahdlashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlarining sarmoyalari milliyashtirilmaydi va majburiy tarzda tortib olinmaydi yoki majburiy tarzda tortib olish oqibatlariga o‘xhash choralarga duchor qilinmaydi, (bundan keyin «majburiy tarzda tortib olish» deb nomlanadi) yoki boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududida ushbu Tomonning ichki zaruriyat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy maqsadlaridan bo‘lak hollarda, o‘z vaqtida kamsitmaslik asosida aynan bir xil va samarali o‘mini to‘ldirishga loyiq bo‘ladi. Bunday kompensatsiya majburiy tortib olingan yoki majburiy tortib olishdan byevosita oldin, yoxud kelajakdagagi majburiy tortib olish oshkor bo‘lishidan oldin joylashgan sarmoyaning haqiqiy qiymatiga mos keladi va to‘lov sanasigacha normal tijoriy kurs bo‘yicha foizlarni o‘z ichiga oladi, to‘xtovlarsiz, samarali amalga oshiriladigan va erkin o‘tkaziladigan bo‘ladi. Majburiy tarzda tortib olishdan zarar ko‘rgan fuqarolar yoki shirkatlar, majburiy tarzda tortib olishni o‘tkazayotgan Ahdlashuvchi Tomonning qonunlariga binoan, shu tomonning sud yoki boshqa mustaqil hokimiyati tegishli ko‘rib chiqilishiga huquqlari bo‘lib, ularning ishlari va sarmoyalaring qiymatlari ushbu band bilan belgilangan tegishli qoidalarga muvofiq baholanadi.

2. Ahdlashuvchi Tomon o‘z hududining har qanday qismida qonunlarga binoan tuzilib amal qilayotgan shirkatning sarmoyalalarini majburiy tarzda tortib olsa, va ushbu shirkatning aksiyalariga boshqa Ahdlashuvchi Tomonning fuqarolari yoki shirkatlari ega bo‘lsa, shunday fuqarolar yoki shirkatlarga nisbatan mazkur moddaning 1-bandi o‘z vaqtida aynan bir xil va samarali to‘ldirishlar haqidagi qoidalarni kuchga kiritadi.

6-modda

Sarmoyalar va daromadlarning o‘z o‘rniga qaytishi

Ahslashuvchi Tomonlarning har biri boshqa Ahslashuvchi Tomon fuqarolari yoki shirkatlari sarmoyalariga munosabatda bo‘lishda ularning sarmoyalarining va daromadlarining erkin o‘tkazilishini kafolatlaydi. O‘tkazishlar sarmoyalar qaysi valyutada amalga oshirilsa, yoki sarmoya kirituvchi va tegishli Ahslashuvchi Tomon o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq, har qanday boshqa erkin muomaladagi valyutada amalga oshiriladi. O‘tkazishlar, agar sarmoya qiluvchi rozi bo‘lmasa, o‘tkazish sanasida amalda bo‘lgan almashuv kursi bo‘yicha, almashuv qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

7-modda

Istisnolar

Ushbu Bitimning qoidalari, har qaysi Ahslashuvchi Tomoni yoki har qanday uchinchi davlat fuqarolari va shirkatlariga berilgan eng qulay sharoitli tartibotga nisbatan kam bo‘lмаган tartibot berilganda, birorta ham Ahslashuvchi Tomon fuqarolari va shirkatlarini boshqa Tomonga har qanday afzallik yoki yengillik tartibotini tatbiq etishga majbur etmaydi, chunonchi:

a) Ahslashuvchi Tomondan istagan biri har qanday mavjud yoki kelajakda yaratiladigan bojxona ittifoqi yoxud shunga o‘xhash xalqaro kelishuv a‘zosi bo‘la olishi yoxud,

b) Soliq solish shartlariga to‘liq yoki asosan tegishli har qanday xalqaro kelishuv yoki shartnomaga yoxud ichki qonunchilik bilan bog‘liq soliq solish shartlarining to‘liq yoki asosan tegishlisi bo‘lganda.

8-modda

Sarmoya qiluvchi va qabul qiluvchi davlat o‘rtasidagi nizolarni hal qilish

1. Bir Ahslashuvchi Tomon fuqarosi yoki shirkati va boshqa Ahslashuvchi Tomon o‘rtasida oxirisining ushbu Bitimdagi avvalgi sarmoyalarga nisbatan o‘zaro kelishuv orqali hal etilmagan nizolariga tegishli majburiyatlar fuqaroning yoki shirkatning xohishiga binoan, da‘vo ochish haqidagi yozma bildirishdan uch oy o‘tgandan keyin xalqaro hakamlar sudiga oshiriladi.

2. Da‘vo xalqaro hakamlik sudiga oshirilayotgan paytda fuqaro yoki shirkat va javobgar Ahslashuvchi Tomon da‘vo bo‘yicha o‘z da‘volarini yoxud:

a) Sarmoya nizolarini hal qilish bo'yicha Xalqaro Markazga (1965-yil 18-martda Vashington shahrida imzolash uchun ochiq bo'lgan Davlatlar va boshqa Davlatning fuqarolari o'rtasidagi sarmoya nizolarini hal etish to'g'risidagi Konvyensiya qoidalarini qo'llash mumkin bo'lgan joyda, va Ma'muriy Yarashtirish to'g'risidagi Qo'shimcha Nizom, Hakamlik sudi va Nazorat komissiyasi to'g'risidagi nizomlarni tan olib); yoxud,

b) Xalqaro Savdo Palatasining Hakamlar sudiga; yoxud

c) Tomonlarning kelishuviga muvofiq saylangan sud, xalqaro hakamga yoki ad hoc hakamlik tribunaliga, maxsus bitim bilan tayinlangan yoki tashkil bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo huquqi komissiyasining Hakamlik reglamentiga muvofiq murojaat qila oladi.

Agar da'vo haqida yozma bildirilgan kundan uch oy o'tgandan so'ng, ishni hal etishda yuqorida qayd etilgan taomillardan birortasi bo'yicha kelishuvga erishilmasa, da'vo u yoki bu tomon fuqarosi yoki shirkatning yozma iltimosiga binoan, bahslashuvchi tomon sifatida da'vo berilgan paytda amaldagi xalqaro savdo huquqining Hakamlik reglamentiga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkiloti komissiyasining Hakamlik sudiga topshiriladi. Tomonlar bu qoidalarni o'zgartirish istagini yozma ravishda bildirib murojaat qilishlari mumkin.

9-modda

Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasidagi nizolar

1. Ushbu Bitimni sharhlash yoki qo'llash masalasida Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida paydo bo'lgan nizolar, imkoniyati boricha diplomatik yo'llar bilan tartibga solinishi lozim.

2. Agar Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasidagi nizoni bunday yo'l bilan hal etib bo'lmasa, xohlagan Tomonning iltimosiga ko'ra, ish tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq saylangan hakamlik sudiga oshiriladi.

3. Bunday hakamlik sudi har alohida vaziyat uchun quyidagi yo'l bilan tashkil etiladi: Hakamlik sudi haqida arznama olingan kundan boshlab ikki oy mobaynida har bir Ahdlashuvchi Tomon bittadan sud a'zosini tayinlaydi. Sudning bu ikki a'zosi uchinchi mamlakatning fuqarosini saylaydilar, u ikki Ahdlashuvchi Tomonning roziligi bilan sud raisi qilib tayinlanadi. Sud raisi sudning boshqa ikki a'zosi tayinlangan kundan ikki oy ichida tayinlanishi shart.

4. Agar ushbu moddaning uchinchi bandida keltirilgan tayinlashlar o'z vaqtida amalgalashtirilmasa, Ahdlashuvchi Tomonlarning har biri, Xalqaro Sud Prezidentining ko'zda tutilgan boshqa shartnomalari bo'limgan

taqdirda, yuqorida keltirilgan tayinlashlarni amalga oshirish uchun taklif qilishlari mumkin. Agar Prezident Ahdlashuvchi Tomonlardan birining fuqarosi bo'lsa yoki qaysidir boshqa sabablarga ko'ra, yuqoridagi ishni olib bora olmasa, unda zarur tayinlashlarni amalga oshirish uchun Vitse-Prezident taklif qilinadi. Agar Vitse-Prezident Ahdlashuvchi Tomonlardan birining fuqarosi bo'lsa yoki qaysidir sabablarga ko'ra qayd qilingan ishni bajara olmasa, uni bajarish uchun mavqeい bo'yicha Vitse-Prezidentdan keyin turgan va Ahdlashuvchi Tomonlardan biron-birining fuqarosi bo'lmasa taklif etiladi.

5. Tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq saylangan hakamlik sudi ko'pchilik ovoz bilan o'z qarorini qabul qiladi. Bunday qaror har qaysi Ahdlashuvchi Tomon uchun majburiydir. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'zining sud a'zosiga doir barcha xarajatlarni o'zi qoplaydi; va hakamlik ishida o'zining vakolatlantirilganligi bo'yicha, ishni muhokama qilish davrida sud raisiga sarflanadigan xarajatlarni va qolgan xarajatlarni tomonlar teng qismda ko'taradilar. Shunday bo'lsa ham, sud xarajatlarining katta qismini to'lashni Ahdlashuvchi Tomonlarning biriga topshirish haqida hukm chiqarish va bu hukm har ikki Ahdlashuvchi Tomon uchun majburiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Ishni ko'rib chiqish tartibini tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq saylangan hakamlik sudining o'zi byelgilaydi.

10-modda

Subrogatsiya

1. Agar Ahdlashuvchi Tomonlardan biri yoki uning tayinlangan vakili («Birinchi Ahdlashuvchi Tomon») boshqa Ahdlashuvchi Tomonning («ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon») hududida sarmoyalarga nisbatan to'lovlarни qoplashni amalga oshirgan hollarda ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon quyidagilarni tan oladi:

a) Qonun yoki qonuniy muomalalar bo'yicha mablag' sarflovchining va tovon olayotgan tomonning barcha huquqlari birinchi Ahdlashuvchi Tomonga o'tishini, va

b) Birinchi Ahdlashuvchi Tomon ham tovon olayotgan Tomon singari, subrogatsiya qoidasiga muvofiq, bunday huquqlarni amalga oshirishi mumkin, hamda shunday talablar q o'yishi mumkin.

2. Birinchi Ahdlashuvchi Tomon barcha vaziyatlarda quyidagilarga nisbatan shu kabi tartibot huquqini qo'lga kiritadi:

a) shunday o'tkazishga muvofiq o'zi talab qilayotgan huquq va talablarni va
b) shunday huquq va talablar natijasida olingan har qanday to'lovlarни, shuningdyek tovon olayotgan Tomon singari, ushbu Bitim bo'yicha sarmoya va u bilan bog'liq daromadlarga nisbatan tovon olish huquqiga ega.

3. Birinchi Ahdlashuvchi Tomonning olayotgan huquq va talablari bo'yicha erkin muomalada bo'Imagan valyutadagi olayotgan har qanday to'lovlari birinchi Ahdlashuvchi Tomonga ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon hududida paydo bo'ladigan xarajatlarni qoplash uchun mumkin bo'lishi kerak.

11-modda

Boshqa qoidalarni qo'llash

Agar Ahdlashuvchi Tomonlardan birining qonunchiligidagi qoidalari yoki majburiyatlari joriy xalqaro qonunchilik yoki Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtaida ushbu Bitimga qushimcha sifatida qabul etilgan umumiy yoxud maxsus qoidalarni tashkil qilsa, bu esa ushbu Bitim asosida berilgan tartibotga ko'ra, boshqa Ahdlashuvchi Tomonning fuqarolari yoki shirkatlarining sarmoyalalariga yanada qulayroq tartibotni bersa, bunday qoidalalar o'ta qulayligi bilan ushbu Bitimdan afzalroq bo'ladi.

12-modda

Hududiy tarqalishi

Mazkur Bitim qoidalari ushbu Bitim imzolanishi vaqtida yoki undan kyeyin xohlagan Xalqaro munosabatlar uchun javobgarligi Birlashgan Qirollik Hukumati zimmasida bo'lgan hududlarga tarqaladi va u Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtaida notalar bilan almashish tarzida shartlanishi mumkin.

13-modda

Kuchga kirish

Ushbu Bitim imzolangan kuni kuchga kiradi.

14-modda

Faoliyat muddati va uning tugashi

Ushbu Bitim o'n yil muddatda o'z kuchida qoladi. Bundan kyeyin Ahdlashuvchi Tomonlardan biri boshqa Ahdlashuvchi Tomonga uning to'xtatilishi to'g'risida yozma xabar bergan kundan boshlab o'n ikki oy muddat o'tguncha Bitim o'z kuchida qoladi. Ushbu Bitim kuchda bo'lgan sarmoyalarga nisbatan, uning qoidalari Bitim harakati to'xtatilgan kundan keyin ham yigirma yil muddat ichida o'z kuchida qolib, umumiy xalqaro huquq qoidalalarining qo'llanishiga muvofiq taxminlarsiz xizmat ko'rsatadi.

Quyidagilarni tasdiqlab, o'z hukumatlaridan tegishlicha vakolatlanganlar ushbu Bitimni imzoladilar.

London shahrida, 1993-yil 24-noyabrda, ikki asl nusxada, har biri o'zbek va ingliz tillarida tuzildi, har ikkala matn ham bir xil kuchga ega.

(imzolar)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI VA ISROIL DAVLATI
HUKUMATI O'RTASIDA
BITIM
**INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISH VA O'ZARO
HIMOYA QILISH TO'G'RISIDA**
1994-yil 4 iyul, Toshkent
(1997-yil 18-fevraldan kuchga kirdi)

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Isroil Davlati Hukumati, bundan buyon «Ahdlashuvchi Tomonlar» deb yuritiladi,

Har ikkala mamlakat uchun o'zaro manfaatli bo'lgan iqtisodiy hamkorlikni jadallashtirishni nazarda tutgan holda,

Bir Davlat invyestorlarining ikkinchi Davlat hududidagi yirik invyestitsiyalari uchun qulay sharoit yaratish maqsadini ko'zlagan holda,

Mazkur Bitim asosida investitsiyalarни rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish har ikkala Davlatning o'ziga xos ishchanlik tashabbusi va ravnaq topishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilishini e'tirof etgan holda,

quyidagilar xususida kelishib oldilar:

**1-modda
Ta'riflar**

Ushbu Bitim maqsadlariga erishish uchun:

1. «Investitsiya» atamasi barcha turdag'i aktivlarni o'z ichiga oladi va quyidagilarni ham qo'shib hisoblagan holda hududida investitsiyalar amalga oshirilgan Ahdlashuvchi Tomonning qonun va qoidalariga muvofiq tarzda qo'llaniladi:

a) qo'zg'aluvchi va qo'zg'almas mulk, bunday mulkka hamda barcha turdag'i mulkka nisbatan har qanday egalik huquqlari;

b) aksiyalar, obligatsiyalarga ega bo'lish va kompaniyalarda ishtirok etishning boshqa turlari natijasida olingan huquqlar;

v) pul talabnomalari, kompaniyaning xizmat munosabatlari va boshqa ulushlari hamda moliyaviy qimmatga ega bo'lgan har qanday faoliyatga tegishli huquqlarga oid talablar;

g) intellektual mulk, texnologik jarayonlar va nou-xau sohasidagi huquqlar;

d) qonun yoki kontraktga muvofiq ravishda berilgan huquqlar, tabiiy resurslarni topish, ishlab chiqarish, qazib olish va ulardan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oluvchi ishchan konsessiyalar.

2. Hududida investitsiyalar amalga oshirilgan Ahdlashuvchi Tomonning qonunlari va qoidalariga muvofiq investitsiyalangan va qayta investitsiyalangan aktivlar shaklining o'zgarishi ularning investitsiya sifatida ushbu Bitimda qayd etilgan mohiyati xarakteriga ta'sir ko'rsatmaydi.

3. "Investor" atamasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan investitsiyalarga nisbatan:

a) Isroil Davlati fuqarosi hisoblanuvchi, bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lмаган;

b) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari yoki doimiy yashovchilar Tomonidan bevosita yoki bilvosita ravishda nazorat qilinmaydigan kompaniyalar, shu jumladan, Isroil Davlatining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tarzda ro'yxatdan o'tkazilgan yoki tuzilgan korporasiyalar, firmalar va assosiatsiyalar.

Isroil Davlatida amalga oshirilgan investisiyalarga nisbatan:

a) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanib, bir vaqtning o'zida Isroil Davlatining fuqarosi yoki doimiy yashovchisi bo'lмаган jismoni shaxslar;

b) Isroil Davlatining fuqarolari yoki doimiy yashovchilar Tomonidan byevosita yoki bilvosita ravishda nazorat qilinmaydigan kompaniyalar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan yoki tuzilgan korporasiyalar, firmalar va assosiatsiyalar.

4. "Daromadlar" atamasi investitsiyadan, shu jumladan, investitsiyalar, daromadlar, investitsiyalarni to'laligicha yoki qisman tugatishdan olingan summalar, foizlar, mulk qiymatining o'sishi, royligi va xizmat turlari uchun to'lovlardan olingan daromadlar summalarini o'z ichiga oladi.

5. "Hudud" atamasi Ahdlashuvchi har bir tomoniga nisbatan ana shu Ahdlashuvchi Tomonning hududini, shu jumladan, hududiy suv, kontinental shelf va Ahdlashuvchi Tomonlar o'zlarining suveren huquqlarini amalga oshirishlari mumkin bo'lgan yoki xalqaro huquqqa muvofiq uning yurisdiksiyasida bo'lgan va eksklyuziv iqtisodiy zonalarni bildiradi.

2-modda

Investisiyalarni rag'batlantirish va himoyalash

1. Ahdlashuvchi Tomonlardan har biri o'z davlati hududida boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlarining investitsiyalarini rag'batlantiradi va ularni amalga oshirish uchun barcha qulay sharoitlarni yaratadi hamda o'ziga qonun tomonidan berilgan huquqlarga muvofiq ravishda shunday sarmoyalar kiritishga yo'l qo'yadi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning invyestorlari amalga oshiradigan investitsiyalari uchun ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon hududida adolatli va bir xil rejim, to'liq himoya va xavfsizlik ta'minlanadi. Ahdlashuvchi

Tomonlarning hech qaysisi o‘z hududida boshqa Ahdlashuvchi Tomonning menejment, xizmatlar ko‘rsatish, investorlarning investitsiyalarini qo‘llash va joylashtirish, ulardan foydalanish borasida asossiz yoki ularni kamsituvchi choralar qo‘llanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

3-modda

Milliy rejim va mumkin qadar qulayliklar yaratish rejimi qoidalari

1. Ahdlashuvchi Tomonlarning har biri o‘z hududida ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon investorlarining investitsiyalari yoki daromadlari uchun o‘z invyestorlarining investitsiyalari yoki daromadlari uchun yoki istalgan uchinchi Davlat investorlarining investitsiyalari yoki daromadlari uchun yaratilganidan ko‘ra ziyodroq imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomonning investorlari uchun menejment, xizmatlar ko‘rsatish, ularning investitsiyalaridan foydalanish, ularni qo‘llash va joylashtirish borasida o‘z investorlari yoki istalgan uchinchi davlat investorlari uchun yaratilganidan ko‘ra yanada qulayroq bo‘lgan rejim yaratib beradi.

4-modda

Zararlar uchun tovon to‘lash

1. Ahdlashuvchi Tomonlardan birining investori investitsiyalariga boshqa Ahdlashuvchi tomon hududida sodir bo‘lgan urush yoki boshqa qurolli to‘qnashuvlar, inqilob, favqulodda holatlar, isyon, qo‘zg‘olon, fuqarolar o‘rtasidagi tartibsizliklar yoki shunga o‘xshash boshqa voqealar oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplash ana shu Ahdlashuvchi Tomonga boshqa Ahdlashuvchi Tomon o‘z investorlari yoki istalgan uchinchi Davlat investorlari uchun yaratilganidan ko‘ra yanada qulayroq rejimda restitutsiyalar, tovon to‘lash yoki zararlarni qoplash tarzida amalga oshiriladi. Bunday to‘lovlar erkin ravishda o‘tkaziladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga xolis munosabatda bo‘lgan holda Ahdlashuvchi Tomonlardan birining investorlariga boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududida yuqorida sanab o‘tilgan vaziyatlardan birortasi oqibatida, ya’ni:

a) ularning mulki boshqa Tomonning kuchi yoki hukmronligi natijasida rekvizitsiya qilingan holda, yoki

b) ularning mulki bosqinchilik xatti-harakati sodir etilganligi tufayli yoki vaziyat taqozosi bilan yuz bermagan holatlarda boshqa Tomonning kuchi yoki hukmronligi natijasida vayron etilgan holda yetkazilgan zarar uchun restitutsiya yoki aynan shunday tovon to‘lovlarini to‘lanadi.

5-modda **Ekspropriasiya**

1. Ahdlashuvchi Tomonlardan har ikkalasi investorlarining investitsiyalari, ana shu Ahdlashuvchi Tomonning ichki zaruriyatları bilan bog'liq bo'lgan jamoat maqsadlaridan mustasno bo'lgan hollarda, natsionalizatsiya qilinmaydi, ekspropriatsiya qilinmaydi yoki ularga nisbatan tabiatan shunga o'xshash tadbirlar qo'llanilmaydi, yoxud boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududida ekspropriatsiya (bundan buyon «ekspropriatsiya» deb yuritiladi), kamsitmaslik asosida ular uchun tez orada, aynan va foydali tovon to'lanadi. Bunday tovon to'lash bevosita ekspropriatsiya qilingunga qadar yoki bundan avval qanday hol yuz bergenligiga bog'liq ravishda zaruriy ekspropriatsiya barchaga ovoza qilingan vaqtida, ekspropriatsiya qilingan investitsiyalarning bozor narxiga muvofiq ravishda ana shu to'lovlar kunigacha Ahdlashuvchi Tomon taqdim etgan stavka bo'yicha o'tkazilgan foizlarni o'z ichiga oladi hamda erkin ravishda istalgan joyga o'tkaziladi. Ekspropriatsiyadan ziyon ko'rgan investorlar Ahdlashuvchi Tomon qonunlariga ko'ra ana shu Ahdlashuvchi Tomonning sud yoki boshqa tegishli organlari tomonidan ularning ishi tezda ko'rib chiqilishini va mazkur bandda belgilangan prinsiplarga muvofiq ravishda ularning investitsiyalari qiymatiga baho berilishini talab qilish huquqiga ega.

2. Ahdlashuvchi Tomon o'z hududida amalda bo'lgan qonunlarga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilgan yoki tashkil etilgan kompaniyaning aktivlari va Ahdlashuvchi Tomonning investorlari ega bo'lgan aksiyalari 1, 3-moddaning mohiyati doirasida ekspropriatsiya qilinganda yoki boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlari boshqa mulkiy huquqlarga ega bo'lgan hollarda mazkur moddaning shunday aksiyalari yoki boshqa mulkiy huquqlarga ega bo'lgan boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorining investitsiyalariga nisbatan tezda, aynan va foydali tovon to'lash to'g'risidagi 1-bandi qoidalari kuchga kiradi.

6-modda

Investitsiyalar va daromadlarni repatriatsiya qilish

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlarining investitsiyalari borasida investor o'zining barcha soliq majburiyatlariga rioya qilgan va valyuta tartibotlari qoidalarida belgilab berilgan barcha talablarni bajargan hollardagina ularning investisiyalari va daromadlarini erkin ravishda o'tkazishga nisbatan joriy investisiyalari amalga oshirilgan kunda kuchga ega bo'lgan barcha huquq va imtiyozlar

uchun kafolat beradi. Pul o'tkazish ortiqcha kechikishsiz sarmoya dastlab investitsiyalangan muomaladagi valyutada yoki investor va tegishli Ahdlashuvchi Tomon o'rtasidagi kelishuvga binoan erkin muomaladagi boshqa valyutada amalga oshiriladi. Agar investor bilan boshqa tarzda kelishilmagan bo'lsa, pul o'tkazilayotgan vaqtidagi mavjud valyuta almashtirish kursi bo'yicha pul o'tkazish mumkin.

2. Ahdlashuvchi Tomonlardan birining valyuta kursi qoidalariga o'zgarishlar kiritilgan holda, ana shu Ahdlashuvchi Tomon bunday o'zgarishlar o'z hududida amalga oshirilgan investisiyalarga ziyon yetkazmasligi xususida kafolat beradi.

7-modda Istisnolar

Mazkur Bitimning istalgan Ahdlashuvchi Tomon yoki istalgan uchinchi Davlat investorlari uchun yaratilajak eng qulay rejim xususidagi qoidalari Ahdlashuvchi Tomonlarning hech birini boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlariga nisbatan quyidagilar bilan bog'liq ravishda ko'zda tutilgan afzal rejim, ustunlik yoki imtiyozlarni qo'llashga majbur etmaydi:

a) to'laligicha yoki qisman soliq solishning shartlariga tegishli bo'lgan har qanday xalqaro bitim yoki shartnomaga yoxud to'laligicha yoki qisman soliq solish shartlariga oid ichki qonunchilik;

b) mavjud bo'lgan va kelgusida tuziladigan har qanday bojxona uyushmasi, erkin savdo zonasini to'g'risidagi bitim yoki istalgan Ahdlashuvchi Tomon a'zosi hisoblangan yoki a'zosi bo'lishi mumkin bo'lgan bir xil xalqaro bitim;

v) Isroil Davlati 1992 yilning yanvarigacha Tomonlaridan biri bo'lib kelgan Bitimning «Investisiya» (1-modda, 1-band) va «reinvestisiya» (1-modda, 2-band) ta'riflari hamda 6-modda qoidalari.

8-modda

Ahdlashuvchi Tomon va boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorini o'rtasidagi nizolar

1. Ahdlashuvchi Tomon va boshqa Ahdlashuvchi Tomon o'rtasida ikkinchi Tomonning birinchi Tomon hududidagi investisiyalalariga nisbatan yuzaga kelgan har qanday huquqiy nizolarni imzolash uchun 1965-yil 18-martda Vashingtonda ochilgan Davlatlar va boshqa Davlatlar fuqarolari o'rtasidagi investitsion nizolarni hal etish to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq maxsus Bitim yoki arbitraj yo'li bilan hal etish uchun mazkur Bitim har bir Ahdlashuvchi Tomonga Investitsion nizolarni hal etuvchi Xalqaro Markaz (bundan buyon «Markaz» deb yuritiladi)ga murojaat qilish majburiyatini yuklaydi.

2. Ahdlashuvchi Tomonlardan birining hududida amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tashkil etilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan va bunday nizolar paydo bo'lgunga qadar aksiyalarning ko'pchiligi fuqarolarga yoki Boshqa Ahdlashuvchi Tomonning kompaniyalariga tegishli bo'lgan kompaniyalarga Konvensiyaning 25(2)(b)-moddasiga muvofiq Konvensiya maqsadida boshqa Ahdlashuvchi Tomonning kompaniyasi sifatida qaraladi.

3. Agar shunday nizolar paydo bo'lsa va o'zaro kelishuv yoki nizo paydo bo'lganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab uch oy mobaynida o'zga tarzda hal etilmasa, ziyon ko'rgan investor Markazning Bosh kotibiga Konvensiyaning 28 yoki 36-moddalariga muvofiq shu xususda iltimos bilan murojaat etgan holda ishni arbitraj yo'li bilan ko'rib chiqilishini tashkil etishi mumkin.

Nizolardagi ikkinchi tomon bo'lib hisoblanuvchi investor kontrakt sug'urtasiga muvofiq ko'rilgan zararlarning bir qismi yoki to'la hajmidagi tovon to'lovlarini olishi uchun nizolarda birinchi tomon bo'lib hisoblanuvchi Ahdlashuvchi Tomon ish ko'rيلayotgan jarayonning hech bir bosqichida yoki qaror chiqarilayotganda e'tirozlar bildirmaydi.

4. Quyidagi hollarda hech bir Ahdlashuvchi Tomon ko'rib chiqish uchun Markazga topshirilgan nizolarni hal etish ishiga diplomatik kanallar orqali ta'sir ko'rsata olmaydi, bordiyu:

a) Markazning Bosh kotibi yoki kelishtiruvchi komissiya yoki ular tomonidan tuzilgan hakamlik sudi nizo Markaz yurisdiksiyasidan tashqari deb qaror qilsa;

b) boshqa Ahdlashuvchi Tomon hakamlik sudi tomonidan chiqarilgan har qanday qarorni bajarmagan hollarda.

9-modda

Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasidagi nizolar

1. Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasidagi ushbu Bitimni talqin qilish yoki qo'llash borasidagi nizolar imkoniyatga ko'ra, shu jumladan, agar har ikkala Ahdlashuvchi Tomon ham ana shu har ikkala Ahdlashuvchi Tomonlarning vakillaridan tashkil topgan Ikki tomonlama Komissiyaga murojaat etish imkoniyatiga ega bo'lishni istasalar diplomatik kanallar orqali muvofiqlashtirilishi lozim.

2. Agar Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasidagi nizolar ular paydo bo'lganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab olti oy mobaynida bunday yo'l bilan hal etilmasa, istalgan Tomonning iltimosiga ko'ra ish hakamlik sudiga topshiriladi.

3. Bunday hakamlik sudi har bir konkret ish uchun quyidagi tartibda tuziladi: arbitraj to'g'risida iltimosnomasi olingandan so'ng ikki oy mobaynida har bir Ahdlashuvchi Tomon bittadan sud a'zosini tayinlaydi. Sudning ana shu ikki a'zosi uchinchi Davlat fuqarosini tayinlaydi va u har ikkala Ahdlashuvchi Tomonning roziligidagi binoan sud Raisi etib tayinlanadi. Sud Raisi sudning har ikki a'zosi tayinlangan kundan so'nggi ikki oy muddat mobaynida tayinlanishi lozim.

4. Agar mazkur moddaning 3-bandida belgilangan davr mobaynida zaruriy tayinlov amalga oshirilmasa, istalgan Ahdlashuvchi Tomon, boshqa kelishuv bo'limgan holda zaruriy tayinlovnini o'tkazish uchun Parijdagi Xalqaro Savdo Palatasining Xalqaro Sudi (bundan buyon XSP deb yuritiladi) Prezidentini taklif etishga haqli. Agar Xalqaro Sud Prezidenti Ahdlashuvchi Tomonlardan birining fuqarosi bo'lsa yoki u belgilangan vazifalarni bajara olmasa, zaruriy tayinlov uchun Ahdlashuvchi Tomonlardan hech qaysisining fuqarosi bo'limgan Vitse-Prezident taklif etiladi.

5. Hakamlik sudi o'z qarorlarini ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi. Bunday qarorlar har ikkala Ahdlashuvchi Tomon uchun majburiy hisoblanadi. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z sud a'zosi va arbitraj ishidagi o'z vakiliga sarflanadigan xarajatlarni to'laydi. Ish ko'rيلотган davrda sud Raisi uchun sarflanadigan va boshqa xarajatlarni Tomonlar teng ravishda birgalikda to'laydilar. Ishni ko'rib chiqishning tartib-qoidalari hakamlik sudi tomonidan belgilanadi.

10-modda

Subrogatsiya

1. Agar Ahdlashuvchi Tomonlardan biri yoki u vakolatli etib tayinlagan Agentlik («Birinchi Ahdlashuvchi Tomon») boshqa Ahdlashuvchi Tomon («Ikkinci Ahdlashuvchi Tomon») hududidagi investitsiyalarga nisbatan zararlarni qoplash bo'yicha tovon to'lovlarini amalga oshiradigan bo'lsa, ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon quyidagilarni tan oladi:

a) Tovon to'lovlarini oluvchi Tomonning qonunga ko'ra yoki qonuniy operatsiyalarga oid barcha huquq va talablari birinchi Ahdlashuvchi Tomonga o'tadi;

b) birinchi Ahdlashuvchi Tomon tovon to'lovlarini oluvchi Tomon singari subrogatsiya prinsiplariga muvofiq o'z huquqlarini amalga oshirishi va shunday talablarni qo'ya olishi uchun ham o'z zimmasiga investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarni oladi.

2. Har qanday holatlarda ham birinchi Ahdlashuvchi Tomon quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

a) berilgan huquq va talablarga muvofiq ega bo‘lgan huquq, talab va majburiyatlariga nisbatan birdek ryejim;

b) shunday huquq va talablar natijasida olingen har qanday to‘lovlar, shuningdyek tovon to‘lovlar oluvchi Tomon sifatida u investitsiyalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlarga nisbatan ushbu Bitimga muvofiq tovon to‘lovlar olish huquqiga ega.

11-modda

Boshqa qoidalarni qo‘llash

Agar istalgan Ahdlashuvchi Tomonning qonunchiligidagi qoidalari yoki hozirda mavjud bo‘lgan amaldagi xalqaro qonunchilik bilan bog‘liq bo‘lgan yoki Ahdlashuvchi Tomonlar o‘rtasida qo‘sishimcha tarzida ushbu Bitimni to‘ldirish uchun kiritilgan majburiyatlar umumiy va maxsus qoidalardan iborat bo‘lsa, mazkur bitimga ko‘ra bir Ahdlashuvchi Tomon investorlari uchun yaratiladigan rejimdan ko‘ra yanada yaxshiroq rejim yaratish huquqini beradi, bunday Qoidalar o‘zining afzalliklari bilan ushbu Bitimdan ko‘ra ustun hisoblanadi.

12-modda

Bitimni qo‘llash

Ushbu Bitimning qoidalari mazkur Bitim qonuniy kuchga kirgan yoki u kuchga kirgunga qadar bo‘lgan davrda amalga oshirilgan investitsiyalarga nisbatan qo‘llanadi.

13-modda

Bitimning qonuniy kuchga kirishi

Har bir Ahdlashuvchi Tomon Bitimning qonuniy kuchga kirishi uchun talab etiladigan o‘zining ichki tartibotlari tugaganligi to‘g‘risida boshqa Ahdlashuvchi Tomonni diplomatik kanallari orqali yozma ravishda xabardor qiladi. Boshqa Ahdlashuvchi Tomon bu haqda xabarnoma olgan kundan boshlab Bitim qonuniy kuchga kiradi.

14-modda

Bitimning amalda bo‘lish va uni harakatdan to‘xtatish muddatları

Mazkur Bitim o‘n yil davomida qonuniy kuchga ega hisoblanadi.

Agar Tomonlar ushbu Bitimni harakatdan to‘xtatish to‘g‘risida yozma ravishda xabar qilmasalar, u o‘n yillik muddat tugagandan so‘ng o‘z kuchida qoladi, oradan 12 oy o‘tgach esa Bitim bekor qilinadi. Mazkur

Bitim kuchga ega bo'lgan davrda amalga oshirilgan investitsiyalarga nisbatan Bitim qoidalarining kuchi Bitim harakatdan to'xtatilgan sanadan so'ng o'n yillik muddat mobaynida ham saqlanib qoladi va ular umumiy xalqaro huquq qoidalariga muvofiq ravishda qo'llaniladi.

Ushbu Bitimni o'z Hukumatlari Tomonidan lozim darajada vakolat olgan shaxslar quyida imzo chekuvchilar guvohligida imzoladilar.

Toshkent shahrida, 1994-yil 4-iyulida, ya'ni 5754-yilda, ikki nusxada tuzilgan, har biri o'zbek, ivrit va ingliz tilida yozilgan, barcha matnlar bir xil kuchga ega. Matnlar talqinida kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, ingliz tilidagi Bitim ustun kuchga ega hisoblanadi.

“Adolatli va xolis munosabatda bo‘lish mezoni” (*Fair and equitable treatment, FET*) – bu Xalqaro odat huquqidagi minimum standartlarning bir qismi bo‘lib, asosan xorijiy investorlarga nisbatan mezbon mamlakatlar tomonidan ma‘lum bir qulay muhit yaratish va kamsitishlarga yo‘l qo‘ylmasligi lozimligini talab qiluvchi tamoyildir.

Ad hoc arbitraji – bu nizolashuvchi taraflar tomonidan tanlangan arbitrlar tomonidan ularning nizolari hal etiladigan va vaqtincha faoliyat ko‘rsatadigan arbitrajdir. *Ad hoc* arbitrajlari taraflar protsessual qoidalar hamda qo‘llaniladigan huquqni ham o‘zлari tanlashlari mumkin bo‘ladi.

Asossiz aralashishning ta’qiqlanishi – bu asossiz va kamsituvchi choralarni qo‘llagan holda shartnoma taraflari bo‘lgan mamlakatlarning investorlari tomonidan ularning investitsiyalari boshqaruviga zarar yetkazmaslikni shartnoma taraflari bo‘lgan davlatlardan talab etuvchi qoidadir.

Aut dedere aut judicare (yo topshir yoki sud qil) – bu qoidaga ko‘ra jinoyat sodir etgan shaxslar ularni ushlagan davlat tomonidan ularni ekstraditsiya qilishni so‘rayotgan davlatga ekstraditsiya qilish yoki qilmaslik imkoniyati beriladi.

Betaraflik – bu mustaqil va suveren davlat tomonidan hech qanday yoki aynan bir urushda qatnashmaslik maqsadida rasmiy e‘lon qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunday davlat betaraf davlat deb nomlanadi.

Davlat belgilari – odatda davlat belgilari uchga bo‘linadi. Bular: doimiy aholi, hokimiyatning mavjudligi va hududdir. Biroq xalqaro huquqda ba‘zi olimlar davlatning boshqa davlatlar tomonidan tan olinganligi masalasini davlatning to‘rinchi belgisi sifatida keltirib o‘tadilar.

Davlat chegaralari daxlsizligi tamoyili – Mazkur tamoyilga ko‘ra, davlat chegarasi bir marta aniq belgilangandan so‘ng, nihoyasiga yetgan va tugallangan deb topiladi va unga daxl qilish mumkin emas.

Davlat harakatlari – Davlatga tegishli harakatlar deb uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud organlari tomonidan amalga oshirilgan harakatlar tushuniladi. Shuningdek, boshqaruv vakolatini o‘zida jamlovchi subyektning harakatlarini ham yuqoridagilar qatoriga kiritish mumkin. Bulardan boshqa subyektlar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar davlat harakati sifatida tan olinishi uchun u davlat tomonidan o‘z harakati sifatida tan olinishi yoki uning bevosita rahnomoligi ostida yuzaga kelgan bo‘lishi talab etiladi.

Davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik – Mazkur tamoyilga ko‘ra, suveren bo‘lgan davlatlarning ichki ishlariiga boshqa davlatlar va subyektlar aralashmasligi lozim.

Ekspropriatsiya – bu tushuncha asosan Xalqaro investitsiya huquqiga taalluqli bo‘lib, investor mulklarining davlat hisobiga tortib olinishini anglatadi. Ekspropriatsiya ikki turga bo‘linadi. Bular: Qonuniy ekspropriatsiya hamda

noqonuniy ekspropriatsiyalardir. Birinchi turda, hech qanday kamsitishga yo'1 qo'yilmasligi, lozim bo'lsa kompensatsiya to'lanishi vaadolatli munosabatda bo'lish talab etiladi. Ikkinci turda esa, davlat qonuniy bo'lman asoslarga investorning mulkini tortib oladi va bu uning javobgarligini yuzaga keltirib chiqarishi mumkin bo'ladi.

Estoppel – anglo-sakson huquqiy tizimining asoslaridan biri hisoblanadi hamda avvalgi harakatlariga zid keladigan shikoyat bilan chiqmaslik ma'nosini anglatadi.

***Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim* (Most favoured nation treatment)** – bu davlat biror-bir davlat yoki uning fuqarolariga, tovarlariga nisbatan uchinchi bir davlat yoki uning fuqarolari, tovarlariga nisbatan taqdim etadigan qulayliklardan kam bo'lman qulayliklar taqdim etishidir.

***Ekstrateritoriallik bo'yicha istisno* (privilege of extritoriality)** – Bu qoidaga ko'ra diplomatik muzokaralar natijasida davlat ichki huquq yurisdiksiyasidan ozod etiladi.

ICSID – Investitsion nizolarni hal qilish markazi. 1966-yil Jahon Banki huzurida xalqaro investitsion nizolarni hal etish maqsadida tashkil etilgan. Bosh qarorgohi Vashingtonda joylashgan.

***Ikkitononlama investitsion shartnoma* (BIT)** – Davlatlar tomonidan investorlarini o'zaro himoya qilish maqsadida tuziladigan ikkitomonlama shartnoma.

International easement – bu asosan anglo-sakson huquqiy tizimiga ta'lluqli qoida bo'lib, xalqaro huquqda ma'lum bir davlatga tegishli hududdan umumiyl erkin foydalanishni anglatadi.

Ichki sudlardan o'tish sharti – Bunda davlat bilan nizolashayotgan taraf xalqaro sudlarga chiqishdan avval davlatning ichki instansiylaridan o'tishi zarur bo'ladi. Bu shart ko'proq inson huquqlari bo'yicha konvensiyalar hamda ikki va ko'ptomonlama investitsion shartnomalarda uchraydi.

Jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish – odatda xalqaro shartnomalar bo'yicha yoki agar shunday shartnoma mayjud bo'limasa, xalqaro aloqalardagi o'zaro xalqaro hurmat (international comity) qoidasi bo'yicha talab qilgan davlatga jinoyatchining talab etilgan davlat tomonidan topshirilishi deganidir.

***Ko'ptomonlama investitsion shartnomalar* (MIT)** – Uch yoki undan ortiq mamlakatlardan investorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida tuziladigan shartnoma.

***Mintaqaviy savdo shartnomalari* (RTA)** – Ma'lum bir mintaqadagi davlatlar tomonidan o'zaro savdoni erkinlashtirish maqsadida tuziladigan ko'ptomonlama shartnomalar. Bularga: NAFTA, TPP, ASEAN kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

***Muvaqqat xalqaro sud* (Permanent Court of International Justice)** – 1920-yilda Millatlar Ligasi qoshida tashkil etilgan Xalqaro sud. Hozirgi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti qoshidagi Xalqaro Sud (International Court of Justice)ning ajdodi sifatida qaraladi.

Mezbon mamlakat – Xalqaro investitsion munosabatlarda investor tomonidan kiritilayotgan yoki kiritilgan investitsiyani qabul qiluvchi davlat.

NAFTA – Shimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi (kelishuvi). 1994-yilda kuchga kirgan va uning a'zolari AQSH, Kanada, Meksika hisoblanadilar.

Ommaviy maqsad – Odatda, xalqaro investitsion munosabatlarda davlatlar investorlar tomonidan davlatning ommaviy manfaatlariiga zid harakatlarni amalga oshirganda, davlat o'z jamiyatining ommaviy manfaatlarni ko'zlab chora-tadbirlarni amalga oshiradi va bu ommaviy maqsad sifatida talqin etiladi.

UNCITRAL – Xalqaro savdo huquqidagi BMTning asosiy organlaridan biri bo'lib, 1966-yilda tashkil topgan. Bu tashkilotning asosiy maqsadi xalqaro normalarni modernizatsiya qilish va keng yoyish hisoblanadi.

Ut res magis valeat quam preat - biror-bir narsani tasdiqlash, uni tasdiqlamagandan ko'ra yaxshiroq.

Uti possidetis iuris – bu davlat mustaqil bo'lgandan keyin ham mustamlaka paytidagi hududigagina ega bo'lishi mumkinligini anglatuvchi xalqaro huquqning tamoyilidir.

Xalqaro Sudning Konsultativ Xulosasi – odatda xalqaro sudlar ikki xil yurisdiksiyaga ega hisoblanadilar. Bular: 1) kelib chiqqan nizo bo'yicha yurisdiksiya va 2) konsultativ yurisdiksiya. Aynan ikkinchi turdag'i yurisdiksiya bo'yicha sud o'z yurisdiksiyasini belgilasa, kelib chiqqan nizo bo'yicha berilgan savollarga konsultativ xulosa taqdim etadi.

Xalqaro Sud – BMTning asosiy sud organi hisoblanib, Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan 9 yilga saylanadigan 15 sudyadan iborat bo'ladi.

Xalqaro odat huquqi (customary international law) – Xalqaro huquqning manbalaridan biri bo'lib, asosan xalqaro odatlardan tashkil topadi.

Xalqaro investitsiya huquqi – Investitsiyalarni himoya qilish, investorlar huquqlarini davlatlar tomonidan buzilishi va mezbon mamlakatlarning xalqaro investitsion munosabatlardagi huquqlarini o'rganuvchi fan sohasi.

Xalqaro huquqiy subyektlilik – Xalqaro huquq subyekti bo'lish uchun layoqatning mavjud bo'lishi.

Yetarli darajada himoya va kafolatlar bilan ta'minlash – Xalqaro investitsiya huquqida xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarni himoya qilish uchun kafolatlarning yetarliligini anglatadi.

Yevropa inson huquqlari bo'yicha sudi – Yevropa inson huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga ko'ra 1998-yilda doimiy ravishda tashkil etilgan xalqaro sud. Mazkur sud yuqorida konvensiyaga a'zo mamlakatlarda konvensiyada nazarda tutilgan inson huquqlari buzilishi bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqadi.

Yevropa inson huquqlari bo'yicha komissiyasi – Yevropa inson huquqlari sudining 1998-yilda qayta qurilishi paytida tashkil etilgan va u ushbu sudning asosiy yordamchisi hisoblanadi. Ariza kelib tushgan arizaning asosi bo'lgan nizoni ko'rib chiqish sud yurisdiksiyasiga tegishli bo'lsa, komissiya ish bo'yicha dalillarni to'plash va nizoni tinch yo'l bilan hal etish choralarini ko'radi.

Yurisdiksiya – Xalqaro huquqda asosan ikki xil yurisdiksiya mavjud bo‘lib, ular: 1) davlat yurisdiksiyasi va 2) sud yurisdiksiyasidir. Birinchi turda davlat hokimiyatining ta’sir etish maydoni tushunilsa, ikkinchi tur ichki qonunchiligidagi sudlovga tegishlilik qoidasiga to‘g‘ri keladi.

Shartnomalar huquqida xato tushunchasi – 1969-yilgi Vena konvensiyasida ham xato tushunchasiga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, u shartnomani haqiqiy emas deb topish uchun mavjud bo‘lgan asoslardan biri hisoblanadi.

Shartnomalarni sharhlash – bu shartnomaga turli xil shaxslar tomonidan berilgan sharhdir va shartnomalarni hamma turlicha sharhlanishi mumkin.

Shartnomalarni talqin qilish – Sudlar vakolatiga berilgan bo‘lib, shartnoma moddalarining asl mazmun-mohiyatini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

“Shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi – davlatlar o‘rtasida tuziladigan xalqaro shartnomalarni tartibga solish maqsadida 1969-yilda qabul qilinib 1980-yilda kuchga kirgan.

SUD ISHLARI RO'YXATI

1. *Temple of Preah Vihear (Cambodia v. Thailand), Judgement, ICJ Reports 1962, p.6.*
2. *The Alabama Arbitration Arbitral Award (1898), Alabama claims of the United States of America against Great Britain.*
3. *Arbitration Comission, EC Conference on Yugoslavia, Opinion No 8, ILR, Vol.92, p. 199.*
4. *Affaire du Vapeur "Wimbledon", Arret, 1923, CPJI serie A No 1, Frontier Dispute, International Court of Justice Reports 2005,90 (12 July 2005)*
5. *ICJ, Territorial Dispute (Libyan Arab Jamahiriya vs Chad) 1994.*
6. *United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran (United States of America v. Iran), Judgement, ICJ Reports 1980.*
7. *Case Concerning the Military and Paramilitary Activities In and Against Nicaragua (Nicaragua vs United States), ICJ Reports 1986.*
8. *Saluka investments vs Czech Republic, PCA decision 17. 03. 2006.*
9. *Emilio Augustin Maffezini v. The Kingdom of Spain (ICSID Case No. ARB/97/7) 25.01.2000).*
10. *ECtHR – Soering v. The United Kingdom, Application No. 14038/88, 7 July 1989.*
11. *Exchange of Greek and Turkish Populations, Advisory Opinion, 1925 P.C.I.J. (ser. B) No. 10 (Feb. 21).*
12. *Siemens A.G. v. The Argentine Republic, ICSID Case No. ARB/02/8.*
13. *Salini Costruttori S.p.A. and Italstrade S.p.A. v. The Hashemite Kingdom of Jordan, ICSID Case No. ARB/02/13.*
14. *RosInvestCo UK Ltd. v. The Russian Federation, SCC Case No. V079/2005.*
15. *Vladimir Berschader and Moïse Berschader v. The Russian Federation, SCC Case No. 080/2004.*
16. *ECtHR – Ahmed v. Austria, Application No. 25964/94, 17 December 1996.*
17. *ECtHR – Chahal v the United Kingdom (Application no. 22414/93).*
18. *ECtHR – D. v. The United Kingdom, Application No. 30240/96, 2 May 1997.*
19. *Manickavasagam Suresh v The Minister of Citizenship and Immigration and the Attorney General of Canada [2002] 1 S.C.R. 3, 2002 SCC 1.*
20. *ECtHR – Saadi v. Italy, Application No. 37201/06, 28 February 2008.*
21. *Legal consequences of the construction of a wall in the occupied Palestinian territory, Advisory Opinion of ICJ 9 july 2004.*
22. *Case concerning armed activities on the territory of the Congo Democratic Republic of the Congo v. Uganda) Judgment of 19 december 2005.*
23. *Oxus Gold Plc v The Republic of Uzbekistan, UNCITRAL 2010 Rules 17 December, 2015.*
24. *Metal-Tech Ltd. v Republic of Uzbekistan (ICSID Case No. ARB/10/3).*

A.I.UMIRDINOV, A.M.XAKIMOV

**XALQARO HUQUQ BO‘YICHA.
BMT XALQARO SUDI ISH
AMALIYOTI MATERIALLARI**

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrirlar: K.Abduvalieva, X.Yuldasheva.

Musahhihlar: N.Niyazova, R.Yunusova.

Texnik muharrir: D.Rajapov.

Kompyuterda sahifalovchi: D.Rajapov.

Bosishga ruxsat etildi: 15.05.2019.
Hajmi: 10. Adadi: 250. Buyurtma № 9.

Toshkent davlart yuridik universiteti
Tipografiyasida chop etildi.
Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi,
35-uy.